

# XALQ TA'LIMI:

 MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR



A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY  
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA  
O'RGATISH MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI



ILMIY-NAZARIY VA O'QUV-USLUBIY JURNAL  
2022-yil, 2-son



A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH VA YANGI  
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY-TADQIQOT INSTITUTINING  
ILMIY-NAZARIY VA O'QUV-USLUBIY JURNALI

Scientific-theoretical and educational-methodical journal  
National research institute of professional development and teaching new  
methodologies to teachers named after A.Avloni

**XALQ TA'LIMI:**  
MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

**PUBLIC EDUCATION:**  
PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

**2022**

(2-son)



A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY  
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA  
O'RGATISH MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI

**XALQ TA'LIMI:**  
MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

**Bosh muharrir:**

RADJIYEV Ayubxon Baxtiyorxonovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

PARDAYEVA Mehriniso Doniyarovna

**Mas'ul kotib:**

**Dizayner:**

OLIMOV Shamshod Boboxon o'g'li

**Adabiy tahrirchilar:**

DO'SMATOVA Yulduzxon Qambarovna  
NURMUHAMEDOVA Dildor Uralovna

**Tahrir hay'ati:**

PAXRUTDINOV Shukritdin Ilyasovich  
SHARIFXODJAYEV Usman Ulfatovich  
RAXMANKULOVA Nargiz Xadjiakbarovna  
MIRSOLIYEVA Muhabbat To'xtasinovna  
XODJAYEV Begzod Xudoyberdiyevich  
XALIKOV A'zam Abdusalomovich  
KARIMOV Farxod Erkinovich  
BAXRAMOV Anvar Axrarovich  
XIDOYATOVA Dilafruz Abdugaffarovna  
AXMEDOV Murodjon Ubaydullayevich  
IBRAGIMOV Abdumalik Gapparovich  
BOTIROV Hamid Hakimovich  
ABDULLAYEV Farxod Abdurashidovich  
RO'ZIQULOV Faxriddin Rasulovich  
QODIROV Umarali Do'stqobilovich

**Muassis:**

Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot  
instituti

Jurnal 2021-yil dekabr oyidan chiqa bosh-  
lagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ad-  
ministratsiyasi huzuridagi

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar  
Agentligining 2021-yil 8-noyabrdagi  
1459-raqamli guvohnoma berilgan.

Bahosi kelishilgan narxda.

**Tahririyat manzili:**

Toshkent shahar, Olmazor tumani,  
Ziyo ko'chasi, 6-uy. Pochta indeksi –  
100095.

© "Xalq ta'limi: muammolar, izlan-  
ishlar, yechimlar" jurnali, 2022.

## MUNDARIJA

---

|                                                        |                                                                                                                                 |    |
|--------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>U.Sharifxodjayev</b>                                | Ta'lim muassasalarini boshqarishda muhim bo'lgan omillarning nazariy jihatlar                                                   | 7  |
| <b>M. Pardayeva<br/>M. Yusupova</b>                    | Dars mashg'ulotini samarali tashkil etishning ilmiy-amaliy jihatlar                                                             | 17 |
| <b>X.Ismailov</b>                                      | Lesson study: yapon tajribasi sifatida matematika ta'limida samaradorlikka erishish usullari                                    | 21 |
| <b>I. Tillaboyev</b>                                   | Topshiriq va testlarning sifat belgilari                                                                                        | 37 |
| <b>N.Mamanazarova<br/>N.Ziyodulloyev<br/>S.Odilova</b> | Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish: muammo va yechimlar                                                                | 48 |
| <b>I.Azimova<br/>A.Mamataliyev</b>                     | O'zbek tili malakasini aniqlash testi tizimida o'qib tushunishni baholashning nazariy asoslari                                  | 57 |
| <b>S.To'rayeva</b>                                     | Boshlang'ich ta'lim sifati qiyosiy tahlil shaklida                                                                              | 65 |
| <b>F. Abdullayev</b>                                   | Monitoring ta'lim sifatini boshqarishning vositasi sifatida                                                                     | 76 |
| <b>F. Abdullayev</b>                                   | Ta'lim sifati va uni boshqarish                                                                                                 | 82 |
| <b>H.Valiyeva</b>                                      | Yoshlarning sport haqidagi fikrini aniqlash bo'yicha ijtimoiy tadqiqot                                                          | 86 |
| <b>Q.Karimberdiyev</b>                                 | PIRLS xalqaro tadqiqoti doirasida o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash hamda sinov materiallarining ishlab chiqilishi | 91 |
| <b>G. Xodjayeva</b>                                    | O'quvchining darsga diqqati nimalarga bog'liq?                                                                                  | 98 |

|                                                |                                                                                         |     |
|------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>S.Normatov</b>                              | Umumiy o'rta ta'limda zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellektning ahamiyati        | 102 |
| <b>L.Sultonova</b>                             | Umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmlari | 109 |
| <b>B.Amirullayeva</b>                          | Tabiiy fanlar (SCIENCE) o'qituvchilari kasbiy malakalarini oshirish                     | 115 |
| <b>I.Bobojonova</b>                            | Ingliz tili darslarida Blum taksonomiyasidan foydalanish                                | 123 |
| <b>S.Ishmuratova</b><br><b>M.Djumaniyazova</b> | Fuqarolik jamiyati va ta'lim sohasida jurnalistikaning o'rni                            | 127 |

## TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHDA MUHIM BO'LGAN OMILLARNING NAZARIY JIHATLARI

**Sharifxodjayev Usman Ulfatovich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,*

*"Marketing" kafedrası dotsenti*

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarini samarali boshqarish tamoyillari, ta'lim muassasalarini boshqarishga oid turli nazariyalar o'rganilgan. Xususan, maktab direktori boshqaruvchi sifatidagi hususiyatlari va egallashi lozim bo'lgan fazilatlariga oid AQSH, Yevropa va rivojlangan Osiyo mamlakatlari olimlarining tahlillari keltirilgan. Unga ko'ra zamonaviy boshqaruv asosan ta'limiy natijalarga qaratilishi lozimligi, jarayonlarni tashkil etish natijaga erishishdagi taktik harakatlar ekani asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** *Menejment panjarasi, boshqaruv harakati, muvaffaqiyatli maktab rahbari, boshqaruv fazilatlar, natijaga asoslangan ta'limiy boshqaruv*

Mamlakattaraqqiyoti, avvalambor, inson resurslarining rivojlanishiga bog'liqdir. Inson resurslarida rivojlanish bo'lmasa, har qanday davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan rivojlanishi past darajada qoladi va bunday davlatlarning inson resurslaridan samarali foydalana oladigan davlatlarga qaramligi ortadi. Inson resurslarining rivojlanishi ham son ham sifat jihatdan ta'limga bog'liqdir.

Shaxs, jamiyat va davlatning rivojlanishida ta'limning o'rni, shubhasiz, beqiyosdir. Shu bilan birgalikda, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar samarasi joylardagi ta'lim muassasalarda mehnat qiluvchi o'qituvchilar va rahbar xodimlarning bilimi, malakasi va dars berish va ish yuritish kompetentligiga bog'liqdir.

Ta'lim muassasalariga ta'sir qiladigan turli xil boshqaruv nazariyalari mavjud. Klassik boshqaruv nazariyalaridan tortib zamonaviy boshqaruv nazariyalarigacha bo'lgan ko'plab nazariyalar boshqa sohalar singari ta'lim muassasalarida ham o'zlarining aniq ta'sirini ko'rsatdi. Klassik tashkiliy nazariyada boshqaruv (menejment) asosan samaradorlik va mahsuldorlikka e'tibor berib, tashkilotni belgilangan texnik tartib-tamoyillar asosida ishlatishga harakat qildi va tashkilotning individual va ijtimoiy muhitini hisobga olmadi. Neoklassik tashkilotlar nazariyasida tashkilotni xulq-atvor fanlari yordamida boshqarishga harakat qilindi va odamlar (ishchi-xodim) orasidagi munosabatlar hamda norasmiy tashkilotlarga e'tibor berildi. Tizim nazariyasining o'rta qiyos bilan uni boshqaruvda qo'llash yo'lga qo'yildi. Tizim

nazariyasiga ko'ra, boshqaruv tashkilotdagi barcha tarkibiy qismlarni (komponentlar yoki birliklarni) o'zaro bog'liqligiga urg'u bergan holda, ularni muvofiqlashtirish va boshqarish nazarda tutiladi. Tashkilotdagi bitta komponentdagi o'zgarish boshqa barcha komponentlarga ta'sir qilishi mumkin.

Zamonaviy boshqaruvda tashkilotlar o'zgaruvchan va atrof-muhitga moslashuvchan ochiq tizim sifatida qaralib, tizimning yaxshi ishlashi uning quyi tizimlari va yon strukturalari bilan birgalikda yaxshi ishlashi nazarda tutiladi. Tizim tarkibidagi bir komponentning (birlikning) faoliyatida samaradorlik va unumdorlik past bo'lsa, butun tizimni rivojlanishini sekinlashtiradi yoki kutilgan natijalarni bermaydi. Ta'lim muassasalarida turli xil bo'linmalarni (masalan, maktab bosh direksiyasi, maktab tarkibidagi bo'limlar, to'garaklar) kichik tizim sifatida ko'rib chiqish mumkin. Ushbu bo'linmalar atrofidagi tizimlar bilan sog'lom aloqalarni o'rnatish orqali va har bo'linma o'zaro kelishgan holda aniq maqsadlarini umumiy maqsadga xizmat qiladigan tarzda bajarishga harakat qilishlari kutiladi.

Getsels va Guba 1950-yillarda maktabni ijtimoiy tizim sifatida o'rgandi. Ushbu model maktab tizimining ishlashini tashkiliy va kadrlar o'lchovlariga asoslangan. 1980-yillarda maktablarning tashkiliy xususiyatlari to'g'risida nafaqat nazariy darajada, balki hayotga tadbqiq qilish sohasida ham muhim tadqiqot ishlari bajarildi. Ushbu tadqiqotlar ilgari unchalik samarali bo'lmagan tashkiliy madaniyat, motivatsiya, transformatsion yetakchilik, ramziy yetakchilik kabi tushunchalarni ta'limni boshqarishning tashkiliy fikr o'lchoviga olib keldi.

Tez o'zgaruvchan tashkiliy nazariyalar tashkilotlarning tuzilishi va funksiyalarida jiddiy o'zgarishlar yaratishi kerak bo'ladi. Xuddi shu tarzda, ushbu nazariyalar asosida ta'lim muassasalarida bugun va kelajak ehtiyojlari va umidlari yo'lida kuchli menejerlarni tayyorlash zarurati paydo bo'lmoqda.

Ta'lim muassasalarini boshqarishga qo'yiladigan talablar ko'pdir. Ta'lim muassasasi boshqaruvchisi — bu xodimlar o'rtasida aloqa o'rnatish, o'qituvchilarni muvofiqlashtirish, faoliyatini nazorat qilish va oxir-oqibat amalga oshirilgan barcha tadbirlarni baholash orqali maktabda samarali va muvaffaqiyatli darajaga, natijalarga erishishga harakat qiladigan shaxsdir. Bredeson Amerika Qo'shma Shtatlarida maktab direktorlari ustidan olib borgan tadqiqotida maktab direktorlarining rollarini sanab o'tadi va ularning eng muhim vazifalaridan biri maktab maqsadlariga erishish uchun doimiy qaror qabul qilish mexanizmidan foydalanish ekanligini ta'kidlaydi.

Bredeson qaror qabul qilishda vaziyatga to'g'ri baho berishga ahamiyat qaratishni ta'kidlasada, qaror qabul qilishni cho'zmaslik muhimligini ilgari suradi. Bredesonning ushbu tadqiqotining yana bir muhim jihati tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovnomada maktab direktorlarining 90%i "menejment dasturlari"ni

tugatganligi va bu universitetlarda magistratura darajasiga teng ekanligini, ammo shunday bo'lsada, bundan qoniqmasdan ma'lum davrlarda o'z sohalari bilan bog'liq kurslarda qatnashish uchun universitetlarga borishlarini ma'lum qilgan.

Albatta, Bredeson tadqiqoti umumiylik kasb etmasada, maktab direktorlari muntazam malaka oshirish kurslarida o'qishi va/yoki o'qitilishi muhim o'ringa ega ekanligi shubhasizdir.

Maktab direktorlari haqidagi shunga o'xshash bir tadqiqot Peterson tomonidan olib borildi. Petersonga ko'ra, maktabdagi muvaffaqiyat uchun agar bir kishini ko'rsatish kerak bo'lsa, u ham hech shubhasiz maktab direktoridir.

Terrens Dil va Kent Peterson, maktab direktorini maktab madaniyatini yaratuvchi va shakllantiruvchi shaxs deb hisoblaydi.

Darhaqiqat, maktab madaniyati maktab direktori va o'rinbosarlarining yurish-turishi, xatti-harakati, bilimi va kasbiy mahoratlari asosida shakllanadi. Maktabning didi, tozaligi va shinamligi maktabni boshqarayotgan insonga va uning komandasiga bog'liqdir. Bu ilmiy va amaliy jihatdan ko'p marotaba isbotlangan. Maktab madaniyati o'sib kelayotgan yoshlarning psixologiyasiga, ijtimoiy hayotiga, bilim olishiga va darslarga qiziqish uyg'onishiga va dunyoqarashiga juda katta ta'sir qilishi o'z tasdig'ini topgan. Ushbu nazariy qarashlardan kelib chiqib, O'zbekistonda bugungi kunda respublika bo'yicha 1400 dan ortiq ta'lim darajasi yuqori bo'lmagan maktablarda malakali o'qituvchilarni yetishmasligini inkor etmagan holda, maktab direktorlari va o'rinbosarlarining faoliyatini, malakasi, dunyoqarashi, xatti-harakati va boshqarish qobiliyatini o'rganib chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Agar muammo maktab direktori va o'rinbosarlarida bo'lsa, har qanday malakali o'qituvchi u yerda samarali mehnat faoliyatini yurita olmaydi. Shu bois, ushbu jihatni ham, albatta inobatga olish kerak bo'ladi. Bu holatda, maktab direktori va o'rinbosarlarini qayta tayyorlash kurslarida o'qitish yoki lavozimlaridan chetlatish choralari ko'rilishi mumkin.

Shu o'rinda, bir maktab direktori boshqaruvchi sifatida qanday hususiyatlarga ega bo'lishi kerak?, degan tabiiy savol tug'iladi. Albatta, ushbu savol juda ko'plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lgan. Lekin, shuni aytib o'tish kerakki, maktab boshqaruvi alohida bir fan sifatida o'rta chiqmagan, balki boshqaruv fanining tarkibiy bir qismi doirasida o'rganilgan.

Boshqaruv fani qadimdan mavjud bo'lgan eng eski bir fan bo'lib, davlat boshqaruvi, jamiyat boshqaruvi, tashkilot boshqaruvi sifatida o'rganilib kelinmoqda. Maktab boshqaruvi tashkilot boshqaruvi (ba'zan jamiyat) doirasida o'rganiladi. Lekin, boshqaruvni umumlashtiruvchi hususiyatlari mavjuddir. Unga ko'ra, boshqaruv (menejment – ing. “manage” so'zidan kelib chiqadi) – aniq belgilangan maqsad va vazifalarni bajarish uchun resurslarni jalb qilish va yo'naltirish harakatidir.

Boshqaruvchi (menejer) esa – guruh bo'lib birlashgan va muayyan maqsad uchun uyg'unlik va hamkorlikda tashkil topgan odamlarni samarali va muvaffaqiyatli boshqarish uchun mas'uliyat va majburiyatlarga ega bo'lgan shaxsdir.

Boshqaruvchini tavsiflashda odatda an'anaviy boshqaruvchi va zamonaviy boshqaruvchi sifatida ikkiga ajraladi. An'anaviy boshqaruvchi haqida gap ketganda, buyruq beradigan, itoatga asoslangan avtoritar boshqaruv tushunchasi yodga tushadi. Ushbu tushunchaga ko'ra, ma'muriyat muvaffaqiyati avtoritarlikga asoslanadi. Zamonaviy boshqaruvchining muvaffaqiyati esa samarali va unumdor hamda o'zaro hurmatga asoslangan bo'ladi. Zamonaviy boshqaruvchi nafaqat mavjud qadriyatlarni va tartib-tamoyillarni kuzatibgina qolmay, balki yangilarini yaratadigan va shu tariqa tashkilotning omon qolishini va ishchi-xodimlarining hayotini yaxshilaydigan kashfiyotchidir.

Bleyk va Muton tomonidan "Managerial Grid" (Menejment panjarasi) deb nomlangan boshqaruv uslublarini model bo'yicha boshqaruvchilarning xususiyatlarini farq qiluvchi ikkita o'lchov mavjud. Ushbu o'lchovlardan biri bu boshqaruvchilik xatti-harakatlarida insonga yo'nalish, ikkinchisi ishlab chiqarishga yo'naltirilganlikdir. Bleyk va Muton ushbu ikki o'lchamdagi turli xil kombinatsiyalardan foydalangan holda besh xil boshqaruv harakati haqida yozadi:

1. Ham o'zi mas'ul bo'lgan ishlarni bajarishda, ham qo'l ostidagi insonlarning istaklari va ehtiyojlarini hisobga olishda juda loqayd bo'lgan boshqaruvchilar;

2. Tashkilot maqsadlariga maksimal darajada erishish uchun ish joyidagi barcha sharoit va resurslarni yo'naltiradigan, lekin insonning istaklari va ehtiyojlarini qondirish va ularni ish joylarida hursand qilish uchun hech qanday choralar ko'rmaydigan boshqaruvchilar. Bunday boshqaruvchilar "avtoritar" deb ataladi;

3. Ish joyida insonning istaklari va ehtiyojlarini qondirish va inson baxtini ta'minlashga ustuvor ahamiyat beradigan, ammo ish joyida tashkilot maqsadlariga erishish uchun minimal boshqaruv tashabbuslari va xatti-harakatlarini amalga oshiradigan boshqaruvchilar. Bunday boshqaruvchilar "gumanitar" deb ta'riflanadi;

4. Ishchi-xodimlarning istaklari va ehtiyojlarini o'rta darajada qondiradigan va shunga muvofiq tashkilot faoliyatining samaradorligini o'rta darajada ta'minlaydigan boshqaruvchilar. Bunday boshqaruvchilar "o'rta yo'lovchilar" deb nomlanadi;

5. Tashkilotdagi odamlarning ehtiyojlari va istaklarini maksimal darajada bajaradigan va shu bilan birga tashkilotning o'z maqsadlariga maksimal darajada erishishni ta'minlaydigan tadbirlarni amalga oshiradigan boshqaruvchilar. Ushbu boshqaruvchilar "demokratlar" deb ta'riflanadi va bu modelga muvofiq ideal boshqaruvchilardir.

Boshqaruvda ilgari faqat rejalashtirish, tashkillashtirish, muvofiqlashtirish (koordinatsiya), yo'naltirish, kadrlar bilan ta'minlash, audit va byudjetni shakllantirish kabi omillariga ahamiyat qaratilgan bo'lsa, keyinchalik qaror qabul qilish qobiliyati, aloqa, ta'sir o'tkazish, ijodkorlik, yetakchilik, motivatsiya, baholash, o'zgarish-innovatsiya va jamoatchilik bilan ishlash kabi faoliyatlar ham qo'shildi.

Maktabning samarali direktori avvalo o'quvchining kognitiv (bilim), hissiy, psixomotor, ijtimoiy va estetik jihatlarini nuqtayi nazardan har tomonlama rivojlanishiga imkon beradigan optimal o'quv muhitini taqdim etishi kerak.

Yaxshi rahbarlik (direktor) har qanday maktabda muvaffaqiyat kalitidir. Eng yaxshi maktablarda samarali (effektiv) maktab direktori yoki yetakchilar guruhi bo'ladi. Ushbu yetakchilar nafaqat uzoq muddatli yutuqlar uchun poydevor yaratibgina qolmay, balki ular ketganidan keyin ham barqarorlik saqlanib qoladi. Maktab sharoitida rahbar (direktor) har kuni boshqa ma'murlar (sinf rahbarlari), o'qituvchilar, yordamchi xodimlar, o'quvchilar va ota-onalar bilan muomala qilishda ko'p qirrali bo'lishi kerak. bu oson ish emas, lekin ko'plab sinf rahbarlari o'z navbatida kichik guruhlarining mutaxassislaridir. Ular bilan direktor orasidagi munosabat va samimiyat, ishlarning samarali tashkil etilishiga va maktabdagi har bir o'quvchining qo'llab-quvvatlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Maktab direktoriga qo'yiladigan talablar va umuman muvaffaqiyatli maktab direktorlarining fazilatlarini va xususiyatlarini to'g'risida yagona fikr birligi bo'lmasa-da, bu masalada ko'plab ilmiy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan. Shulardan biri "Muvaffaqiyatli maktab rahbarlarining 8 fazilati: Sahro orolining sinovi" kitobi muallifi yozuvchi Jeremi Satkliff Buyuk Britaniyadagi eng yaxshi maktab direktorlaridan olgan intervyusidan kelib chiqib, maktab direktorining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun sakkiz sifatni keltirib o'tadi:

Savol shunday bo'ladi. Tasavvur qiling, kimdir sizni bir orolga direktorga juda muhtoj bo'lgan bolalar bilan to'la maktabga tashlab ketishdi. Maktabingizni sahro orolida boshqarish uchun qanday sakkiz fazilatni o'zingizga olgan bo'lar edingiz?

---

### **1) Ko'ra bilish (Vision)**

Ko'ra bilishlik (Vision) tushunchasi noaniq va chalkash bo'lishi mumkin, ammo eng yaxshi maktab direktorlari axloqiy maqsadlarni aniq tushunadigan vizyonerlardir. Muvaffaqiyatli rahbarlar "voqealar bilan shakllanish o'rniga, kelajakni shakllantirish qobiliyatiga va buyuk tasavvuriga ega bo'ladi", deydi Ratlenddagi Uppingham maktabi direktori Richard Xarman.

## **2) Jasorat (Courage)**

Muvaffaqiyatli maktab direktorlari barcha ishlarni bajarish uchun katta qat'iyat, iroda va sabr-toqat ko'rsatadilar. Ular tavakkal qilishga va samarasiz ishlar yoki xulq-atvorga qarshi turishga tayyor. "Inkor qilib bo'lmaydigan ruhiy jasorat bo'ladi", deydi Xaverxill shahridagi Castle Partnership Academy Trust direktori Madlen Vigar.

---

## **3) Ehtiros (Passion)**

"Biz bolalar uchun ishlaymiz va bu haqda hech qachon unutmasligimiz kerak", deydi Sautgemptondagi Portswood, St Mary's and Weston Park boshlang'ich maktablari ijrochi direktori Llin Kodling. Kodling singari muvaffaqiyatli maktab direktorlari o'qitish va o'rganishga ishtiyoq bilan qarashadi va bolalarga katta e'tibor berishadi. Ular o'z o'quvchilari va xodimlarining ishlariga faol qiziqishadi.

---

## **4) Hissiy aql (Emotional intelligence)**

Muvaffaqiyatli maktab direktorlari – bu jamoa quruvchilaridir. Ular munosabatlarning muhimligini tushunadilar, xodimlariga va o'quvchilariga imkoniyat beradilar va katta hamdardlik ko'rsatadilar. "O'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'ying – ochiq, ishonchli, hazilkash va boshqa ko'p narsalar tabiiy ravishda shakllanadi. Shunda ular o'zlarini g'ayratli his qilishadi va ular sizga erishishni xohlashadi", deydi Kingsbridge Community College direktori Rojer Poup.

---

## **5) Hukm (Judgement)**

Eng yaxshi maktab direktorlari aql-idrokni namoyish etadi, to'g'ri qaror qabul qiladi va dono rahbarlardir. Biroq, muhim narsa shundaki, bu faqat yolg'iz o'zi yurish emas, balki bu butun maktab jamoasini jalb qilish va odamlarni birgalikda oldinga siljitish haqidadir.

---

## **6) Chidamlilik (Resiliyence)**

Boshliq bo'lish og'ir va ba'zan charchatadi. Muvaffaqiyatli maktab direktori nekin va bardoshlidir, inqirozli vaziyatlarda xotirjamlikni saqlaydi va har doim baquvvat va pozitivdir. "Gap shundaki, bo'ronli suvga bardosh berish uchun o'zingizni chindan ham bilishingiz va shaxsiy strategiyangiz bo'lishi kerak", deydi Reach Academy Trust bosh direktori Ketrin Peyn.

## 7) Ishontirish (Persuasion)

Eng yaxshi maktab direktorlari ishonchli kommunikatorlar va yetakchilardir. Ular har qanday tinglovchilarga “o‘z maktabining tarixini” tasvirlab berishga qodir bo‘lgan katta ishontiruvchilar va tinglovchilardir. Ular shuningdek ajoyib motivatorlardir. “Odamlarni biron bir ish bilan shug‘ullanishga va qo‘shimcha milni bosib o‘tishga majbur qilish yaxshi yetakchilikning asosidir”, deydi Tauer-Xamletdagi George Green's School sobiq direktori Kenni Frederik.

## 8) Qiziqish (Curiosity)

Muvaffaqiyatli maktab direktorlari tashqi ko‘rinishiga ahamiyat beradigan, ochiq fikrli va qiziquvchidir. Barnetdagi Compton School direktori Tereza Tunnadinning so‘zlariga ko‘ra, “Yetakchilik boshqa joylarda sodir bo‘layotgan voqealarni kuzatib borish va yaxshi g‘oyalarni to‘plash uchun maktab tashqarisida kamida bitta oyoqqa ega bo‘lishi kerak”. Ular har doim voqealardan xabardor bo‘lgan ajoyib tarmoqchilar va fursatdoshlardir.

Muvaffaqiyatli maktab direktorlarining sifatlari, xususiyatlari borasida boshqa yana ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu tadqiqotlarda maktab direktorlariga ta’lim muassasalarni samarali boshqarishlari uchun kerak bo‘ladigan fazilatlarni ilgari surib, ularni ba’zilar beshta ba’zilar o‘nta ekanliklarini ta’kilashadi. Xususan, Jeff Kutash, Yeva Niko va b. olib borgan tadqiqotlarida, maktab muvaffaqiyati uchun maktab direktori va o‘qituvchilarning faolligi va samaradorligini oshirish asosiy chora ekanligini ta’kidlashadi. Buning uchun maktab o‘quvchilarining fanlarni o‘zlashtirish darajasi qanday, davlat imtihonlaridan qay darajada o‘tmoqda, qancha o‘quvchi kollej va universitetlarga o‘qishga kirmoqda kabisavollarga qisqava uzoq muddatli javob berishi kerak. Bunday savollarga javob izlash asosan maktab rahbariyatining zimmasidadir. Shundan kelib chiqib, kuchli maktab direktorlari quyidagi besh fazilatga ega bo‘lishi kerak:

### **Ta’lim muassasalari rahbarlarining 5 fazilati:**

1. Ular o‘quvchilarining muvaffaqiyati uchun katta talablarga ega bo‘ladi. Rejalarni past darajada tutish maqsadlarga erishishni osonlashtiradi, ammo kuchli rahbarlar o‘zlari, jamoasi va o‘quvchilar uchun yuqori maqsadlarni qo‘yadi.
2. Ular juda inklyuziv bo‘lib, har bir o‘quvchining taraqqiyoti va shaxsiy rivojlanishiga e’tibor berishadi. Maktab direktorining eng qiyin tashabbuslaridan biri bu har bir o‘quvchining rivojlanishiga yordam berishdir. Samarali rahbar buni

tushunadi va qo'llab-quvvatlash, aralashuv va taraqqiyot amalga oshirilishi mumkin bo'lgan hurmatli muhitni yaratadi.

3. Ular o'zlarining qarashlari bilan o'rtoqlashish va o'quvchilarning bilimlari va taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash uchun xodimlar, ota-onalar, korxonalar va jamiyat bilan aloqalarni o'rnatadilar va hamkorlik qiladilar. Maktabning samarali yetakchisi maktabning tasavvurini yolg'iz o'zi amalga oshira olmasligini tushunadi. Boshqalarni sayi-harakatlarda ishtirok etishga ilhomlantirish va rag'batlantirish maktab rahbarlariga zarur bo'lgan asosiy mahoratdir. Buning uchun rahbarning individual kuchli va zaif tomonlarini bilish muhimdir.

4. Ular har bir o'qituvchini yaxshiroq qilish muhimligini tushunadilar. Doimiy o'qitish, malakasini oshirish, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish o'qituvchilarning muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Muvaffaqiyatsiz o'qituvchilarsiz, hatto eng yaxshi rejalar ham barbod bo'ladi.

5. Ular muammolarni hal qiladigan odamlardir. Kuchli maktab direktori nostandart fikrlash qobiliyatiga ega va qiyinchiliklarga qaramay muvaffaqiyatga erishish yo'llarini o'ylab topishi mumkin. Hammaga foyda keltiradigan samarali yechimlarni topish maktab rahbarlari uchun muhim mahoratdir

Yuqorida ko'rib chiqqanimiz ta'lim muassasalarining boshqaruvida muhim bo'lgan omillar, avvalo tizimli boshqaruv shakliga asoslanishi, ta'lim sifatini yaxshilashda, maktab muvaffaqiyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab direktorining yuqorida keltirib o'tilgan hislatlari maktab samaradorligi va o'quvchilarning bilim olishida va o'qituvchilarni kasbga bo'lgan qiziqish va yondashuvidagi rivojlanishlarida katta rol o'ynashi shubhasizdir. Shu bilan birgalikda, ba'zi tadqiqotlarda maktab sifatini va muvaffaqiyatini oshirishdagi an'anaviy yondashuvlar o'rniga, nostandart talablarni va yondashuvlarni ilgari surmoqda. Shunday ta'lim yozuvchilaridan Ken Robinson va Lu Aronika bo'lib, ushbu olimlarning fikricha, dunyodagi mavjud ta'lim tizimi 19-asr sanoat inqilobi natijasida paydo bo'ldi. O'tgan 150-yillik davrda dunyoda juda ko'plab ishlab chiqarishda o'zgarishlar yuz bergan bo'lsada, umumiy ta'lim tizimi hali ham eskirgan zavod mashinalarga xizmat ko'rsatish uchun mos bo'lgan mutaxassislarning ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Olimlarni ta'kidlashicha, maktab xizmat ko'rsatish va biznesga aylanishi bilan birga asosiy maqsadi bo'lgan ong va qalbni boyitish, odamni o'z yo'lini topishga yordam berish va boshqalar bilan muloqot qilishni o'rgantishni unutgan. Ta'lim tizimi va ta'lim siyosatini o'zgartirish borasidagi bahs-munozara juda ko'p. Lekin, har birida ta'lim boshqaruvining ahamiyati o'zgarishsiz buyukdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi, Republikadagi ta'lim darajasi yuqori bo'lmagan MAKTABLAR RO'YXATI <https://uzedu.uz/uploads/2021/03/maktablar-royxati.pdf>
2. «Школа будущего. Как вырастит талантливого ребенка / Кен Робинсон и Лу Ароника»: Манн, Иванов и Фербер; Москва; 2016.
3. 5 Qualities of Strong School Leaders, January 03, 2018. <https://online.uwsuper.edu/articles/5-qualities-of-strong-school-leaders.aspx>
4. Blake, R.R. and McCanse, A.A., 'Leadership Dilemmas-Grid Solutions,' Houston: Gulf Publishing Company, 1991. The Blake Mouton Managerial Grid, [https://www.mindtools.com/pages/article/newLDR\\_73.htm](https://www.mindtools.com/pages/article/newLDR_73.htm)
5. Bredeson P. V., "An analysis of the metaphorical perspectives of school principals." Educational Administration Quarterly, Vol. 21, 1985, p.38.
6. Chris Balow. Six Steps for School Leaders to Use Data Effectively. June 8th, 2017. Illuminate Education. <https://www.illuminateed.com/blog/2017/06/six-steps-school-leaders-use-data-effectively/>
7. Deal, T.E. and Peterson, K.D. The Leadership Paradox: Balancing Logic and Artistry in Schools. San Fransisco: Jossey-Bass Inc. 1994.
8. Derrick Meador, The Essential Qualities of an Effective School Leader, January 09, 2019. <https://www.thoughtco.com/how-school-administrator-can-be-effective-leader-3194569>
9. Gary Gordon. School Leadership Linked to Engagement and Student Achievement. GALLUP, July 2013.
10. Getzels, J. W., and Guba, E. G. Social behavior and the administrative process. The School Review, 1957, No 65(4), p. 423-441.
11. Jeff Kutash, Eva Nico va boshqalar. The School Turnaround FIELD GUIDE. FSG Social Impact Advisors, 2010.
12. Jeremy Sutcliffe, 8 Qualities of Successful School Leaders: The Desert Island Challenge. Bloomsbury Education: 1st edition, 2013.
13. Joseph Lathan, 10 Traits of Successful School Leaders, University of San Diego <https://onlinedegrees.sandiego.edu/effective-educational-leadership/>
14. Karen Seashore Louis, Kenneth Leithwood va boshqalar. Learning from Leadership: Investigating the Links to Improved Student Learning. Final Report of Research to the Wallace Foundation, University of Minnesota. 2010, p. 9.
15. Kivanç Bozkuş, School As A Social System. Sakarya University Journal of Education, 4/1 (Nisan /April 2014) ss. 49-61.

16. Management: What is Management? [https://www.cengage.com/management/discipline\\_content/mgmt\\_demo/0324656521\\_ch01.pdf](https://www.cengage.com/management/discipline_content/mgmt_demo/0324656521_ch01.pdf); What is a manager? Definition and meaning, <https://marketbusinessnews.com/financial-glossary/manager-definition-meaning/>
17. Peterson K.D., "The Principal's Tasks". The Administrator's Notebook. Vol. 26, 1973, p.3.
18. Saylor, J. G., Alexander, W. M., & Lewis, A. J., Curriculum Planning for Better Teaching and Learning. New York: Holt, Rinehart, & Winston, 1981.
19. Spencer J. Maxcy and Leona Libert. Should Education Leaders Be Humanistic? Journal of Thought, Winter 1983, Vol. 18, No. 4, pp. 101-106.
20. Stephen J. Skripak, Management and Leadership. Chapter 7, Fundamentals of Business. Pamplin College of Business and Virginia Tech Libraries, 2016, p. 159-185.
21. The Management Handbook: For UN Field Missions, International Peace Institute, 2012, p. 1-2.
22. The School Principal as Leader: Guiding Schools to Better Teaching and Learning. The Wallace Foundation, 2013.
23. Todd Whitaker. What Great Principals Do Differently: Fifteen Things That Matter Most. Routledge, 2002.

## **DARS MASHG'ULOTINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI**

**Pardayeva Mehriniso Doniyarovna,**  
*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti prorektori*

**Yusupova Mahliyo,**  
*Toshkent shahar 30-maktab o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy pedagogika va kognitiv psixologiya izlanishlariga asoslangan darsga sifatli tayyorgarlik asoslari ko'rsatib o'tilgan.

**Аннотация.** В данной статье показаны основы качественной подготовки к уроку на основе исследований современной педагогики и когнитивной психологии.


**Abstrakt.** This article confirms the basic of quality preparation for the lesson based on modern pedagogy and cognitive psychology research.

**Kalit so'zlar:** tayyorgarlik, dars, reja, mazmun, baholash.

Darsni muvaffaqiyatli o'tkazish va qo'yilgan maqsadlarga erishish ko'p jihatdan o'qituvchi va o'quvchilarning kelishilgan faoliyati bilan belgilanadi, bu esa o'z navbatida ularning darsga tayyorgarligiga bog'liq. Darsga puxta tayyorgarlik ko'rish, ayniqsa, pedagogik ishda yetarlicha tajribaga ega bo'lmagan yosh o'qituvchilar uchun zarurdir. O'qituvchi darsga tayyorlashida ikki bosqich mavjud: dastlabki va darhol tayyorgarlik.

Darsga oldindan tayyorgarlik ko'rish o'qituvchining maxsus, pedagogik va uslubiy adabiyotlarni o'rganishi, o'z fanining o'quv rejasining mazmuni va talablari va undagi tushuntirish xati bilan, darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan sinchkovlik bilan tanishishidan iborat.

Oldingi davrlardagi shaxsiy tajribani tahlil qilishda, berilgan darsning dars tizimida bo'lim yoki dastur mavzusi bo'yicha o'rnini aniqlashda, tematik rejalashtirishda boshqa o'qituvchilar bilan hamkorlik qilish kerak. O'qituvchi shuningdek, kichik va yuqori sinflarda turdosh fanlar bo'yicha va ularning predmeti bo'yicha dastur va darsliklar bilan tanishadi. O'quv yili boshlanishidan oldin o'qituvchi dasturning barcha mavzularini o'rganishni o'z vaqtida taqsimlaydi, ushbu fanni o'rganish uchun o'quv rejasida ajratilgan haftalik soatlar sonini va darslar jadvalini hisobga olgan holda tegishli kalendar sanalarini belgilaydi. Shu tarzda belgilangan dastur o'qituvchiga mavzu bo'yicha ish jadvali bo'lib xizmat qiladi, keraksiz shoshqaloqlikka yo'l qo'ymaslik va mavzuni o'rganishda orqada qolmaslik uchun dasturning alohida bo'limlarini o'tish vaqtini nazorat qilishga yordam beradi. O'qituvchilarga mavzu bo'yicha o'quv ishlarini tematik rejalashtirish tavsiya etiladi. Bunda har bir darsning mavzusi, mazmuni va darsda bajariladigan asosiy ish turlari aniqlanadi.



O'qituvchining darsga darhol tayyorlanishi - har bir dars uchun mavzuni rejalashtirish, individual darslarni o'ylash va rejalashtirish, kerakli qo'llanmalar va jihozlarni tanlash va tekshirishdan iborat. Dars rejasi har bir o'qituvchida alohida bo'lishi talab qilinadi. Odatda, faqat uning hajmi yangi o'qituvchining batafsil xulosasidan (birinchi darslari uchun tinglovchilar darsning batafsil mazmuni va tavsifini va barcha harakatlarini ko'rsatadigan batafsil xulosani tuzadilar) tajribali o'qituvchilarning qisqa va ixcham rejasidan farq qiladi.

Batafsil reja o'qituvchining bo'lajak darsning barcha tafsilotlarini o'ylaganligini ko'rsatadi. Ba'zi o'qituvchilarning dars davomida rejadan foydalanish ularning o'quvchilar orasidagi obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, degan fikriga qo'shilib bo'lmaydi. Aksincha, o'qituvchi o'quvchilariga reja bo'yicha ishlashni o'rgatishi kerak.

Dars rejasi har qanday shaklda tuzilgan, ammo unda quyidagi elementlar aks ettirilishi kerak:

- darsning sanasi va tematik rejaga muvofiq raqami;
- dars mavzusining nomi va u o'tkaziladigan sinf;
- maktab o'quvchilarini o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalari;
- uning bosqichlari ketma-ketligini va bu bosqichlarda vaqtning taxminiy taqsimlanishini ko'rsatuvchi darsning tuzilishi;
- o'quv materialining mazmuni;
- darsning har bir qismida o'qituvchi va o'quvchilarning metod va uslublari;
- dars uchun zarur bo'lgan o'quv jihozlari, shu jumladan ko'rgazmali texnik o'quv qurollari, uy vazifalari.

Dars rejasini tuzishda o'qituvchi tematik rejalashtirishdan kelib chiqadi, ushbu darsning umumiy dars tizimidagi tarkibiy birlik sifatidagi o'zni va rolini belgilaydi.

Dars mazmunini tanlashda o'quv dasturining fanga qo'yiladigan talablari inobatga olinadi, darsni ortiqcha yuklamaslik uchun uning g'oyaviy, ilmiy, nazariy va falsafiy yo'nalishi, mantiqiy ketma-ketligi va dozasiga alohida e'tibor beriladi. Bir vaqtning o'zida o'quvchilarning zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallashini ta'minlashiga e'tibor qaratadi.

Darsning har bir bosqichida o'qitish uslublari va usullarini, o'quvchilarning kognitiv faoliyatining tabiatini (reproduktiv va izlanish), darsda o'quvchilarning frontal, guruh va individual ishlarining kombinatsiyasini aniqlash, tanlash va tanlash bir xil darajada muhimdir. Zarur didaktik material, tajribalar, ko'rgazmali va texnik o'quv qurollarini tayyorlaydi.

Bu ishlarning barchasi o'qitish tamoyillarini amalga oshirish, sementlash va darsning barcha tarkibiy qismlarini belgilashni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Kelgusi darsga tayyorgarlik ko'rishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish uchun ushbu sinfda o'tkazilgan oldingi darslarni tahlil qilish kerak. Darsning muvaffaqiyati va uning natijalari nafaqat o'qituvchining, balki o'quvchilarning tayyorgarligiga ham bog'liq. Afsuski, ko'pchilik o'qituvchilar amaliy ishlarda bu masalaga yetarlicha e'tibor bermayptilar. Shu bilan birga, talabalarni keyingi darsga (yoki darslarga) maqsadli tayyorlash ularda ijobiy psixologik kayfiyatni yaratadi, kognitiv qiziqishni oshiradi.

#### **O'quvchilarni bo'lajak darslarga tayyorlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- ularni kelgusi darslarda dasturiy materialni o'rganish rejasi bilan tanishtirish;
- o'quvchilarga darslikning ayrim bo'limlari bilan tanishishga imkon berish;
- bo'lajak dars muammolari bo'yicha ilmiy-ommabop adabiyotlarni o'qish;
- yangi materialni o'rganishni osonlashtiradigan kuzatishlar o'tkazish;
- oddiy tajribalar o'tkazish;
- uy vazifalarini bajarish.

Dars davomida o'qituvchi o'quvchilarning faol kognitiv faoliyatini ta'minlaydi, uni tashkil etishning turli shakllari: frontal, jamoaviy va individual. Maktabda darsda o'quvchilarning **tarbiyaviy ishlarini** tashkil etish sinf jamoasini shakllantirish va mustahkamlash bilan chambarchas bog'liq. Frontal tayyorgarlik ana shu maqsadga mos keladi, bunda sinf jamoasi yaxlit bir butun bo'lib harakat qiladi va har bir o'quvchi unda o'ziga ishonib topshirilgan umumiy ishning bir qismini bajarib, jamoa a'zosi sifatida alohida ishtirok etadi. Darsda o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etishning oldingi shakli o'qituvchi va sinf o'rtasida ayniqsa yaqin munosabatlarni o'rnatishga, o'quvchilarning birgalikdagi do'stona ishlashiga yordam beradi, bunda nafaqat o'quv, balki **tarbiyaviy muammolarni** hal qilishda umumiy ishtirok etish, o'zaro yordam, barqaror kognitiv qiziqishlarni shakllantirish, o'quv jarayonini kuchaytirish uchun turli xil usullar va usullardan foydalanishga imkon beradi.

Ushbu shakl barcha o'quvchilarni sinfga jalb qilishni va ularning o'qishdagi umumiy muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Darsda frontal ish individual ish bilan birlashtiriladi.

Shunday qilib, o'qituvchi tomonidan yangi ma'lumotlarni yetkazish uchun ko'pincha ishlatiladigan materialning frontal taqdimoti bilan bir qatorda frontal suhbat ham keng qo'llaniladi. Savollar (muammoli, taklif va boshqalar), sharhlar va baholovchi xulosalar berish orqali o'qituvchi suhbatni shunday yo'naltiradiki, individual o'quvchilarni jamoaviy muhokamaga jalb qiladi, ularning individual xususiyatlarini hisobga oladi.

Dars samaradorligini oshirish, ya'ni belgilangan maqsadlarga erishish muammosi maktablarning didaktika va amaliy ishlarida eng muhim masalalardan biridir. Darsni takomillashtirishning zamonaviy bosqichi yangi sharoitlarda o'qitishni tashkil etishning asosiy shaklining xususiyatlarini o'rganish bilan tavsiflanadi, bunda dars samaradorligi ko'rsatkichlari o'quvchilar tomonidan olingan bilim darajasi bilan cheklanib qolmaydi va kognitiv ko'nikmalarga egalik darajasi va ularning bilim qiziqishlarini shakllantirish va rivojlantiradi. Darsni takomillashtirishning eng muhim yo'nalishi uning asosiy tarkibiy qismlari: ta'lim, o'qitish va o'quv materialining mazmunini rivojlantirish vazifalari, o'qitish va o'qitish usullari, o'quv jarayoni va kognitiv faoliyatni tashkil etish usullarining optimal kombinatsiyasi va o'zaro ta'sirini o'rnatishdir.

### **O'quvchilar sonini hisobga olish**

Ushbu muammoni hal qilish uchun, birinchi navbatda, darsning vazifalarini (va darslar tizimini) aniq belgilash, har bir darsning o'quv vazifalarini (o'quv, tarbiyaviy, shuningdek, maktab o'quvchilarini rivojlantirish vazifalari) kompleks rejalashtirish zarur. Zamonaviy darsning samaradorligiga barcha vazifalarni hal qilish, maktab o'quvchilarini o'rganilayotgan mavzuning asosiy, yetakchi g'oyalari va tushunchalariga diqqatni jamlash va o'ylash, bolalarning kognitiv qiziqishlarining paydo bo'lishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan qidiruv faoliyatini tashkil etish orqali erishiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF;
2. Mavlonova R.A "Umumiy pedagogika"-Toshkent;
3. <https://cte.smu.edu.sg/approach-teaching/integrated-design/lesson-planning> ma'lumotlari;
4. <https://link.springer.com/article/10.1007/s11165-020-09972-4> ma'lumotlari;
5. <https://www.scientificprogress.uz/uz> ma'lumotlari;
6. Elsevier Academic jurnali.

## LESSON STUDY: YAPON TAJRIBASI SIFATIDA MATEMATIKA TA'LIMIDA SAMARADORLIKKA ERISHISH USULLARI

***Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li,***

*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutining*

*Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori*

**Abstrakt.** Lesson Study – bu birgalikda rejalashtirilgan va tayyorlangan tadqiqot darsi uchun hamkorlikda ishlaydigan o'qituvchilar guruhini o'z ichiga olgan kasbiy rivojlanish usuli sifatida ommalashib borayotgan bo'lsa-da, O'zbekistonda kam e'tibor qozongan. Shu bois, ushbu maqolada Lesson Study dasturini qo'llash imkoniyatlarini va uni tashkil etishdagi mahalliy muammolarni aniqlash, LS ahamiyatini boshlang'ich ko'rinishda bo'lsa ham ochiqlashga harakat qilingan. Tadqiqot ishtirokchilar uchta matematika o'qituvchisi va jami 38 nafar bo'lgan ikkita 5-sinf o'quvchilari tashkil qiladi. O'qituvchilar tadqiqot darsini tayyorlaydi va darsni o'qituvchilardan biri olib boradi, boshqa o'qituvchilar esa o'quvchilarning xatti-harakati va darsni kuzatadilar. Birinchi darsdan keyin o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan dars bo'yicha muhokama bo'lib o'tadi va o'quvchilardan dars bo'yicha fikrlari so'raladi. Ishtirokchilarning takliflari asosida kerakli o'zgartirish va qo'shimchalardan so'ng, dars xuddi shu darajadagi o'quvchilarning boshqa guruhiga taqdim etiladi va o'quvchilar va o'qituvchilarning qayta ko'rib chiqilgan dars haqidagi fikrlari yana bir bor yig'iladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, LS ko'rinishda darsni tashkil etish va hayotiy misollarga bog'liq holda matematika darsini olib borish o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otgan va o'quvchilarda matematika bilimlarini yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga, darsni mazmunli o'tkazishiga yanada ko'proq ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

**Kalit so'zlar:** Lesson Study (LS), kasbiy rivojlanish, matematika ta'limi

**Kirish.** Ta'lim sifati va samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchilarning bilim va malakasiga bog'liqdir. Hech qaysi mamlakat ta'lim ko'rsatkichlari o'qituvchilarining bilim va malakasidan yuqori bo'la olmaydi. Shu bois, o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga ahamiyat ortib borar ekan, o'qituvchilik karerasi ham aynan kasbiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlaydigan an'anaviy usullar juda ko'p. Jumladan, O'zbekistonda keng tarqalgan usullar bu o'qituvchilarning malakasini oshirishga qaratilgan kurslar, seminarlar tashkil qilish, tajribali maktab yoki

o'qituvchining faoliyati bilan tanishtirish va boshqalardan foydalaniladi. Ammo, ushbu usul va metodlar kam samara berish bilan birga ko'p xarajatlidir. Malaka oshirish institutlarida o'qitish va qayta tayyorlash katta xarajatni talab qiladi va shunda ham barchani qamrab ololmaydi. Shuningdek, amaliyotdan va vaziyatdan (holatdan) ajralgan holda olib borilishi, ta'limdagi muammo va kamchiliklarning xususiyatlarini aniqlashtirishni kamaytiradi. Shu bois, amaliyotga bog'langan ta'limni tashkil qilish va rivojlantirishda zamonaviy usul va metodlarni hamda jahon tajribalarini o'rganishni taqozo qilmoqda. Shunday ta'lim usullaridan biri Lesson Studydir.

XX asrda Yaponiyaning ta'lim sohasida paydo bo'lgan Lesson Study (qisqacha LS) o'qitish usuli fikrlash, hamkorlik va sinf amaliyoti kabi g'oyalardan ilhomlangan tadqiqotga asoslangan yondashuvlardan biridir. Unda o'qituvchilar uchligi o'z o'quvchilarining ta'limini rivojlanishi uchun belgilangan sohani maqsad qilib birgalikda ishlaydi.

Mavjud dalillardan foydalangan holda, ishtirokchilar o'zlarining aralashuvlarini kuzatish va takomillashtirish uchun doimiy muhokama, mulohaza va ekspertlarning fikridan foydalangan holda bir qator darslarni birgalikda tadqiq qiladi, rejalashtiradi, o'rgatadi va kuzatadi.

Lesson Study, yaponcha *jugyou* dars yoki ma'ruza, *kenkyuu* tadqiqot yoki o'rganish so'zlaridan kelib chiqadigan keng qamrovli tushuncha bo'lib, o'qitish faoliyatini takomillashtirish strategiyalarini o'z ichiga oladi. *Jugyou kenkyuu* (Lesson Study) o'qituvchilar guruhining jonli sinf muhitida o'rganish va o'qitish faoliyatini kuzatish, ma'lumotlarni to'plash va hamkorlikda tahlil qilish kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi.

O'qitish va maktab faoliyatini tashkil etishda *jugyou kenkyuu* dastlab o'qituvchilarning o'quv dasturlarini ishlab chiqishdagi sa'y-harakatlarini qamrab olgan bo'lsa, keyinchalik dars rejasini ishlab chiqishda hamkorlikdagi amaliyotga aylangan. Ma'lumotlarga ko'ra, ushbu metodni ilk yapon ta'limiga kirib kelishi 1890-yillarga borib taqaladi va bunga yapon olim va murabbiylarining g'arbga sayyohati va u erdagi ta'lim usulidan ta'sirlanishi sabab bo'lgan va keyin o'zlarining ushbu ta'lim metodlarini yaratgan.

Ushbu metod vaqt o'tishi bilan uzoq sharq davlatlarida ham qo'llanila boshlanadi va bugungi kunga kelib ko'plab davlatlar u yoki bu fan va darslarni o'qitishda keng qo'llab kelmoqda. Ushbu tadqiqotda mazkur usuldan keng foydalaniladigan matematika fani uchun ahamiyati va samaradorligini tahlil qilamiz.

### **Lesson Study usulining mazmun-mohiyati**

Lesson Studyni o'zbek tiliga "dars tadqiqoti" deb tarjima qilishimiz mumkin. Chunki, bunda avvalo, bir fan bo'yicha bir nechta darslarini o'qitish bosqichida qatnashgan va kuzatuvlar olib borgan o'qituvchilar yig'ilib, keyingi darslar qanday bo'lishi kerakligi haqida strategiyalarni ishlab chiqish uchun birlashadi. Ushbu amaliyot yordamida o'qituvchilar qanday dars mashg'ulotlarini bajarish kerakligini ko'radi, muhokama qiladi va bir-birlaridan o'rganadi. Bunda kamida uchta o'qituvchi bo'lishi va birlashishi tavsiya qilinadi. Shunday qilib, o'qituvchilar darsni o'qitish bilan bog'liq barcha bosqichlarni batafsil tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Dars tadqiqoti usuli orqali o'qituvchilarning boshqa hamkasblari va o'quvchilar bilan munosabatlari yangi o'lchovga ega bo'ldi. Dastlab, pedagogik yoki nazariy bilimga ega bo'lmagan bu amaliyot ko'proq o'qituvchilarni bir-birining faoliyatini kuzatadigan va turli amaliyotlardan xabardor bo'lgan ramkaga ega edi. Keyinchalik va bugungi kunda Lesson Study amaliyoti an'anaviy uslubdan uzoqlashib, yanada takomillashib bormoqda.

Tadqiqotchi Dadli ta'kidlaganidek, Lesson Study o'rganish va o'qitish faoliyatini takomillashtirish va professional ma'noda ko'plab o'rganishni sintez qilishni o'z ichiga olgan dasturdir.

Lesson Study uzoq yillardan beri Yaponiyada maktabda malaka oshirish dasturi sifatida qo'llaniladi. Bu pastdan yuqoriga kasbiy rivojlanish yondashuvi bo'lib, unda ishtirok etuvchi o'qituvchilar birgalikda darsni rejalantiradilar (tadqiqot qiladilar), dars beradilar va dars haqida fikr yuritadilar va uni yaxshilaydilar. Darsning bunday sikl takomillashuvi o'qituvchilar uning sifatini qoniqtirmaguncha davom etadi.


Lesson Study – bu shunchaki o'qituvchilar birgalikda tayyorlaydigan va rejalashtiradigan ishmas, balki o'qitish va tadqiqot, nazariya va amaliyotni birlashtiradigan tizim yoki dasturdir.

Bu o'qituvchilarni dars jarayonini birgalikda o'rganadigan va hamjihatlikda professional rivojlanadigan, sinfdagi ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy faoliyatdir. Buning yana bir jihat, ishtirokchi o'qituvchilar bir-birini tanqid qilmaydi, aksincha darsni yanada yaxshilash, qiziqarliroq va samaraliroq qilish uchun nimalar qilish mumkinligi haqida fikr almashadi va dars yuqori, qoniqarli saviyaga chiqmaguncha tadqiqot davom etaveradi. Shu bois, LS "muammolarni hal qilish yondashuvi" deb ham nomlanadi.

Tadqiqotchi Piter Dadli Lesson Study bo'yicha qo'llanmasida Lesson Study jarayonining quyidagi sxemasini ishlab chiqadi:

### 1-rasm. Lesson Study jarayoni

#### Lesson Studying birinchi sikli



Manba: Dudley P. 2014, p. 5.

LSning boshqa kasbiy rivojlanish usullaridan eng muhim farqlaridan biri shundaki, LSning asosiy e'tibori o'qituvchini baholashga emas, balki o'quvchilarni o'rganishga qaratilganligidir.

Har bir jarayon birgalikda tayyorlanishini hisobga olsak, LS, darsni jamoaviy rejalashtirish, kuzatish va mulohaza yuritish orqali o'qituvchilarni izlash va o'rganishga olib keladigan harakat tadqiqotiga o'xshaydi.

U bir qolibga ega bo'lmagan, mahalliy yondashuvlarni talab qiladigan muhim ta'lim texnologiyasidir.

### **Lesson Studying matematika fanini o'rgatishdagi ahamiyati**


Ma'lumki, matematika fani nafaqat shaxsning savodxonligini belgilovchi, balki barcha sohalarning rivojlanish drayveri hisoblanadi. Shu bois, matematika fanini o'rganish va o'rgatish barcha jamiyatlarda ta'lim siyosati, dasturi va islohotlarining markazida turadi. Albatta, bu bejizga emas, chunki matematika barcha zamonaviy texnologiyalar va ilmiy yutuqlarning asosidir. Matematik savodxonlik zamonaviy inson madaniyatining, uning ijtimoiy va kasbiy kompetensiyasining ajralmas elementidir.

Zamonaviy davrda matematikani o'rgatuvchi ko'plab ta'lim texnologiyalari ishlab chiqilgan va yanada takomillashib bormoqda. Biz o'rganayotgan LS bu boradagi eng jozibador va samarador usullardan biridir. Zero, LSga ta'lim sohasidagi olimlarning qiziqish 1999-yildan boshlab ortishiga sabab Yaponiyani TIMSS xalqaro test natijalarida matematika bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni qo'lga kiritishi bilan bevosita bog'liq edi. Xalqaro test natijalari (PISA va TIMSS) bilan bog'liq yuqori ko'rsatkichlar keyinchalik ham uzoq sharqdagi Osiyo davlatlarida kuzatilishi bugungi kelib butun dunyoda LSning ahamiyatini oshishiga olib kelmoqda.

Tadqiqotchi Masami Isodaning fikricha, LS bu Yaponiyada matematikani mustaqil ravishda o'rganadigan bolalarni rivojlantirish uchun umumiy nazariyadir. U qanday o'rganishni o'rgatishni o'z ichiga oladi, ya'ni matematikani o'z-o'zidan rivojlantirishni anglatadi. Bu yuz yildan ortiq dars tadqiqotining natijasidir.

LSda matematik hisob-kitoblar muammoni echishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarga mustaqil ishlash va fikr yuritishni ta'minlaydi. Bundan maqsad A orqali o'quvchilar B ni o'rganish/tushunish/qobiliyatga ega bo'lishi ta'minlansa, o'qituvchilardan natijani o'rganish va muvaffaqiyatga erishishni talab qiladi. O'qituvchilardan sinfni yaxshilashni taklif qiladigan o'qituvchilar va bolalarning tushunchalarini tahlil qiluvchi tadqiqotchilar bo'lishi tavsiya qilinadi. Shu bois ham dars rejalari qat'iy formatda emas, aksincha mavzuga ko'ra takomillashtiriladi. Chunki, darslar avloddan-avlodga o'zgaradi, yangi kelganlar eskilarning metodlari bilan tanishadi va o'z yondashuvlarini taklif qiladi va bu sikl ko'rinishida davom etadi. Tadqiqotchi Lyus buni quyidagicha tasvirlaydi:

2-rasm. Lesson Studyni aylanishi (sikli)



Manba: Lewis, 2009.

Darsda matematik masalalarni muammo va vaziyatlarga bog'liq holda o'tishning ko'plab imkoniyatlari mavjud. Muhimi muammo va vaziyatga mos mavzuni tanlab olishdadir. Tadqiqotchi Isodaga ko'ra, to'g'ri tashkil etilgan LS o'quvchilarda matematik bilimni oshishida va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida 100 foiz ijobiy natija beradi.<sup>1</sup>

Boshqa tadqiqotchilar Anake Sudedjamnong, Kittipot Robsuk va boshqalar o'z tadqiqotlarida LS vaziyatga va muammolarga asoslanganligi bilan matematika fanining konseptual va prosessual jihatdan o'quvchilar va o'qituvchilarga juda samarali ta'sir ko'rsatuvchi yondashuv ekanligini ma'lum qiladi.<sup>2</sup> Bundan tashqari, Chang va Yee (2013) tadqiqotlarida o'qituvchilarning hamkorlikdagi faoliyati o'quvchilardagi matematik bilimlarni ortishiga va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga xizmat qilishini ko'rsatib o'tgan<sup>3</sup> bo'lsa, Noparit va Saengpun LS kasr sonlarini o'rganishda foydali ekanligini aniqlaydi.<sup>4</sup> Umuman olganda ko'plab tadqiqotlarda LSni matematikani o'rganish va o'qitishda samaradorligi yuqori bo'lishini ko'rsatib o'tganligini ko'rishimiz mumkin.

<sup>1</sup>Isoda M., 2010, o'sha manba, 18-19 betlar.

<sup>2</sup>Sudejamnong A., Robsok K., Loipha S., & Inprasitha M. Development of Teachers' Mathematical Knowledge for Teaching by Using the Innovation of Lesson Study and Open Approach. Sociology Mind, 4, 2014, p. 317-327.

<sup>3</sup>Cheng L. P. & Yee L. P., A Singapore Case of Lesson Study. The Mathematics Educator, 21 (2), 2012, pp. 34-37.

<sup>4</sup>Noparit T. & Saengpun J. How Student Teachers Use Proportional Number Line to Teach Multiplication and Division of Fraction: Professional Learning in Context of Lesson Study and Open Approach. Creative Education, 4 (8), 2013, pp. 19-24.

### Tadqiqot metodologiyasi

Toshkent shahridagi maktablardan birida 5-sinf o'quvchilarining matematik bilimlarini oshirish uchun Lesson Study usulida o'qitish va samaradorlikka erishish maqsad qilindi. Dastlab 3 kishidan iborat o'qituvchilar guruhi tanlab olindi. Tanlab olingan birinchi guruhda 20 nafar o'quvchiga birinchi darsni o'qitish uchun o'qituvchilar o'zaro maslahatlashgan holda bir mavzuni aniqlab olishdi va uni o'tkazish bo'yicha metodlarini kelishib oldi. Bir o'qituvchi darsni olib borishi va ikki o'qituvchi jarayonni kuzatishi uchun video-audio vositalari va belgilash (qayd qilish) orqali ishtirok etdi. Darsdan so'ng o'qituvchilar orasida muhokama bo'lib o'tdi va o'quvchilarning fikrlari ham o'rganilgandan so'ng ikkinchi darsni o'tkazishga kelishib olindi. Birinchi darsdagi kamchilik va yutuqlarni inobatga olgan holda ikkinchi darsni olib borish bo'yicha metodlar kelishib olindi. Ikkinchi darsda ham bir o'qituvchi darsni olib bordi va ikki o'qituvchi video-audio vositalari va belgilash (qayd qilish) orqali jarayonni kuzatishdi. Ikkinchi dars 18 nafardan iborat boshqa bir guruhda tashkil qilindi ammo mavzu birinchi darsdagi takrorlandi. Ikkinchi dars bo'yicha o'quvchilar fikrlari eshitildi va o'qituvchilar orasidagi o'zaro suhbatdan so'ng xulosalar qilindi.

### Tadqiqotni o'tkazish va natijalari

#### ***Birinchi dars***

Birinchi guruh ishtirokchilar soni va ko'rinishi: umumiy o'rta ta'lim maktabi 5-sinf o'quvchilari 20 nafar.

*Mavzu: sinfdagi o'quvchilarning o'rtacha bo'y ko'rsatkichini aniqlash:  $X_{20} = X$*

Birinchi darsda o'qituvchi dastlab o'quvchilarga matematikaning hayotimiz bilan bog'liq ekanligini va kunlik hayotimizdagi muammolarni hal qilishda matematik hisob-kitoblarning ahamiyati haqida gapirib o'tdi. Shundan so'ng, o'quvchilarga o'z bo'ylarini o'lchash orqali sinfning o'rta bo'yini aniqlash topshirig'i berildi.

O'quvchilar ushbu topshiriqni bajarish uchun **20** va **40** sm.lik lineyka bilan o'zlarini o'lchay boshladi. Har bir o'quvchi o'z bo'yini nechi metrlikini yozib oldi, so'ngra barcha o'quvchilar o'z bo'ylarini metrini doskaga yozib chiqdi va keyin barchasini ko'shib chiqdi. Umumiy sonni o'quvchilar soniga bo'lib sinfning o'rtacha bo'yini aniqlashga harakat qildi. Biroq, o'quvchilar buni aniqlashda qiyinchiliklarga duch keldi. Birinchidan, o'z bo'ylarini o'lchashda sinfdagi **4** ta o'quvchi arifmetik xatoga yo'l qo'ydi (ya'ni, qo'shishda xato qildi) va sinfdoshlari yordamida xatolari tuzatildi. Ikkinchidan, umumiy sonni (ya'ni, sinfdagi barcha o'quvchilar o'z bo'ylarini

qo'shib chiqqanda) **2915**ni **20**ga bo'lishda qiynalishdi. Ya'ni,  **$291520=145,75$** ni chiqarishda o'quvchilar **2915**ni **20**ga bo'lganda **145** chiqardi va **75** butunni chiqara olmadi. Ushbu **75** butunni chiqarish uchun o'qituvchining qoldiq songa **0** qo'shish kerakligi to'g'risidagi tushuntirish va ko'rsatmalaridan keyin o'quvchilar to'g'ri raqamni topishdi.

Dars jarayoni (45 daqiqa)

|    |             |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
|----|-------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 01 | O'qituvchi  | Aziz o'quvchilar matematikani hayotimizning har bir holatida qo'llashimiz mumkin va buni qo'llay olishimiz bizga muammolarni to'g'ri, tez va oson hal qilishimizga yordam beradi. Kelinglar masalan sizlarga bir misol beraman va shuni echinglar. Akmal (o'quvchi 1ning ismi) seni bo'ying nechki metr bilasanmi?                                                                                    |
| 02 | O'quvchi 1  | Ustoz bo'yim taxminan 1,47 bo'lishi kerak.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
| 03 | O'qituvchi  | Yaxshi, endi tasavvur qilinglar, sinfning o'rtacha bo'yi qancha va buni qanday topamiz? Buning uchun shu formula $X \div 20 = X$ ga tushurishimiz kerak, ya'ni $X$ bu barcha o'quvchilarning bo'yining yig'indisi va uni 20 ga bo'lish orqali sinf o'rtacha bo'yini chiqarishimiz kerak. Avval $X$ ni topish uchun qani barcha o'z bo'yini o'lchasin va uni santimetr bo'yicha doskaga yozib chiqsin. |
| 04 | O'quvchilar | O'quvchilar bir-birlariga yordam bergan holda o'z bo'ylarini 20 va 40 smlik lineykalalar bilan o'lchay boshladi                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
| 05 | O'qituvchi  | Kim tayyor bo'lgan bo'lsa, uni doskaga yozsin.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
| 06 | O'quvchilar | Tayyor bo'lgan o'quvchilar yoza boshladi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
| 07 | O'quvchi 9  | O'quvchi o'z bo'yini 124 sm yozdi va bu kuzatuvchi o'qituvchida shubha uyg'otdi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
| 08 | O'qituvchi  | O'quvchi 9 ni xatosidan keyin barchani hisoblashini tekshira boshladi. Natijada o'quvchi 4, o'quvchi 11, o'quvchi 16lar ham arifmetik xatolarga yo'l qo'ygani aniqlandi                                                                                                                                                                                                                               |
| 09 | O'quvchilar | Barcha o'z bo'ylarini doskaga santimetr ko'rinishida yozib chiqqanidan so'ng                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
| 10 | O'qituvchi  | Sonlarni qo'shib chiqishni topshirdi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |
| 11 | O'quvchilar | Oralaridan 2 ta o'quvchi chiqib barcha sonlarni qo'shib chiqqa boshladi va qolganlar ularni kuzatib turdi, jami 2915 sm ekanligini yozdi.                                                                                                                                                                                                                                                             |
| 12 | O'qituvchi  | Endi ushbu sonni sinfning o'rtacha bo'yini chiqarish uchun 20 ga bo'lish kerakligini ta'kidladi va o'quvchi 10dan so'radi. Nega 20 ga bo'lishimiz kerak.                                                                                                                                                                                                                                              |

|    |             |                                                                                                                                                                                                                              |
|----|-------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 13 | O'quvchi 10 | Chunki sinfda 20 ta o'quvchi bor                                                                                                                                                                                             |
| 14 | O'qituvchi  | Barakalla to'g'ri, shu uchun 20 ga bo'lamiz                                                                                                                                                                                  |
| 15 | O'quvchilar | Umumiy sonni 20 ga bo'lish uchun boshqa 2 o'quvchi doskaga chiqdi. Biroq o'quvchilar 2915 ni 20 ga bo'lganda 145 chiqardi va 75 butunni chiqara olmadi. Boshqa o'quvchilar ham yordamga keldi ammo 75 butuni chiqara olmadi. |
| 16 | O'qituvchi  | Butunni chiqarish uchun qoldiq songa 0 qo'shish kerakligini eslatdi va tushuntirdi                                                                                                                                           |
| 17 | O'quvchilar | Shundan keyin o'quvchilar to'g'ri raqam 145,75ni chiqardi                                                                                                                                                                    |
| 18 | O'qituvchi  | Dars yakuni bo'yicha o'z fikrlarini bildirib o'tdi                                                                                                                                                                           |

Darsdan so'ng o'quvchilardan dars o'tilish shakli va mazmuni bo'yicha mamnuniyati so'raldi. O'quvchilarning ko'pchiligi (12 tasi) matematika darsini shunday hayotiy misollarga bag'ishlab o'tilishi, ularning matematikaga bo'lgan qiziqishini ortirganini va dars oson va tez o'tganini ta'kidlagan bo'lsa, 5 ta o'quvchi darsni biroz zerikarli o'tganini bildirdi, qolgan 3 tasi dars o'tilish shakli va mazmuni bo'yicha ikkilanishini ma'lum qildi.

Darsdan so'ng o'qituvchilar orasida o'zaro suhbat bo'lib o'tdi. Suhbat asnosida qayd qilingan video-audio va qaydlar ko'rib chiqildi va dars jarayonini yana bir bor ko'zdan kechirdi va o'z fikrlari bilan o'rtoqlashdi.

Birinchi dars bo'yicha kuzatuvchi o'qituvchilar quyidagi kamchilik va natijalarni bayon qildi:

Birinchi kuzatuvchi o'qituvchi: dars qiziqarli o'tgan bo'lsa-da, o'quvchilar passivroq ishtirok etdi. Birinchidan, birgina mavzuga uzoq vaqt ketdi, ikkinchidan, dars jarayonida qo'shimcha savollaryaratish imkoni bo'lmadi. Bu esa o'quvchilarning matematik dunyoqarash va fikrlashini kengaytirishga to'sqinlik qildi. Qolaversa, barcha bolalar o'zi bilan o'zi bo'lib qoldi va o'qituvchi nazorat qila olmay qoldi. Bu esa ortiqcha shovqin va rohatsezlik yaratdi.

Ikkinchi kuzatuvchi o'qituvchi: o'quvchilarni debat shaklda bir-biri bilan hamkorlikda, fikr yuritgan holda ishlashi uchun ularni 4-5 o'quvchidan iborat guruhga bo'lish kerak. 20 ta o'quvchini alohida yoki umumiy ko'rinishda harakat qilishidan ko'ra, kichik guruh bo'lib ishlashi o'quvchilarning ham faolligini oshiradi, hamda arifmetik prosessni takomillashtiradi.

## ***Ikkinchi dars***

Birinchi dars holati va natijalari bo'yicha o'quvchilarning xatti-harakati va fikr-mulohazalari hamda darsdan so'ng o'qituvchilarning muhokamalaridan kelib chiqib dars o'tish shakliga o'zgartirishlar kiritildi. O'qituvchilar qayta ko'rib chiqilgan dars xuddi shu darajadagi boshqa o'quvchilar guruhiga (N=18) qayta o'qitilishi haqida kelishib oldilar.

Ikkinchi darsda ham o'qituvchi dastlab matematikaning kunlik hayotimizdagi muammo va masalalarni echishdagi o'rni va matematik bilimlarni ushbu muammo va masalalarni hal qilishda qo'llay olish ahamiyati haqida fikr yuritdi va o'quvchilarga sinfning o'rta bo'yini aniqlash topshirig'ini berdi faqat bu gal 3 kishidan iborat 6 ta kichik guruhlar bo'lindi:  $(A+B+C+D+E+F) \div 6 = X$

O'quvchilar dastlab o'zlarini keyin esa kichik guruhining o'rtacha bo'yini aniqladilar. Keyin barcha 6 ta guruh o'zlarining o'rtacha bo'yini doskaga yozdi va ularni ko'shib chiqdi. Qo'shilgan sonni 6ga bo'lib sinfni o'rtacha bo'yini aniqladilar (1-jadvalga qarang).

1-jadval. O'quvchilarning guruhlardagi o'rtacha bo'yi

| Guruhlar       | A     | B   | C     | D     | E   | F     |
|----------------|-------|-----|-------|-------|-----|-------|
| O'rtacha bo'yi | 442   | 441 | 415   | 422   | 429 | 440   |
|                | /3    | /3  | /3    | /3    | /3  | /3    |
|                | 147,3 | 147 | 138,3 | 140,6 | 143 | 146,6 |

$$(147,3+147+138,3+140,6+143+146,6) \div 6 = 144,3$$

Darsdan so'ng o'quvchilardan dars o'tilishi, mazmuni va olgan bilimlari haqida so'raldi. O'quvchilarning 15 tasi dars juda qiziqarli o'tganligi, dars mazmunini yaxshi tushunganligini va darslarni bu shaklda o'tilishi matematik bilimlarini yanada yaxshilanishiga xizmat qilishini ma'lum qildi. 3 ta o'quvchi dars mazmunli va tushunarli o'tganini, lekin biroz zerikkanini ham yashirmadi.

Darsdan so'ng kuzatuvchi o'qituvchilar dars jarayoni va mazmuni bo'yicha o'z fikrlarini bildirib o'tdi.

**1.o'qituvchi:** ikkinchi dars yaxshiroq bo'ldi. Birinchi darsning zaif tomonlarini ko'rib, dars mazmuniga o'zgartirish kiritilganidan so'ng o'quvchilar biroz faollashdi. Birinchi darsga ko'ra, ko'proq o'z ustida ishladi va arifmetika amallarini (qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish) bajardi.

**2.o'qituvchi:** dastlab biz kutganimizdan ko'proq vaqt talab qiladigan dars jarayonga ega bo'ldik. Barcha ishtirokchilar guruhlariga bo'linib, o'z bo'ylarini o'rtacha ko'rsatkichini, keyin ularni umumlashtirib, yagona o'rtacha bo'y ko'rsatkichni topishlari 45 daqiqadan ko'p vaqt olishi mumkin, deb o'yladik. Ammo, o'quvchilar bu masalada faol bo'lishdi va tezda masalani echishdi. Demak, bu kabi masalalarni ya'ni, dars mazmunini yanada murakkablashtirish kerak. Keyingi darslarda buni murakkablashtirib borish kerak.

### Ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalari

Ma'lumotlarni tahlil qilish uchun tadqiqotchi sifatida darslarda ishtirok etib ham o'qituvchilarni ham o'quvchilarning xatti-harakati, ishtiroki kuzatildi, darsdan so'ng o'quvchilarning mamnuniyat so'raldi, o'qituvchilardan Lesson Study usuli va uning qulayliklari, ahamiyati haqida fikrlari so'raldi, o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlik, kasbga munosabati, matematikani o'qitishga bo'lgan yondashuvi va bilimlari o'rganildi, o'quvchilarning darsga va matematikaga bo'lgan qiziqishlari so'raldi. So'rov har bir darsdan keyin o'tkazildi va u quyidagi savollarga javob berildi:

1) Dars o'tilish shakli va mazmuni sizlarga qiziqarli bo'ldimi?

2) Dars matematika bilimlaringizga yaxshi ta'sir qila oldimi?

3) Darslarni shu ko'rinishda, ya'ni hayotiy misollar ko'rinishida yana o'tilishini istaysizlarmi?

Javob natijalari

| Savollar                                                                                       | Ishtirokchilar soni<br>N=38 | Javoblar |      |                   |
|------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------|----------|------|-------------------|
|                                                                                                |                             | Ha       | Yo'q | Aniq<br>bilmayman |
| Dars o'tilish shakli va mazmuni sizlarga qiziqarli bo'ldimi?                                   | 38                          | 31       | 3    | 4                 |
| Dars matematika bilimlaringizga yaxshi ta'sir qila oldimi?                                     | 38                          | 30       | 4    | 4                 |
| Darslarni shu ko'rinishda, ya'ni hayotiy misollar ko'rinishida yana o'tilishini istaysizlarmi? | 38                          | 33       | 2    | 3                 |

Yuqoridagi javoblardan ko'rishimiz mumkinki, o'quvchilarning aksariyati darsning o'tilish shakliga, mazmuniga va matematik bilimlarini yaxshilash va mustahkamlashiga, keyingi darslarni ham shu ko'rinishda, hayotiy omillar bilan bog'liq shaklda o'rgatishga qiziqishlarini bildirgan.

Darslardan so'ng o'qituvchilarning darsning tashkil etilishi va mazmuni bo'yicha fikrlari va keyingi darslar uchun takliflari so'raldi:

### **Asosiy o'qituvchi:**

Darsni o'tkazishda qiynalmadim. Biroq, hamkor o'qituvchilarning bo'lishi ba'zan odam o'zini bosimda his qilarkan. Shu bilan birga, dars mazmunli o'tishida ularning yordami katta bo'ldi va darsni bu shaklda o'tilishi menga yoqdi.

### **Birinchi kuzatuvchi o'qituvchi:**

Dars tashkil etilishi yaxshi biroq mazmuni sodda. Sinf o'quvchilarining o'rtacha bo'yini aniqlash Lesson Study uchun uyg'un bo'lsa-da, o'quvchilarning matematik jihatda kam boshqotirganligi ko'rindi. O'quvchilar masalani echishda ko'proq boshqotirishi maqsadga muvofiq. Albatta, ikkinchi dars birinchi darsga ko'ra, yaxshiroq va mazmunliroq bo'lib o'tdi. Ammo, keyingi darslarda 45 minutlik darsda o'rtacha hisoblarni chiqarish, foiz chiqarish bo'yicha boshqa misollarni ham qo'shish kerak. Masalan, sinfxonalarni kv.m.ni, devorlarni yoki partalarni o'lchamlarini olish, o'quvchilar orasida necha foizi biron musobaqada (musobaqalar o'ylab topilishi kerak) yuqori ko'rsatkichlarni egalladi kabi vazifalarni qo'shish kerak. Bular o'quvchilarni tez fikrlashga va tez qaror qabul qilishga hamda tezroq matematik bilimlarini ishga solishga turtki bo'ladi.

### **Ikkinchi kuzatuvchi o'qituvchi:**

Darsni o'tilish shakli va mazmuni yaxshi bo'ldi, deb o'ylayman. Negaki, o'quvchilar o'zlari bilan bog'liq, hayotlari bilan bog'liq masalalarda matematikani qo'llay olish ko'nikmalarini boyitishga xizmat qildi. Albatta, kamchiliklar bo'ladi ammo birinchi darsga ko'ra, ikkinchi darsning mazmunliroq, ko'proq matematik ishlanmalar bo'lganligini ko'rdik. Demak, bu shaklda darslarni takomillashtirib borsak bo'ladi.

Darslardan so'ng o'qituvchilardan Lesson Study samarasi va ahamiyati bo'yicha so'raldi:

**Asosiy o'qituvchi:**

Lesson Study bo'yicha dars o'tish yaxshi va samarali, deb o'ylayman. Chunki, darsni tayyorlashda hamkor o'qituvchilarning fikr va takliflarini olish imkoniyati bo'ladi. Qolaversa, kuzatuvchi o'qituvchilar dars kamchiliklarini ko'ra oladi va keyingi darslarda ushbu kamchiliklarni oldi olinadi va dars qiziqarli tashkil etiladi.

**Birinchi kuzatuvchi o'qituvchi:**

Ochig'i Lesson Study juda yaxshi metod hisoblanadi. Birinchidan, o'qituvchi darsga puxta tayyorlanib keladi. Ikkinchidan, hamkor o'qituvchilarning bo'lishi o'quvchilarni diqqatini ko'proq o'quv jarayoniga qaratishga olib keladi. Uchinchidan, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida kommunikatsiyani rivojlanishiga va darslarni mazmunli o'tishiga turtki bo'ladi.

**Ikkinchi kuzatuvchi o'qituvchi:**

Lesson Study darslarni hamkorlikda tashkil etish bilan birga, darsning nazariy va prosessual jihatlarini boyitishga xizmat qiladi. Bu darslarni takomillashishiga, o'quvchilarni yaxshiroq bilim olishiga sabab bo'ladi. Eng muhimi bu kasbiy rivojlanishni ta'minlaydi. Ba'zan bilmaganliklarimizni sheriklarimiz orqali o'zlashtiramiz va o'quv jarayonini yanada takomillashtiramiz. Bu faoliyatimizni rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, Lesson Study orqali dars o'tishni tashkil etishdagi muammolar so'raldi:

**Asosiy o'qituvchi:**

Lesson Study ko'rinishida dars o'tish uchun hamkorlik qiladigan o'qituvchilar etishmaydi, deb o'ylayman. Birinchidan, maktabda matematika o'qituvchisi bor yo'g'i 2-3 tani tashkil etadi. Ikkinchidan, o'qituvchilarning vaqti yo'q. Ba'zan ochiq dars uchun ham ularni jalb qila olmay qolamiz.

**Birinchi kuzatuvchi o'qituvchi:**

Lesson Study mehnat va sabr talab qiladigan jarayon. Bu bir tadqiqot ko'rinishidagi dars bo'lganligi uchun tadqiqot natijalarini ba'zan uzoq kutishga to'g'ri keladi. Afsuski, O'zbekistonda bu borada etarlicha ishlar olib borilmagan. Eng katta muammo ham shunda. Chunki, har bir mavzu bo'yicha bizda etarlicha LS metodi yo'q. Boshqa davlatlar masalan, Yaponiya, Xitoy, Tailand va h. har mavzu bo'yicha kasr sonlar, maxrajlar, arifmetik amallar bo'yicha LS ko'rinishida dars o'tish metodlarini ishlab chiqqan.

## **Ikkinchi kuzatuvchi o'qituvchi:**

To'g'risi LS bo'yicha yaqinda tanishdim. Bunga o'xshash ochiq darslarimiz bo'lgan ammo ochiq darsning LSdan farqi bor. Mening bilganimcha, LSda ochiq darsdan farqli o'laroq dars mazmunini tashkil etishda barcha hamkor o'qituvchilar faol ishtirok etadi. Ochiq darsda esa bir o'qituvchining o'qitish metodologiyasini darsda ishtirok etish orqali kuzatar edik va o'zimizga xulosa chiqarar edik. Demoqchi bo'lganim, LS biz uchun hali yangi va uni rivojlantirishimiz kerak, deb hisoblayman.

## **Muhokama va xulosa**

Lesson Study ko'plab tadqiqot natijalarda samaradorligini ko'rsatib kelmoqda. Chunki, ushbu ta'lim texnologiyasi muammoga va vaziyatga bog'liq holatda ta'limni tashkil etishga qaratilgan bo'lib, muammo va vaziyatlarga echim topish o'quvchi va o'qituvchilarga zavq bag'ishlaydi. Ular darsda faol bo'lishadi, darsdan darsga bilim va ko'nikmalarini rivojlantirib boradi. Ayniqsa, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi mahalliy sharoitlardan kelib chiqib oshib boradi. Afsuski, O'zbekistonda ushbu ta'lim texnologiyasidan juda kam foydalanadi. O'qituvchilar darsni ko'proq nazariy jihatdan o'tkazadi, natijada o'quvchilar matematik bilimlarini hayotda kam qo'llay oladi. O'quvchilar matematik bilimlarini qo'shimcha darslar va repetitorlik orqali boyitsa, o'qituvchilar kasbiy bilim va malakasini seminarlar, kurslar yoki maxsus o'qitish orqali rivojlantiradi. Ammo har ikkisi ya'ni o'quvchilar va o'qituvchilarga bu shaklda bilim va ko'nikmalarini oshirish qo'shimcha vaqt va mablag' talab qiladi va hamma ham buni amalga oshira olmaydi.

Shu bois, Lesson Study bo'yicha o'qitishni keng yo'lga qo'yish, hech bo'lmaganda boshlanishda matematika bo'yicha o'qitishda keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Albatta, bu uchun ilmiy tadqiqotlarni ham ko'proq olib borish kerak. Xususan, kasr sonlar, tenglamalar, maxraj, qoldiq kabi murakkab matematik bilimlarni LS orqali o'qitish texnologiyalarini, metodlarining mahalliy yondashuvlarini ko'proq tadqiq qilish va kashf etish lozim.

Xulosa qilganda, Lesson Study doim izlanishni talab qiladigan, shu bilan birga o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan muhim ta'lim texnologiyasidir. Buni o'rganish va joriy qilish ayniqsa, matematika fanini yanada rivojlantirishda, matematik bilim va ko'nikmalarni oshirishda, bir so'z bilan, kasbiy rivojlanishda katta ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dudley P. Teacher Learning in Lesson Study: what interaction-level discourse analysis revealed about how teachers utilised imagination, tacit knowledge of teaching and freshly gathered evidence of pupils learning, to develop their practice knowledge and so enhance their pupils' learning. *Teacher and Teacher Education, Teaching and Teacher Education* 34, 2013, pp. 107-121.
2. Dudley P. Lesson Study: a handbook. Cambridge, 2014. 21 p.
3. Dudley P. and Vrikki M. Teachers' collaborative dialogues in contexts of Lesson Study. In *The Routledge International Handbook of Research on Dialogic Education, Section Overview: Dialogue, Teachers & Professional Development*, 2019, pp. 1-19.
4. Isoda M., Lesson Study: Problem Solving Approaches in Mathematics Education as a Japanese Experience. *Procedia Social and Behavioral Sciences* 8, 2010, pp. 17-27.
5. Gerrit Stols & Yumiko Ono, Lesson Study: An Implementation Manual. 2016, ISBN: 978-0-620-74280-1, <http://palsnet.org/wp-content/uploads/2018/02/Lesson-Study-Manual-1.pdf>
6. Groves S., Doig B., Vale C., Wanty W. Critical factors in the adaptation and implementation of Japanese Lesson Study in the Australian context. *ZDM Mathematics Education*, Vol. 48, No. 4, 2016, pp. 501-514.
7. Lewis C. Does lesson study have a future in the United States? *Nagoya Journal of Education and Human Development*, № 1, 2002, pp. 1-23.
8. Lewis C. What is the nature of knowledge development in lesson study? *Educational Action Research*, 17(1), 2009, pp. 95-110.
9. Makinae N. The origin of lesson study in Japan. The 5th East Asia Regional Conference on Mathematics Education: In Search of Excellence in Mathematics Education, 15, Tokyo, 2010.
10. Noparit T. & Saengpun J. How Student Teachers Use Proportional Number Line to Teach Multiplication and Division of Fraction: Professional Learning in Context of Lesson Study and Open Approach. *Creative Education*, 4 (8), 2013, pp. 19-24.

1. Saito E., & Atencio M. A conceptual discussion of lesson study from a micro- political perspective: Implications for teacher development and pupil learning. *Teaching and Teacher Education*, 31(4), 2013, pp. 87-95.
2. Stigler J. & Hiebert J. *The Teaching Gap*. New York: Free Press, 1999.
3. Sudejamnong A., Robsouk K., Loipha S., & Inprasitha M. Development of Teachers' Mathematical Knowledge for Teaching by Using the Innovation of Lesson Study and Open Approach. *Sociology Mind*, 4, 2014, pp. 317-327.
4. Takahashi A., The Role of the Knowledgeable Other in Lesson Study: Examining the Final Comments of Experienced Lesson Study Practitioners. *Mathematics Teacher Education and Development*, 2013, pp. 1-17.
5. Cheng L. P. & Yee L. P., A Singapore Case of Lesson Study. *The Mathematics Educator*, 21 (2), 2012, pp. 34-37.
6. What is Lesson Study? <https://tdtrust.org/what-is-lesson-study/>
7. Современные подходы к преподаванию математики в основной школе в условиях реализации требований ФГОС: материалы научно-практической конференции. Нижний Новгород, 5-6-март 2015 года /сост. М. А. Мичасова. N. Novgorod: Nijegorodskiy institut razvitiya obrazovaniya, 2016. – 92 s.
8. Ulug'bek Toshkenboev: "Ta'limning sifati o'qituvchining sifatidan oshib keta olmaydi", 09.11.2018, <https://www.xabar.uz/talim/ulugbek-toshkenboev-talimn#>

## TOPSHIRIQ VA TESTLARNING SIFAT BELGILARI

**Isroil Tillaboyev,**

*Respublika talim markazi direktor o'rinbosari*

**Annotatsiya.** Topshiriq va testlarning qanday sifatlarga javob berishi bugungacha chuqur o'rganilmagan mavzu bo'lib, ushbu maqolada ayni shu masalalar tahlil qilinadi. Tahlillar natijasida hozirgi kunda yaratilayotgan test va topshiriqlarning bola bilimni aniqlashdagi ahamiyati, xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu maqolada yana test topshiriqlarining dunyoda tarqalgan turlari haqida gap ketadi.

**Kalit so'zlar:** so'zlar banki, qisqa javob, test, topshiriq, shakl.

**Аннотация.** В этой статье поднимается до сих пор глубоко не изученный вопрос критериев качества, которым должны соответствовать тесты и задания. В результате проведенного анализа исследуются значение и особенности созданных нынешних тестов и заданий в определении знаний ребенка. В этой статье также рассказывается о типах тестовых заданий, которые распространены по всему миру.

**Ключевые слова:** банк слов, краткий ответ, тест, задание, форма.

**Abstract.** How assignments and tests respond to the qualities is a topic that has not been thoroughly studied to date, and this article will analyze the same issues. As a result of the analysis, the importance and characteristics of the tests and assignments created today in determining the child's knowledge are analyzed. This article also talks about the types of test assignments that are common in the world.

**Key words:** word bank, short answer, test, assignment, form

Topshiriqlar natijalarni o'lchash va baholash maqsadida ongli ravishda qo'yilgan talabdir. Testlar bilim, qobiliyat, ko'nikma, iqtidor, shuningdek, xarakter va munosabatni tekshirish jarayoni va vositasidir.

*Quyidagilar farqlanadi:*

- Natija testlarini aniqlash uchun natija testlari
- Intellect va boshqa qobiliyatlarni aniqlash uchun qobiliyat testlari
- Shaxsning ma'lum bir kasbga yaroqli ekanligini aniqlash testlari
- Shaxsning motiv, ijtimoiy qadriyatlari va qarashlarini aniqlash testlari

Bu bilan birga joriy muvaffaqiyat nazorati, oraliq va yakuniy imtihonlar farqlanadi.

*Topshiriq va testlarning muhim mezonlari:*

1. Haqiqiylik. Tekshirilishi kerak bo'lgan narsaga mazmunan qaratilgan topshiriq yoki test haqiqiy hisoblanadi. U baholanishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar sohasidagi natijalarga qaratilgan bo'lishi lozim. Bunda o'rganish maqsadiga nisbatan mazmuniy aloqadorlikni yaratish nazarda tutilgan.
2. Ob'ektivlik. Bir-biridan mustaqil o'qituvchilar bir xil o'quvchilarga berilgan bir xil topshiriq va testlar bo'yicha bir xil baho bergan holdagina mazkur topshiriq va test ob'ektiv hisoblanadi. Bu ob'ektivlik har xil vaqtlarda berilgan baholar uchun ham taalluqlidir. Ushbu mezonlar ko'pincha "rasmiy testlar" paytida amalga oshiriladi, xolos. O'qituvchi tomonidan tuzilgan testlar esa odatda mazkur talablarni bajarmaydi.
3. Ishonchlilik. Bunda topshiriq yoki testning o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga safarbar etilish uchun naqadar ishonchli ekanligi nazarda tutilgan.
4. Diagnostik baho. Bunda o'qituvchi topshiriq yoki testdan keyin yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun qanday choralar zarur ekanligini baholay olish yoki olmasligi nazarda tutilgan.
5. Ball berish. Topshiriq yoki test paytida ball beriladigan bo'lsa, ball berish o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga moslashtirilgan bo'lishi lozim. Bunda mavzuning muhimroq bo'lgan qismlariga unchalik muhim bo'lmagan qismlariga nisbatan ko'proq ball berish kerak bo'ladi.

### **Yozma topshiriq shakllari**

Erkin javob berilishi lozim bo'lgan va bir qancha javoblardan birini tanlash kerak bo'lgan topshiriqlar farqlanadi.

*Erkin javob berilishi lozim bo'lgan topshiriqlar quyidagilar bo'lishi mumkin:*

1. Atroflicha to'liq erkin javob talab etiladigan topshiriqlar (masalan insho)
2. Qisqa erkin javob berishni talab etadigan topshiriqlar (javob berish uchun ochiq joy qoldirilgan topshiriqlar, shuningdek, javob kataklari berilgan topshiriqlar).

*Berilgan javoblardan birini tanlash lozim bo'lgan topshiriqlar quyidagicha bo'lishi mumkin:*

1. Ko'plab variantlardan birini tanlash lozim bo'lgan topshiriqlar (dasturlashtirilgan topshiriqlar, test)

1. Alternativ javoblardan birini tanlashni talab etuvchi topshiriqlar
2. Tartibni o'zgartirish talab etiladigan topshiriqlar (bulardan to'ldirish topshiriqlari, tegishlilikni aniqlash topshiriqlari, to'g'ri ketma-ketlikka keltirish topshiriqlari, darajasiga ko'ra joylashtirishni talab etuvchi topshiriq).

### **Erkin javob berilishi lozim bo'lgan topshiriqlar tuzish**

Bu topshiriqlar natijalarni aniqlashning an'anaviy shaklini ifoda etadi.

**Insho va maxsus savol.** Ular o'quvchiga javob berish jarayonida katta harakat makonini beradi. Natija o'z navbatida o'quvchining bilimlariga, qarashlariga, yozish va ifoda etish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Haqiqiylik va ob'ektivlik chegaralangan bo'ladi. Vaqt faktori bu yerda muhim shart-sharoitlarni tashkil etadi.

**Bo'sh joylarini to'ldirish topshiriqlari** (bo'sh joylar qoldirilgan matnlar). Bu topshiriqni yechish to'liq bo'lmagan matnlarga kiritiladigan tushunchalar, gap bo'laklari, simvollar va sonlardan tashkil topadi. Agar yechim tushunchalari kiritilgan ro'yxat ham tuzilgan bo'lsa, u holda yaxshi obektivlikka erishish mumkin.

**Berilgan javoblardan birini tanlab olishni talab etadigan topshiriqlar tuzish.** Ko'pincha bu topshiriqlar dasturlashtirilgan topshiriqlar deb ataladi. Bunda bitta to'g'ri javobdan chalg'itadigan bir qancha noto'g'ri javoblar kiritilgan bo'ladi. Bu bilan o'quvchidan qaror qabul qilish qobiliyatini ko'rsatish kutiladi.

**Bir necha javoblardan faqat birini tanlash (test).** Yechim berilgan bir qancha javoblar ichidan to'g'risini tanlashdan iboratdir. Albatta javoblar ichida noto'g'rilari ham mavjud bo'ladi.

**Alternativ javoblar topshirig'i.** Bunday topshiriqlarda faqatgina bitta to'g'ri va bitta noto'g'ri javoblar berilgan bo'ladi. Topshiriq shartiga ko'ra to'g'ri javobni topib, belgilash kerak bo'ladi. To'g'ri / xato belgilanadi.

**Joylarni o'zgartirish topshirig'i.** Bu topshiriqlar shartiga ko'ra belgilangan javoblarni yangi aloqadorlik bo'yicha tartibini o'zgartirish talab etiladi. Bunday topshiriqlar sirasiga:

**Joy-joyiga qo'yish topshirig'i.** Javoblar sifatida berilgan fikrlar, tushunchalar, gap bo'laklari, simvollar, sonlar maxsus raqamlar vositasida yechim o'rinlariga kiritiladi.

**Tartib bilan joylashtirish topshiriqlari.** Berilgan joylarga ularga taalluqli mantiqqa asoslanib to'g'ri tartib bilan joylashtirilishi lozim.

1. to'g'ri javob
2. \_\_\_\_\_
3. \_\_\_\_\_

**Darajasiga ko'ra joylashtirish topshiriqlari.** Tartibsiz joylashtirilgan topshiriqlar umumiy, lekin bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlariga va ularga taalluqli bo'lgan darajaga ko'ra tartibga solinishi kerak(kamayib yoki o'sib boruvchi tartibda).

### **Og'zaki topshiriqlar shakllari.**

Bu yerda bilimlar bilan birga o'quvchining o'zini tutishi, reaksiyasi va muloqot qilish qobiliyati inobatga olinadi. Ular quyidagilarga taalluqlidir:

- Kasbiy holatlarni simulyatsiya(taqlid) qilish
- Yechim yo'llarini topish bilan bog'liq muammoli holatlarni muhokama qilish
- O'quvchining muammoli holatlarga bo'lgan shaxsiy munosabati

Psixik omil (tanglik, erkin emaslik, qo'rquv kabilar) katta rol o'ynashligi tufayli ko'pincha haqiqiy natijalar berish qobiliyati ko'rinmay, yuzaga chiqmay qolishi mumkin. O'qituvchi savol bergan paytda o'quvchi yaxshi javob beradi, deb kutmaslik kerak. Shu sababdan o'qituvchining savol berish tarzi muhim rol o'ynaydi. U

- Savolni tushunarli va aniq berishi kerak
- Javobni berish uchun yetarli vaqt berish kerak
- Suggestiv savollar bermaslik
- O'quvchi savollarga javob berishda qiynalishni boshlasa, savollar qamrovini mos ravishda qisqartirish kerak.

### **Xulosalar:**

- Savollar yozma tuzilsin
- Kutilgan javobni qisqacha belgilansin
- Javobga to'g'ri yoki noto'g'ri baho berilganligini ko'rsatib turuvchi baholash varag'i tuzilsin.

Hozirgi kunda zamonaviy jamiyatning rivojlanish tendensiyasi ta'lim va uning sifatini yaxshilashning ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan. O'qitishning obektiv natijalarini muntazam tahlil qilish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Ta'lim jarayonlarida talabalarga bilim berish, ularning fan bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakllantirish orqali ko'plab dasturlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birgalikda o'quvchilar bilimini baholashda og'zaki, yozma, amaliy ko'nikma, muammoli masalalar bilan birgalikda test sinovlaridan ham foydalanib kelinmoqda. Test sinovlarini o'tkazish bilim oluvchilarning bilimini baholashda o'qituvchi va o'quvchi orasidagi psixologik omillardan voz kechish, umumta'lim maktab o'quvchilarning bilimini holisona baholashga imkon beradi. Testologiya inglizcha test – sinov, baholash va grekcha logos – bilim so'zlaridan olingan bo'lib bilim olish sifatini baholovchi, ilmiy asoslangan, fanlararo umumiy ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Testologiya ta'limning turli bosqichlarida, shu jumladan pedagogika, tibbiyot, texnika, menejment hamda xorijiy til sohalarida qo'llanilmoqda. Test – bilim oluvchining bilim olish xususiyatlariga mo'ljallangan test topshiriqlar yaratish va tasdiqlangan tizimli savol turlari yordamida test jarayonlarini o'tkazishning standardlashtirilgan tartibi va natijalarini qayta ishlash va tahlil qilishdan iborat tizimli vositadir.

### **Test topshiriqlarning klassifikatsiya turlari**

*Test topshiriqlar tasnifi ularning maqsadi mazmuniga ko'ra shakllantiriladi:*

- Shaxsga yo'naltirilgan test – insonning ichki kechinmalari, hissiy va irodaviy fazilatlarini baholaydi;
- Intellektual test – bilish jarayonlari, fikrlash funksiyalarining rivojlanish darajasini tahlil qiladi;
- Insonning boshqa faoliyat turidagi qobiliyatini baholashga qaratilgan imkoniyatni aniqlaydi;
- Test natijalari yordamida o'quv mashg'ulotda o'quvchining bilim, ko'nikma qobiliyatlarini rivojlanishini baholaydi;
- Test topshiriqlarning tarkibi:

*Test topshiriqlar tarkibi quyidagilarni qamrab olishi lozim:*

1. Test topshiriqni tuzishda mavjud qoidalarga asoslangan bo'lishi;
2. O'quv material mazmuniga mos kelishi;
3. Ta'lim amaliyotida sinovdan o'tganligi (approbatsiya)
4. Sifat ko'rsatkichlariga egaligi – qiyinchilik va farqlanishi;
5. Fan mavzusiga aloqadorligi aniq, qisqa bo'lishi

Test savollarni tuzishda minimal talablardan kelib chiqqan holda 3 qismga ajratiladi. Bular:

- Test yo'riqnomasi;
- Topshiriq matni (savol);
- To'g'ri javob;

Test topshiriqlarga qo'yiladigan asosiy talab savol mazmuni aniq va to'g'ri javobga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, test topshiriqlarda savol turlaridan foydalangan holda o'quvchiga test topshiriq yaratiladi. Test topshiriqlar tuzishda savol turlariga murojaat qilish bu test savol matnlari mazmuni orqali bilim oluvchiga vizual axborot ko'rinishda, ya'ni interfaol test topshiriq sifatida taqdim yetiladi. Savol turlari quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

### 1. True/False – (To'g'ri/Noto'g'ri)

Bunda savol matnida taqdim qilingan axborot haqiqatga yaqin hisoblansa, to'g'ri deb qabul qilinadi. Axborot noto'g'riligi tasdiqlanganida esa Noto'g'ri deb javob tasdiqlanadi. Ba'zi hollarda Ha yoki Yo'q deb savol matni tasdiqlanadi.

#### True/False Quiz

- |     |                                                                                                                                                                                    |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 . | Civil rights laws protect individuals from government interference. <a href="#">[Hint]</a>                                                                                         |
|     | <input type="radio"/> true<br><input type="radio"/> false                                                                                                                          |
| 2 . | In the original Constitution, the framers protected few liberties from national government interference and almost none from state government interference. <a href="#">[Hint]</a> |
|     | <input type="radio"/> true<br><input type="radio"/> false                                                                                                                          |

## 2. MATCHING – (Moslikni topish)

Bu kabi savol turida o'quvchi berilgan topshiriq asosida savoldagi asosiy fikrga mavjud javob variantlar mosligini aniqlaydi.

### MATCHING.

*Match the following fruits and their colors.*

- |                |           |
|----------------|-----------|
| 1) Banana      | A) Blue   |
| 2) Carrot      | B) Purple |
| 3) Blueberries | C) Yellow |
| 4) Eggplant    | D) Orange |
| 5) Zucchini    | E) Green  |
| 6) Lettuce     |           |

## 3. MULTIPLE CHOICE – (To'g'ri javobni aniqlash)

Test topshiriqni bajarishda o'quvchi to'g'ri javobni belgilaydi. 3 yoki 4 turdagi javob varianti taqdim qilinib, a), b), c), (d) variantlardan faqat 1 ta javob belgilanadi.

### 1) What is the difference between a jungle and a rain forest?

- ☒ a) No difference. Simply two different ways in referring to the same thing.
- ☐ b) A jungle in general receives less rain than a rain forest.
- ☐ c) A jungle refers to the thickest area of a rain forest
- ☐ d) A jungle and a rain forest each contain their own group of distinct plants and animals.

### 2) What is the world's most common religion?

- ☐ a) Christianity
- ☒ b) Buddhism
- ☐ c) Hinduism
- ☐ d) Muslim

### 3) Which city ranks as the world's most populous city (2002)?

- ☐ a) New York (US)
- ☐ b) Mexico City (Mexico)
- ☒ c) Tokyo (Japan)
- ☐ d) Shanghai (China)

### 4) What is the second largest country (in size) in the world?

- ☐ a) USA
- ☐ b) China
- ☒ c) Canada
- ☐ d) Russia

#### 4. MULTIPLE ANSWER - ( Ko'p tanlovli javob)

Taqdim qilingan bu savol turida javob varianti 1 tadan ortiq javob variantlar aniqlanadi.

##### Spa Day

Questions 1 - 3

Choose **THREE** letters **A-H**

What **THREE** items are you recommended to take with you to the spa?

- A** money
- B** slippers
- C** fruit
- D** towel
- E** ticket
- F** watch
- G** make up
- H** swimming costume

#### 5. SHORT ANSWER – (Qisqa javob)

“Qisqa javob” savol turi shaklida o'quvchi tomonidan test topshiriq davomida berilgan savol matniga o'z fikrini yozib bayon qiladi.

Questions 1 – 5

*Answer the questions below.*

*Write **NO MORE THAN THREE WORDS AND/OR A NUMBER** for each answer.*

What time does the farm park open?

- **1** .....

Which **TWO** attractions are most popular with visitors?

- **2** .....
- **3** .....

Name **TWO** improvements that are planned for the venue next season.

- **4** .....
- **5** .....

Fill in the Blanks (drag and drop words into correct blank)

### States of Matter

1. Matter is \_\_\_\_\_ you can see and touch.
2. \_\_\_\_\_ and \_\_\_\_\_ take the shape of a container.
3. \_\_\_\_\_ can easily be held.
4. \_\_\_\_\_ can be poured.
5. Gases have \_\_\_\_\_ of space between particles.
6. Solids have particles that are \_\_\_\_\_ together.
7. Liquids have particles that \_\_\_\_\_ past each other.
8. A \_\_\_\_\_ is an example of a solid.
9. \_\_\_\_\_ is an example of a gas.
10. \_\_\_\_\_ is an example of a liquid.

### Word Bank

|          |        |         |
|----------|--------|---------|
| steam    | slide  | close   |
| liquids  | brick  | lots    |
| gasses   | solids | liquids |
| anything | juice  |         |

## 6. WORD BANK - (So'zlar banki)

Test topshiriq jarayonida ushbu savol turidan foydalanishda o'quvchi tomonidan asosan, savolda taqdim qilingan so'zlaryordamida bo'shliqlarni to'ldirish va fikrni tugatish uchun test savolini bajaradi.

## 7. SELECTION FROM LIST – (To'g'ri javob varianti)

Bu savol turida test topshiriq jarayonida bilim oluvchi savol matni orasida mavjud javob variantlari orasidan faqatgina birgina to'g'ri javobni belgilab, savolga javob beradi.

25. Read the text and choose correct answer to the question according to the text.

The SAT is a test of both verbal and mathematical abilities which is used as part of the process for evaluating applicants for admission to American universities. In 1995, the College Board, which administers the SAT, re – centered the scoring scale for the test. It did so by re – establishing the original average score of 500 on the 200 – 800 scale. The scale had not been adjusted since 1941, when it reflected the norm of some 10,000 student, frequently from public schools and applying to the nation's most selective universities. Over the years the average score had shifted below 500 as a larger number of students began taking the test, and verbal and maths scores had ceased to become comparable. Now the scores represent a more diverse university – bound population of about 2 million students.

The passage informs us that the average score on the SAT .....

- a) rose dramatically in 1995 because of the number of students taking it.
- b) was achieved by approximately 2 million students in 1995.
- c) can be either 200 or 800 in any given year.
- d) dropped a bit during the period from 1941 to 1995.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://www.atlassian.com/continuous-delivery/software-testing/types-of-software-testing> sayti ma'lumotlari;
2. <https://www.seguetech.com/the-four-levels-of-software-testing/> sayti;
3. M.J.Maxmudova, E.A.Soliyev "Nostandart testlar" (1-qism);
4. M.J.Maxmudova, E.A.Soliyev "Nostandart testlar" (2-qism);
5. Testlarning o'quvchilar o'zlashtirishi darajasi bo'yicha tasnifi – uslubiy qo'llanma.



## **PEDAGOG KADRLARNI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH: MUAMMO VA YECHIMLAR**

**Mamanazarova N.K.**

*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti ilmiy kotibi*

**Ziyodulloyev N.M.**

*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi*

**Odilova S.S.**

*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagog xodimlarning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini attestatsiyadan o'tkazish va baholash jarayonining amaldagi holati, attestatsiya jarayoni bilan bog'liq pedagog kadrlarni qiynayotgan muammolar, yechimlar, o'qituvchi sifatida qachon va qanday harakat qilish kerakligini, attestatsiya jarayonini ahamiyati bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье описывается актуальное состояние процесса аттестации и оценки педагогического мастерства и психологической подготовки педагогических кадров, проблемы и решения, которые преследуют педагогические кадры, связанные с процессом аттестации, когда и как действуют педагогу, а также важность процесса сертификации.

**Abstract.** This article describes the current state of the process of attestation and evaluation of pedagogical skills and the psychological preparation of teaching staff, the problems and solutions that persecute the teaching staff associated with the attestation process, when and how to act as a teacher, as well as the importance of the certification process.

**Kalit so'zlar:** Attestatsiya, pedagog kadrlar, umumta'lim maktablari, o'qituvchilar.

Ta'lim har qanday jamiyatda ham mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy manbaidir. Zero, jamiyat ravnaqi ko'p jihatdan yosh avlodning intellektual salohiyatiga bog'liq. O'quvchi-yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda, mustaqil hayotga tayyorlashda pedagog kadrlar salohiyati va ular mehnatini rag'batlantirish ishlari muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda o'qituvchilarni moddiy rag'batlantirish hamda ularning malakasiga yarasha toifa berish orqali o'zaro sog'lom raqobat

muhitini yaratish maqsadida pedagog kadrlar attestatsiyasi o'tkazib kelinmoqda.

Attestatsiya (lotincha, *attestatio*—guvohnoma)—xodimning malakasini, o'qituvchilarning bilim darajasini belgilash; mahsulot, ish o'rinlari sifatini aniqlash.

Attestatsiyaning asosiy maqsadi pedagogik faoliyatda kasbiy darajani, professionalizmvasamaradorlikni oshirishni rag'batlantirish, ta'lim muassasalarining pedagog xodimlarining (kadrlarining) kasbiy kompetentligining yuqori darajasini rag'batlantirish tizimini takomillashtirishni motivatsiyalashdan iborat.

*Quyidagilar pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazishning asosiy vazifalari hisoblanadi:*

- pedagog xodimlarning (kadrlarning) kasbiy darajasini maqsadli, uzluksiz oshirib borish;
- sifatli natijalar va ish haqi o'rtasida muvofiqlik o'rnatish;
- fan asoslarini o'qitish darajasini va o'qituvchilarning ta'lim sifatini oshirish;
- umumiy o'rta ta'lim maktablarini yuqori bilim saviyasiga ega malakali, iqtidorli kadrlar bilan to'ldirish;
- ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish uchun optimal sharoitlar yaratish maqsadida ta'lim sifatini boshqarish.

*Attestatsiyaning asosiy tamoyillari:*

- majburiylik;
- davriylik;
- ochiqlik;
- kengashib ish ko'rish;
- xolislik hisoblanadi.

Pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish jarayonini yanada takomillashtirish, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish hamda ularga tegishli malaka toifalarini berish ishlari mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimiga joriy etilgan bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan.

Xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 46-moddasida pedagogik xodimlarning majburiyatlari sifatida "Pedagog xodimlar o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi shart" deya belgilangan.

O'qituvchi kasbi-bumaktab, kolleji yoki universitet devorlari ortida qolmaydigan kasblardan biridir. Mamlakatimizda o'qituvchilarni moddiy rag'batlantirish hamda ularning malakasiga yarasha toifa berish orqali o'zaro sog'lom

raqobat muhitini yaratish maqsadida pedagog kadrlar attestatsiyasi o'tkaziladi. Attestatsiya o'qituvchining malaka darajasini tekshirish imkonini beradigan jarayon bo'lib, o'qituvchilarni muntazam ravishda malakasini oshirishga, o'qituvchilarni fan olimpiadalari va fan musobaqalariga tayyorlashga, konferensiya va seminarlarda chiqishlar orqali faoliyat davomida to'plangan uslubiy tajriba bilan almashishga, shuningdek, maqolalar yozishga motivatsiya beradi.


O'qituvchilar malakasini oshirish va attestatsiyadan o'tkazish muammosi aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dolzarbdir. O'qituvchining yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi va yangi usullarni ishlab chiqishi ham o'qituvchining o'z manfaatlarini, ham davlatning malakali o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettiradi.

Mamlakatimizda 2021-2022-o'quv yilida jami umumta'lim maktablari o'qituvchilari soni 502 687 nafarni tashkil etib, ulardan 68,0%ini ayol o'qituvchilar, 32,0%ini esa erkak o'qituvchilar tashkil etgan (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari soni.

Oxirgi besh yil davomida malaka toifasiga ega bo'lgan o'qituvchilar soni ortib bormoqda. Oliy malaka toifali o'qituvchilar soni 2018-2019-o'quv yilida – 11 202 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2021-2022-o'quv yilida - 26 929 nafarni tashkil etdi. Birinchi malaka toifali o'qituvchilar soni 2018-2019-o'quv yilida – 45 389 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2021-2022-o'quv yilida - 74 703 nafarni tashkil etdi. Ya'ni, ularni miqdori o'rta hisobda 64,6% ga ortgan (2-rasm).



2-rasm. Umumta'lim maktab o'qituvchilari toifasi haqida ma'lumot.

Ushbu maqolada mualliflar amaldagi attestatsiya jarayoni, jarayon bilan bog'liq muammo va kamchiliklar, o'qituvchi sifatida qachon va qanday harakat qilish kerakligini, attestatsiya jarayonini muvaffaqiyatli yakunlash uchun attestatsiya materiallariga qanday tayyorlanish lozimligini tushuntirishga harakat qildilar.

Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish jarayonini chuqur tahlil etish va ushbu jarayon bilan bog'liq muammo hamda kamchiliklarni aniqlash maqsadida ilmiy tadqiqot bo'limi tomonidan o'rganish ishlari olib borildi. O'tkazilgan tadqiqotning asosiy uslubini umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari uchun maxsus tayyorlangan, <https://docs.google.com> sayti orqali o'tkazilgan onlayn so'rovnoma tashkil etadi. Ushbu tadqiqot so'rovnomasiga 2022 yilning 28-iyul kundan start berilgan bo'lib, 2022 yilning 5-sentabr kuni yakunlandi. So'rovnomada Respublika hududi bo'yicha jami 3862 nafar respondent qatnashdi.

Shakllangan ma'lumotlar bazasi shahar, qishloq va olis qishloq aholi punktlaridagi maktablarda ishlovchi ayol va erkak pedagog xodimlarning attestatsiya masalasidagi qarashlarini tahlil qilish imkonini berdi.

Hududlar kesimda eng faol respondentlar Farg'ona viloyati (11,0%) pedagoglari, eng passivi esa Sirdaryo viloyati (3,0%) pedagoglari bo'ldilar.

Asosiy yashash joyiga qarab respondentlar 39,0% - shahar joydan, 57,0% - qishloq, 4,0% - olis qishloq joylardan qatnashganliklarini ma'lum qildilar.


Respublikamizda mavjud maktablarning 70,0% ga yaqini qishloq va olis qishloq hududlarga to'g'ri kelishligini inobatga olsak, so'rovnomadagi foiz ko'rsatkichlar orqali qilingan xulosa ham reallikka mos keladi.

Respondentlar jinsiga qarab **75,0%** ayollar va **25,0%** erkaklar rasmiy ma'lumotlarga mos holda ishtirok etdi.

Faoliyat yuritayotgan ta'lim tashkilotining turiga ko'ra respondenlarning 89,0% - oddiy va 11,0% - ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkilotlari xodimlari.

Faoliyat yuritayotgan ta'lim tashkilotining tashkiliy-huquqiy asosiga ko'ra esa respondenlarning 99,8% (3852 nafar) - davlat va 0,2% (10 nafar)- nodavlat ta'lim tashkiloti xodimlari ekanliklarini bildirishgan.

So'rovnoma ishtirok etgan respondentlarning eng ko'p qismini boshlang'ich ta'lim va rus tili fani o'qituvchilari tashkil etgan bo'lsalar, eng kam tanlovni nemis tili hamda Qoraqalpoq tili va adabiyoti fani o'qituvchilari amalga oshirishgan (3-rasm).



3-rasm. Attestatsiyadan o'tadigan o'quv (maxsus) faningiz? (ijtimoiy so'rovnoma, iyul-sentabr, 2022 yil).

"Attestatsiyadan o'tadigan o'quv (maxsus) faningiz tayanch (bazaviy) ma'lumotingizga mos keladimi?" mazmunidagi savolga respondentlarning 92,0% - "Mos keladi", 3,0% - "Mos kelmaydi", 5,0% - "Mos kelmaydi, ammo shu fan bo'yicha qayta tayyorlash kursini tamomlaganman" - degan javoblarni qayd etgan. Aksariyat maktablarda o'qituvchilar yetishmasligi sababli o'z mutaxassisligidan tashqari bo'lgan boshqa fanlardan dars o'tayotgan o'qituvchilar mavjudligi aniqlandi. Hududlarda pedagog kadrlar tanqisligi ta'lim sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda

hamda oxirgi yillardagi ta'lim sifati ko'rsatkichlari pasayishiga qaysidir ma'noda sababchi bo'lmoqda.

So'rovnoma ishtirok etgan respondentlarning 30,0%i amalda birinchi malaka toifasiga, 29,0%i ikkinchi malaka toifasiga, 21,0%i oliy malaka toifasiga va 18,0%i mutaxassis malaka toifasiga ega. Respondentlarning 2,0%ini malaka toifasiga ega bo'lmagan, o'rta-maxsus ma'lumotga ega pedagoglar tashkil etgan.

Respondentlarning 59%i joriy yilda navbatdan tashqari attestatsiyada, 13%i esa navbatdagi attestatsiyada ishtirok etganliklarini bildirishgan. 28% respondent attestatsiya jarayonida qatnashishmagan.

O'zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 572-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 8-9-10-bandlarida majburiy attestatsiyadan o'tmasdan, to'g'ridan-to'g'ri malaka toifasi sertifikatini olish tartibi ko'rsatib o'tilgan. Shu mazmundagi savolimizga respondentlarning 76%i bunday imkoniyatga ega emasliklarini, 24%i esa majburiy attestatsiyadan o'tmasdan, to'g'ridan-to'g'ri malaka toifasi sertifikatini olish imtiyoziga ega bo'lganliklarini ko'rsatishgan.


Respondentlar pedagog kadrlarni baholash mezonlari sifatida quyidagilarni tanlashdi: 28,0% respondent amaldagi test tizimini yoqlab ovoz berishgan, 24,0%i "dars o'tish mahorati ishchi guruh tomonidan o'rganilsin", 15,0%i "ta'lim samaradorligi tashqi monitoring natijalari asosida baholansin", 14,0%i "suhbat" asosida, 6,0%i "portfolio", 5,0%i "pedagogik loyiha" va yana 5,0%i "ijodiy hisobot" va 3,0% respondentlar esa "boshqa" tartib asosida baholash lozim deb hisoblashlarini belgilab o'tganlar.

Shu bilan birga, hujjatlarni elektron shaklda platformaga joylashtirish uchun 80% pedagog kadrlarda imkoniyat mavjudligi, ulardan 50%i hujjatlarini bevosita o'zlari elektron shaklda platformaga joylashtirish istagini bildirganlar. Bu orqali o'qituvchilarning AKT sohasidagi savodxonligi oqsayotganligi aniqlanib, pedagog kadrlarda kompyuter bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirish lozimligini ko'rsatadi.

Amaldagi Nizomga muvofiq pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish ikkib bosqichda amalga oshiriladi hamda ikkita bosqich bo'yicha umumiy 100 ballik tizimda baholanadi.

Birinchi bosqichda pedagog kadrlarning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligi u ishlayotgan ta'lim tashkilotining pedagogik (kuzatuv) kengashlari tomonidan o'rganiladi va baholash mezonlari asosida 20 ballik tizimda baholanadi.

Navbatdagi so'rovimiz aynan 20 ballik tizim haqida bo'ldi va respondentlar tomonidan quyidagicha javoblarni oldik (4-rasm).



4-rasm. Ta'lim tashkilotining pedagogik (kuzatuv) kengashi tomonidan o'rganilishi (ijtimoiy so'rovnoma, iyul-sentabr, 2022 yil).

O'qituvchilarning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini ta'lim tashkilotining pedagogik (kuzatuv) kengashi tomonidan o'rganilishi natijasiga ko'ra ishtirokchi respondentlarning eng ko'p qismi 14 ball (15,3%) va 16 ball (13,0%) bilan baholangan. 126 nafar (3,2%) respondent maksimal 20 ballni qo'lga kiritishgan. Eng yomon jihati 137 nafar (3,5%) respondent 1 dan 10 gacha bo'lgan oraliqda ball to'play olganlar. Respondentlar tomonidan o'qituvchilarning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini ta'lim tashkilotining pedagogik (kuzatuv) kengashi tomonidan qo'yiladigan ballar bo'yicha juda ko'plab e'tirozlar bildirilgan.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki respondentlar tomonidan eng ko'p e'tiroz ham aynan ta'lim tashkilotlarining pedagogik kengashlari tomonidan qo'yilgan ballar bo'yicha bo'lgan. Xususan, amaldagi tartibga ko'ra, pedagogik kengash raisi maktab direktori hisoblanadi. Bu o'z o'rnida direktor va o'qituvchilar o'rtasida turli korrupsiyaviy holatlar kelib chiqishiga, xodimning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini baholashdagi noxolislikka sabab bo'lishi mumkin.

Pedagog xodimlarning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini attestatsiyadan o'tkazish va baholash jarayoni bo'yicha 3000 ga yaqin pedagog xodimlar juda ko'p savollari borligi, e'tiroz va takliflarini bildirib o'tganlar. Bildirilgan fikrlardan xulosa qilinsa, bunga o'xshash minglab e'tirozli fikrlar attestatsiya jarayonining bazi jihatlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Respondentlarning eng ko'p e'tirozlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 572-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning o'zgartirilgan bandi, attestatsiyada foydalanilayotgan test savollarining ba'zilar darsliklardan yiroqligi, murakkabligi, test uchun ajratilgan vaqtning qisqaligi, xalqaro tan olinadigan ayrim sertifikatlarning tan olinmasligi va imtiyoz berilmasligi, pedagoglarning uzoq yillik ish staji umuman inobatga olinmasligi, joylarda pedagogik kengashlar tomonidan ball qo'yishda noxolisliklarga yo'l qo'yilayotganligi, pedagogik kengashlar raisi bo'lgan ayrim direktorlarning ushbu imtiyozdan jazolovchi dastak sifatida foydalanayotganliklari, attestatsiya o'tkaziladigan bino va joylarda kutish uchun umuman shart-sharoitlar yaratilmaganligi va ortiqcha tekshirishlar, buning ustiga ba'zi joylarda nazoratchilarining qo'pol-qo'rs muomalasi, jinoyatchiga qaragandek qarashlari, o'qituvchilarga nisbatan hurmatsiz munosabatlari, navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tish uchun qilinadigan to'lov summasi miqdori, jarayonlar bilan bog'liq murojaatlarning ko'pincha e'tiborsiz qoldirilishi, botlar orqali yuborilgan savol va takliflarga tezda munosabat bildirilmasligi va hokazolar bilan bog'liq.

Attestatsiya o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga hissa qo'shadi, chunki u o'zligi va qarashlarini tushunishni, uning atrofidagi dunyo, madaniyat, ta'lim jarayoni ishtirokchilari haqidagi g'oyalarini o'zgartiradi. O'qituvchida ta'lim va tarbiyaning eng yaxshi shakllari va texnologiyalarini izlashga ehtiyoj paydo bo'ladi, o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar va jamoatchilik bilan turli munosabatlar quriladi, o'ziga va o'zgalarga nisbatan mas'uliyat ortadi, yangiliklarga ochiqlik, o'z-o'zini rivojlantirish, anglash istagi paydo bo'ladi.

O'qituvchilarni attestatsiyadan o'tkazish jarayonini tashkil etish, ularning kasbiy o'sishini rag'batlantirishning integral shakllaridan biri bo'lib, agar uni amalga oshirishning tashkiliy tuzilishi va tashkiliy mexanizmi belgilangan bo'lsa, ushbu ta'lim muassasasiga tizimli yondashuv amalga oshirilsa, attestatsiya sub'ektlarini yagona integral hodisa sifatida ko'rib chiqishni o'z ichiga olgan holda, jarayon ishtirokchilarining o'zaro bog'liqligi va o'zaro munosabatlariga asoslangan, uning muvaffaqiyat va norasmiy xususiyatini ta'minlaydigan birgalikdagi faoliyat sifatida tushunish va amalga oshirish uchun sharoit yaratiladi. O'tkazilgan so'rovnoma natijasida, pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish lozimligini ko'rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" qonuni, O'RQ-637, 2020 yil 23-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2021 yil 17-sentabrdagi 572-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi vaziri jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022 yil 2-avgustdagi 425-son Qarori.
5. <https://uzedu.uz>
6. <https://pedkadr.tdi.uz>

## **O'ZMAT (O'ZBEK TILI MALAKASINI ANIQLASH TESTI) TIZIMIDA O'QIB TUSHUNISHNI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI**

**I.Azimova,**

**A.Mamataliyev,**

*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti Umumiy o'rta ta'lim mazmuni va metodikalari ilmiy-tadqiqot bo'limi katta ilmiy xodimi*

**Annotatsiya.** O'zbek tili malakasini aniqlash testi tizimida o'qib tushunishni baholashning summativ baholash, formativ baholash, testning maqsadini aniqlash, domen va konstruktleri aniqlash, test spetsifikatsiyasini ishlab chiqish, test topshiriqlarini ishlab chiqish, dastlabki approbatsiya, katta miqyosdagi approbatsiya, validlik va ishonchlilik tahlillari nazariy asoslari tahlil qilingan.

**Аннотация.** Суммативное оценивание, формирующее оценивание, определение цели теста, определение доменов и конструктов, разработка спецификаций теста, разработка тестовых заданий, предварительное согласование, массовое согласование, анализ валидности и надежности оценивания понимания прочитанного в анализируются теоретические основы системы проверки уровня владения узбекским языком.

**Abstract.** Summative assessment, formative assessment, determination of the purpose of the test, determination of domains and constructs, development of test specifications, development of test items, preliminary agreement, mass agreement, analysis of the validity and reliability of reading comprehension assessment The theoretical foundations of the Uzbek language proficiency testing system are analyzed.

Baholash jarayoni ma'lum maqsadni ko'zlab o'tkaziladi. Testdagi topshiriqlar soni, ularning tuzilishi, baholash mezonlari aynan baholashning maqsadidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Bir maqsad uchun yaratilgan test boshqa bir maqsad uchun to'g'ri kelmasligi ham mumkin. Masalan, o'quvchilarni chet tilini bilish darajasiga ko'ra guruhlarga ajratish maqsadida tuzilgan ko'p darajali testni chet tili o'rganishning aniq bir darajasini baholash uchun ishlatib bo'lmaydi<sup>1</sup>.

Test yordamida ma'lum bir domen va bu domenga xos bo'lgan konstruktler o'lchanadi, ular o'quvchida (test topshiruvchida) qay darajada shakllanganligi

<sup>1</sup>Jalilov K.. Baholash nazariyasi asoslari. –Toshkent, Akademnashr. 2020, 17-bet.

haqida xulosa chiqariladi. Bu xulosa esa o'z navbatida, biron-bir qaror qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Baholash jarayonining maqsadidan kelib chiqqan holda ikki xil baholashni ajratib ko'rsatish mumkin: xulosalovchi (summativ) baholash, shakllantiruvchi (formativ) baholash.

**Summativ baholash** – ta'lim jarayonining ma'lum bir muhim bosqichida (masalan, modul yoki fan oxiri, semestr yoki o'quv yili yakuni, ta'limning bir bosqichi nihoyasi yoki ta'limning keyinchi bosqichiga o'tishdan oldin) ta'lim oluvchining ta'limiy maqsadlarga qay darajada erishganligini o'lchash jarayoni.

**Formativ baholash** – ta'lim jarayoni davomida ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish sifatini baholab borish.

Bizning ishimizda summativ baholash jarayoniga urg'u berilgan hamda 11-sinf bitiruvchilarining Ona tili fani doirasida o'qib tushunish malakalarini baholash testlarini ko'rib chiqish maqsad qilingan.

Ta'lim sifatini baholash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning hisobotlaridan ma'lumki, agarda juda katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan sinovlarning mazmuni va test topshiriqlari metodikasi ta'lim berishning bosh maqsadi bilan hamohang bo'lmasa, o'rta ta'limda o'qitish va summativ baholash bir-biridan uzilib qoladi. Natijada jamiyatda "imtihon uchun o'rgatish"ga mo'ljallangan alternativ ta'lim paydo bo'ladi. Bu esa jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy hayotiga, xususan, ta'lim jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda shuni ham ta'kidlash kerakki, Garvardda<sup>1</sup> o'tkazilgan tadqiqotlardan shu ma'lum bo'ldiki, o'quvchilarni, talabalarni majburiy standartlashtirilgan testlardan o'tish uchun tayyorlash ularning o'qitilishining bosh maqsadiga aylanib qoladi. O'qituvchilar va ta'lim oluvchilarda stressli holatlarni keskin oshib ketishiga sabab bo'ladi. Bular esa summativ baholashni tashkil etishda, uning mazmunini, formatini va topshiriqlari metodikasini belgilashda ehtiyotkorona, aniq statistik tahlillarga asoslanib amalga oshirish kerakligini ko'rsatadi.

Summativ baholash asosan ta'lim oluvchiga yoki ta'lim oluvchi orqali ta'lim beruvchiga (o'qituvchi, ta'lim muassasasi, ta'lim yo'nalishi, talim tizimi) baho berish hamda ta'lim oluvchilarni saralash maqsadida rasmiy shaklda (imtihon sinov, kurs ishi yoki diplom ishi topshirish) o'tkaziladi<sup>2</sup>.

Har qanday baholash jarayoni uchun, xususan, summativ baholash uchun ham testlar ishlab chiqish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olishi lozim bo'ladi:

<sup>1</sup>Mandatory Testing and News in the Schools: Implications for Civic Education. A Report from the Carnegie-Knight Task Force on the Future of Journalism Education. [https://shorensteincenter.org/wp-content/uploads/2012/03/mandatory\\_testing\\_and\\_news\\_in\\_schools\\_2007.pdf](https://shorensteincenter.org/wp-content/uploads/2012/03/mandatory_testing_and_news_in_schools_2007.pdf)

<sup>2</sup>Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. –Toshkent, Akademnashr. 2020, 25-bet.

**Testning maqsadini aniqlash** – testning maqsadi, uning qanday shaklda bo'lishi, qanday xarakteristikalariga ega bo'lishini aniqlab olish.

**Domen va konstruktarni aniqlash** – baholanishi kerak bo'lgan domen hamda konstruktlar aniqlanadi. Domen va konstruktlar odatda ta'lim standartlari asosida tuziladi.

**Test spetsifikatsiyasini ishlab chiqish** – baholanishi lozim bo'lgan domen va konstruktarning har bir elementi qanday, nechta sondagi test topshiriqlari yordamida tekshirilishi aks etadi. Test spetsifikatsiyasini ishlab chiqishda domenga kiruvchi mazmuniy qismlardan tashqari test topshiruvchidan talab qilinadigan kognitiv operatsiya turini ham hisobga olish lozim. Buning uchun kognitiv operatsiyalarni tasniflaydigan nazariy model ishlatiladi. O'qib tushunish testlari uchun ko'plab tadqiqotchilar AQSH olimi Benjamin Blum tomonidan yaratilgan Blum taksonomiyasi modelini qo'llaydilar.

**Test topshiriqlarini ishlab chiqish** – test spetsifikatsiyasi asosida test topshiriqlarini ishlab chiqish bosqichi.

**Dastlabki approbatsiya** – ishlab chiqilgan test topshirig'i dastlabki approbatsiyadan o'tkaziladi. Kerakli tahliliy xulosalar olingach testga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi.

**Katta miqyosdagi approbatsiya** – approbatsiya ishtirokchilari sifatida haqiqiy test topshiruvchilarga xususiyat jihatdan yaqin qatnashuvchilar tanlanadi. Approbatsiya sharoitlari ham haqiqiy test sharoitlariga maksimal yaqin bo'lishini ta'minlash kerak bo'ladi.

**Validlik va ishonchlilik tahlillari** – katta miqyosdagi approbatsiyadan so'ng natijalar testologiya qonun-qoidalari asosida validlik hamda ishonchlilik nuqtai nazaridan tahlil qilib chiqiladi. Shundan so'ng testning oxirgi ko'rinishi tayyorlanadi<sup>1</sup>.

Matnni o'qib tushunishni baholash uchun avvalo uning qanday mayda darajalarni o'z ichiga olishini bilish testning adolatli va asosli bo'lishiga zamin yaratadi.

Matnni o'qib tushunish murakkab psixolingvistik jarayon bo'lib, grafemalarni tanish, so'zni o'qish, so'zning lug'aviy ma'nosini, kontekstual ma'nosini anglash, sintaktik strukturani to'g'ri hal etish (ya'ni so'zlarning o'zaro munosabati, qaysi so'z gapdagi asosiy tushunchani, qaysilari unga tobe tushunchalarni ifodalayotganini anglash), shuningdek, matn mazmuniy bloklarining o'zaro bog'lanishini tushunish kabi darajalardan iborat bo'ladi. Mazkur darajalar matnni tushunish, uning

<sup>1</sup>Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. –Toshkent, Akademnashr. 2020, 110-bet.

mazmuniy proyeksiyasini ongda hosil qilgunga qadar kechadigan jarayondir<sup>1</sup>.

Bu o'rinda o'zbek tilida amalga oshirilgan psixolingvistik tadqiqotga murojaat qilish o'rinli bo'ladi. O'zbek tilidagi gazeta matnining tushunilishi bo'yicha o'tkazilgan tajribalarga asosan matnni tushunishning quyidagi darajalari ajratilgan: assotsiativ daraja, leksik-morfologik daraja, kontekstual daraja, struktural daraja, matniy daraja.

Assotsiativ daraja matndagi ma'lum til birliklari ta'sirida assotsiatsiyalar hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi. Leksik-morfologik daraja esa so'zlarning va qo'shimchalarning to'g'ri tushunilishi bosqichidir. Kontekstual darajada so'zlarning kontekstda anglatayotgan ma'nosi reallashadi. Struktural darajada matnning mazmuniy qismlari, ularning o'zaro bog'lanishi tushuniladi. Matniy darajada matn mazmuni yaxlit anglanishi nazarda tutiladi<sup>2</sup>.

Mazkur darajalar matnda ifodalangan ma'lumotni to'liq anglash uchun zaruriy darajalar bo'lib, ularning qaysidir bittasi risoladagiday kechmasligi matn mazmuni o'quvchiga to'liq yetib bormasligi, ba'zan nimadir yangilish tushunib qolishiga olib boradi.

O'ZMAT tizimi doirasida o'qib tushunishni tekshirish uchun tanlangan ko'nikmalar Blum taksonomiyasi hamda matn tushunilishi haqidagi psixolingvistik nazariyalarga tayangan holda shakllantirilgan. Mazkur test tizimining o'qib tushunish bo'limida uch xil uslubdagi uchta matn beriladi. O'ZMAT tizimi avvalboshdan ona tili va adabiyot fanlari bo'yicha ko'nikmalarni baholaydi deb maqsad qilingani uchun matnlarning biri badiiy uslubda. Bunda hikoya yoki biror asardan olingan parchadir. Ona tilini ijtimoiy hayotning muhim masalalarini anglashda samarador ishlata olish zamon talab qilayotgan ko'nikma ekanligini hisobga olgan holda, keyingi matn publitsistik uslubga oid. Har qanday kasb egasi yoki oliy ta'limda o'qishga talabgor eng ko'p duch keladigani ilmiy-ommabop matnlar bo'ladi, shuning uchun ham ushbu uslubdagi matnlarni o'qib tushunish ko'nikmasi shaxsning umumiy qabul qilish qobiliyatini aniqlashga mos keladi. Shu asosda o'qib tushunish bo'limidagi uchinchi matn ilmiy-ommabop uslubga oiddir.

O'qib tushunish komponentini baholash uchun ko'nikmalar ikki guruhga bo'lib shakllantirildi. Adabiyot faniga oid ko'nikmalarni badiiy matnni o'qib tushunish orqali baholash vazifasi shuni taqazo qildi. Badiiy matnni o'qib tushunishda quyidagi ko'nikmalar belgilab olindi:

<sup>1</sup>Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. *Global ta'lim va milliy metodika*. Toshkent, 2019. B. 220.

<sup>2</sup>Azimova I. O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi. Toshkent, 2019.

O'SA<sup>1</sup>.1. asar yoki parcha matnidagi implitsit ma'nolarni (tagma'no) topa olish;

O'SA.2. asar yoki parcha matnidagi eksplitsit (ochiq ifodalangan) ma'nolarni topa olish;

O'SA.3. asar yoki parchaning syujet elementlarini farqlay olish;

O'SA.4. asar yoki parchada muallif qo'llagan tasviriy vositalarni tushunish va farqlay olish;

O'SA.5. asar yoki parcha tiliga xos leksik, grammatik, fonetik xususiyatlar hamda ularning kontekstual ma'nosini tushuna olish;

O'SA.6. asar yoki parchaning umumiy g'oyasi, mazmunini aniqlay olish;

O'SA.7. asar yoki parchada ishtirok etgan obrazlarga tavsif bera olish.

Ikkinchi guruh ko'nikmalar publitsistik va ilmiy-ommabop matnlar uchun umumiy qilib shakllantirildi va ular quyidagidan iborat:

O'SPIO<sup>2</sup>.1 matnning umumiy g'oyasi yoki mazmunini tushunish (matnda ilgari surilgan asosiy fikr bu g'oya. Bitta gap orqali ifoda etish mumkin bo'lgan umumiy g'oya);

O'SPIO.2 Eksplitsit fikr-mulohazani tushunish;

-inkorni tasdiqlash;

-sinonim;

O'SPIO.3 Implitsit fikr-mulohazani tushunish (matnda aytilgan gapdan mantiqiy xulosa chiqarish orqali matnda aytilmagan fikr-mulohazani tushunish);

O'SPIO.4. asar yoki parchada muallif qo'llagan tasviriy vositalarni tushunish va farqlay olish;

O'SPIO.5.1 matnda qo'llangan so'z, birikma va iboralarning kontekstdagi ma'nosini tushunish

O'SPIO.5.2 ishoraviy birliklarning matnning qaysi qismiga ishora/havola qilayotganini tushunish

O'SPIO.6 matndagi til birliklarining qo'llanishini baholash

O'SPIO.7.1 muallifning voqea-hodisalarga qanday baho berganini tushunib yetish

<sup>1</sup>O'SA - O'qish savodxonligi, adabiyot

<sup>2</sup>O'SPIO - O'qish savodxonligi, publitsistik, ilmiy-ommabop

O'SPIO.7.2 muallif tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarning asosli ekanligiga tushunish/baho berish

O'SPIO.7.3 fikr-mulohazalarni taqqoslash va umumlashtira olish

O'SPIO.7.4 sabab va oqibatni ajrata olish

O'SPIO.7.5 muallifning ma'lum bir misol/faraz/pretsendent matnini qo'llashdan maqsadini aniqlash

O'SPIO.8.1 matn qismlari (gaplar, xatboshilar) o'rtasidagi bog'lanishlarni tushunish.

**Masalan:** 2-abzats 3-abzats bilan qanday bog'langan?

A) 3-abzats 2-abzatni dalillagan

B) 3-abzats 2-abzatga misol keltirgan

C) 3-abzats 2-abzatni inkor qilgan

D) ...

O'SPIO.8.2 matn qismlariga sarlavha qo'yish;

O'SPIO.8.3 ikkita yoki undan ortiq paragrafda bildirilgan fikr-mulohazalarni bir-biriga bog'lay olish yoki ularga umumiy tarzda taalluqli bo'lgan xulosaga kelish.

Ushbu ko'nikmalarni tekshirish uchun 79 ta badiiy, 67 ta publitsistik, 89 ta ilmiy-ommabop matn ko'rib chiqildi va 800-1100 ta so'zdan iborat bo'lgan 24 ta badiiy matn saralab olindi. Badiiy matnlarni saralashda so'zlar soni; matnning o'ta murakkab sintaktik konstruksiyalarning sodda konstruksiyalar bilan aralash qo'llanganligi, chastotasi yuqori so'zlarning chastotasi past so'zlarga nisbatan ko'proq qo'llanganligi, badiiyati yuqoriligi kabi mezonlar asos bo'lib xizmat qildi. Xuddi shunday publitsistik va ilmiy-ommabop uslubdagi matnlar ham saralanib olindi. Har bir matn asosida testologlar tomonidan ko'nikmalarni tekshiradigan testlar tuzildi. Testlar loyihadagi mutaxassislar guruhi tomonidan muhokama qilindi. Har bir testning kuchli va kuchsiz taraflari bo'yicha guruh a'zolarining fikrlari inobatga olinib, yakunda **8** ta variant shakllantirildi. Ularning har biriga har bir matn bo'yicha **12** tadan, jami **36** ta test kiritildi.

Tayyor variantlar Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi bir necha umumta'lim muassasalari bitiruvchilarining **400** tasi ishtirokida approbatsiyadan o'tkazildi. O'qib tushunish bo'yicha testlarni ishlash uchun sinaluvchilarga 1 soat-u 20 daqiqa, javoblarni javoblar varaqasiga ko'chirishga 10 daqiqa, jami bir yarim soat vaqt berildi.

Testlarning approbatsiya natijalari statistik tahlil qilindi. Tahlilda individual test topshiriqlarining diskriminatsiya indeksi hamda to'g'ri javob va distraktorlar ko'rsatkichlari o'rganildi. Diskriminatsiya indeksi bu testning bilimi yuqori va bilimi past bo'lganlarni ajrata olish xususiyatidir. Bunda testning to'g'ri javobi test topshiruvchilar orasida to'g'ri javoblar soni ko'p bo'lganlar tomonidan ko'proq topilganmi yoki to'g'ri javoblar soni kam bo'lganlar tomonidan ko'proq topilganmi degan savolga javob izlanadi. To'g'ri javoblar foizi test topshirig'ining nisbiy qiyinlik darajasini belgilashda hamda variantlar o'rtasidagi paralellikni ta'minlashda yordam beradi. Distraktorlar ko'rsatkichlari esa ularning qay darajada samarali ishlayotganligini baholash imkonini beradi. Bundan tashqari statistik tahlillar yordamida test variantining umumiy ko'rsatkichlari ham o'rganildi. Bunga testda qatnashganlarning arifmetik o'rtacha balli, ballarning standard og'ish ko'rsatkichlar, minimal va maksimal ballar va natijalarning gistogrammadagi ko'rinishi kabi tahlillar kiradi. Bu tahlillar test variantining umumiy qiyinlik darajasini aniqlashga va variantlar o'rtasidagi tenglik va paralellikni ta'minlashga yordam beradi.

Quyidagi jadvalda badiiy matnni tushunish uchun belgilangan ko'nikmalar bo'yicha to'g'ri javoblar miqdori aks etgan.

*1-jadval. O'SA ko'nikmalari bo'yicha birinchi approbatsiya natijalariga ko'ra to'g'ri javoblar miqdori*

| t/r | Ko'nikma shifri | Ko'nikmaning mazmuni                                                                                                   | 1-approbatsiya natijalariga ko'ra to'g'ri javoblar foizi |
|-----|-----------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------|
| 1.  | O'SA.1.         | asar yoki parcha matnidagi implitsit ma'nolarni (tagma'no) topa olish                                                  | <b>60</b>                                                |
| 2.  | O'SA.2.         | asar yoki parcha matnidagi eksplitsit (ochiq ifodalangan) ma'nolarni topa olish                                        | <b>64</b>                                                |
| 3.  | O'SA.3.         | asar yoki parchaning sujet elementlarini farqlay olish                                                                 | -                                                        |
| 4.  | O'SA.4.         | asar yoki parchada muallif qo'llagan tasviriy vositalarni tushunish va farqlay olish                                   | <b>52</b>                                                |
| 5.  | O'SA.5.         | asar yoki parcha tiliga xos leksik, grammatik, fonetik xususiyatlar hamda ularning kontekstual ma'nosini tushuna olish | <b>59</b>                                                |
| 6.  | O'SA.6.         | asar yoki parchaning umumiy g'oyasi, mazmunini aniqlay olish                                                           | <b>78</b>                                                |
| 7.  | O'SA.7.         | asar yoki parchada ishtirok etgan obrazlarga tavsif bera olish                                                         | <b>66</b>                                                |

Mazkur jadvalda faqat diskriminatsiya indeksi yaxshi chiqqan testlar hisobga olindi. Syujet elementlari bilan bog'liq (O'SA.3.) ko'nikma asosida tuzilgan testlarning natijasi shu sababli hisobga olinmadi. Syujet elementlari bilan bog'liq testlar berilgan matnning kulminatsiyasi yoki tugunini topish so'ralgan testlar edi. Kulminatsiya so'ralgan testlar ma'lum darajada to'g'ri ishlangan bo'lsa-da, tugun degan tushuncha bolalarda shakllanmagan degan xulosaga kelindi. Bu testlar bilan bog'liq muammo bir tomondan, ularda adabiyot nazariyasiga oid bilimning, terminlarni bilish talab qilinishi bo'lsa, ikkinchi tomondan syujet elementlari bilgan holda ham, ularni asardan to'g'ri topish nazariy tushunchalarni tushunish jarayonida qo'llay olish, ya'ni ulardan matnni tahlil qilish talab etilishi edi.

Belgilangan ko'nikmalar bo'yicha O'SA.4. ko'nikmasiga tegishli ko'rsatkich qolganlariga nisbatan pastroq. Bu ko'nikmada berilgan testlarning mazmuniga tayangan holda, aytishimiz mumkin ki approbatsiyada ishtirok etgan bitiruvchilarning ko'pchiligida matnda qo'llangan birlikning nima uchun qo'llanganini tushunish, ya'ni til birligining pragmatikasini anglash nisbatan yaxshi rivojlanmagan.

Birinchi approbatsiyada O'SA.1. ko'nikmasi bo'yicha tuzilgan 7ta testdan ikkitasininggina diskriminatsiya indeksi talab darajasida bo'lgan. Garchi jadvalda berilgan ko'rsatkich 60 bo'lsa-da, u ikkita alohida 46% va 74% natijalarining o'rtachasini aks ettiradi. Bu esa tajribamiz ishtirokchilarida implitsit ma'noni tushunish ko'nikmasi ham yetarlicha shakllanmaganligini bildiradi, nazarimizda. O'SA.1. va O'SA.3. ko'nikmalariga tuzilgan testlarning birinchi approbatsiyadagi natijasi testning mavjud populatsiyani baholashda populatsiyada shakllangan ko'nikmalarga bog'liq jihatlari mavjudligini yana bir karra dalillaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. Global ta'lim va milliy metodika. Toshkent, 2019. B. 220.
2. Azimova I. O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi. Toshkent, 2019.
3. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. -Toshkent, Akademnashr 2020.
4. Mandatory Testing and News in the Schools: Implications for Civic Education. A Report from the Carnegie-Knight Task Force on the Future of Journalism Education. [https://shorensteincenter.org/wp-content/uploads/2012/03/mandatory\\_testing\\_and\\_news\\_in\\_schools\\_2007.pdf](https://shorensteincenter.org/wp-content/uploads/2012/03/mandatory_testing_and_news_in_schools_2007.pdf)

## BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATI QIYOSIY TAHLIL SHAKLIDA

**To'rayeva Sanobar Sulaymonovna,**

*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti*

**Annotatsiya.** Boshlang'ich ta'lim xalq ta'limining asosiy bog'ini hisoblanadi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'limni sifatli tashkil etish va uni nazorat qilish ta'lim bilan shug'ullanuvchi barcha davlat tashkilotlari oldidagi dolzarb masaladir. Keyingi yillarda boshlang'ich ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar aynan uning sifat mazmunini takomillashtirishga yo'naltirilgan. Xalqaro ta'limni baholash dasturlari (PIRLS – 2021, TIMSS – 2023, EGRA, EGMA)da boshlang'ich sinf o'quvchilari jalb etilgan. Ammo boshlang'ich sinf darsliklarining tez-tez o'zgartirilishi, darslikda uchraydigan kamchiliklar uning sifatiga ham ta'sir qilmay qolmaydi. Shu bilan birga boshlang'ich ta'lim sifati nafaqat o'quv darsliklari bilan balki, bolalarning salomatligi bilan ham o'lchanadi. Afsus, yurtimizda aynan bola salomatligini aniq nazorat qiladigan aniq tashkilot mavjud emas.

**Аннотация.** Начальное образование является основной частью государственного образования. На сегодняшний день организация качества начального образования и его контроль является актуальным вопросом для всех государственных организаций, занимающихся образованием. Реформы, проводимые в системе начального образования в последние годы, направлены на повышение его качественного содержания. Учащиеся начальных классов участвуют в международных программах оценки образования (PIRLS - 2021, TIMSS - 2023, EGRA, EGMA). Однако частая смена учебников для начальных классов и недостатки самих учебников не сказываются на его качестве. При этом качество начального образования измеряется не только учебниками, но и здоровьем детей. К сожалению, в нашей стране нет конкретной организации, которая бы точно следила за здоровьем детей.

**Abstract.** Primary education is the main part of public education. Today, the organization of the quality of primary education and its control is a topical issue for all state organizations involved in education. The reforms carried out in the system of primary education in recent years are aimed at improving its quality content. Primary school students participate in international education assessment programs (PIRLS - 2021, TIMSS - 2023, EGRA, EGMA). However, the frequent change of textbooks for elementary grades and the shortcomings of the textbooks themselves do not affect

its quality. At the same time, the quality of primary education is measured not only by textbooks, but also by the health of children. Unfortunately, in our country there is no specific organization that would accurately monitor the health of children.

Yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan, barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim berish mamlakatimizning ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. Shubhasiz, komil insonni voyaga yetkazishda boshlang'ich ta'lim poydevor vazifasini o'taydi. Yurtimizda ta'lim tizimini isloh qilish, takomillashtirish yo'lida xalqaro darajadagi innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilish bo'yicha ishlar yashin tezligida amalga oshirilmoqda. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti hamda Xalq ta'limi vazirining 2017-yil 3-iyundagi 190-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-4-sinf fanlari o'quv dasturi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida talim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli farmoni asosida yaratilgan Milliy o'quv dasturining qabul qilinishi bu innovatsiyalarning jadal sur'atlarda amalga oshirilishini tezlashtirib yubordi. Yuqoridagi me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifani amalga oshirishda boshlang'ich ta'lim asosiy o'rinni egallaydi. Ta'limdagi har bir yangilik boshlang'ich ta'lim jarayonini chetlab o'tmaydi, aynan shu o'quv jarayonida ta'limda amalga oshirilayotgan innovatsion yondashuvlar tajribasino'vdan o'tkaziladi. Boshlang'ich ta'lim o'quv jarayonini zamonaviylashtirish, uning sifat-samaradorligini baholash borasidagi ishlar so'nggi o'n yilda jadallashib bormoqda. Jumladan, 2013-2017-yillarda boshlang'ich ta'lim fanlari yo'nalishidagi barcha fanlar uchun multimedia ilovalari va o'quv qo'llanmalarining yaratilishi, 2014-yilda kompetensiyaviy yondashuvdagi DTS va o'quv dasturining tajribasino'vdan o'tkazilishi, 2017-yilda shu DTS va o'quv dasturining amaliyotga joriylanishi, ular asosidagi 1-4-sinf darsliklarining ishlab chiqilishi, 2021-2022-yillarda Milliy o'quv dastur loyihasining tasdiqlanishi, loyiha asosida 1-2-sinf darsliklarining (Ona tili va o'qish savodxonligi, Matematika, Tabiiy fanlar) yangi avlodi yaratilishi, darsliklarning elektron multimedia ilovalari GooglePlay platformasiga joylashtirilishi, 2021-yil aprel oyida boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining tarixda ilk marotaba PIRLS – 2021 xalqaro baholash dasturidagi ishtiroki, Stesting.uz onlayn platformasining yaratilishi, 2021-2022-o'quv yilidan boshlab baholashning elektron platformasi – [www.kundalikcom.uz](http://www.kundalikcom.uz)ning joriy qilinishi shular jumlasidandir.

### **Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish muammolari**

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim sifati egallangan bilim darajasida emas, balki hayoti davomida bilim olishga bo'lgan qiziqishida, kasbiy va shaxsiy rivojlanishida, egallangan bilimlarni kichik hayotida qo'llay olish kompetensiyasida belgilanadi.

Zamonaviy dunyoda – inson kapitali har bir mamlakatning barqarorligi va taraqqiyotini ta'minlashdagi siyosiy va iqtisodiy resursiga aylanmoqda. Davlat ta'lim tizimi siyosatini ishlab chiqishda mamlakatning global makonda raqobatbardoshligiga qanday ta'sir qilishini, o'zgarishlar qanday ta'lim sifati natijalariga olib kelishini, kelajakda jamiyatning rivojlanish darajasiga mos kelishini inobatga olishi lozim.

Ta'limning rivojlanish darajasi quyidagi asosiy omillarga bog'liq:

- Jahon hamjamiyatining ta'lim jarayonidagi hamkorligi (kengayib borayotgan ijtimoiy makonda individul muhitning xilma-xilligi va ko'p sonliligi, shaxslar va guruhlararo muloqotning turli shakllari, ko'rinishlari, yashash muhitining rivojlanishi);
- Jahon fuqarolik jamiyatida insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish (hayotiy faoliyatga mas'uliyat bilan qarashni rivojlantirishda har bir shaxs huquq va erkinliklarini himoyalash);
- Shaxsning faol, mustaqil va intensiv ijtimoiy (o'ziga xoslik) xarakterdagi yangi ma'naviy olamini shakllantirish, jamoa va o'z manfaati uchun shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishi – bu insonning butun umri davomida o'rganishga va qayta o'qishga tayyorligini bildiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan har bir omil to'g'ridan-to'g'ri ta'lim sohasi va zamonaviy ta'lim sifatiga ta'sir qiladi. Hozirgi kunda maktabga bo'lgan talab o'zgardi. Endi o'quvchi jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi uchun bilimni hayotda qo'llashni o'rganishi lozim. Chunki zamonamizda shu orqali ta'limning sifati baholanmoqda.

Biz o'zlashtirilgan bilim darajasi bilan belgilanadigan sifatning an'anaviy tizimidan cheklanib, yangicha zamonaviy talablarga e'tiborni qaratishimiz kerak: *ya'ni, shaxsiy va kasbiy rivojlanishda kompetentli bo'lish, hayot davomida o'qishga bo'lgan mustahkam ishtiyoq mavjudligi*. Bu talablarni bajarishda boshlang'ich ta'lim jarayoni asosiy o'rinni egallaydi. Endi boshlang'ich ta'lim maktablari oldida turgan vazifa ham o'zgardi. Bilimlarni sayqallovchi va yetkazuvchi – oliy ta'lim muassasasi insonparvarlik tamoyillarini o'zida mujassam etgan holda, jamiyatda yashash san'atini o'rgatuvchi, o'z-o'zini tarbiyalashga undaydigan institutga aylandi. Bu institutlar yuqorida sanab o'tilgan sifatlarga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalovchi

kardlarni yetkazishda yetakchilik qiladi. Pedagog-kadr qanchalik sifatli tayyorlansa, boshlang'ich ta'lim sifati ham shu daraja yuqori bo'ladi.

Aynidamda ta'lim maydonida natija nuqtai nazaridan ta'lim sifati aniqlashda ikkita asosiy yondashuv mavjud:

**Birinchi yondashuv**, o'quvchilarning ilmiy yutuqlarini aniqlash va baholash bo'lib, an'anaviy baholashga yaqin turadi. Bu yondashuv davlatda ta'lim sifati ko'rsatkichi muvaffaqiyatini belgilab beradi. Ta'lim sifati darajasini aniqlashning yetakchi usuli test sinovidir. Bizga sir emaski, test sinovlari ta'lim sifati darajasini aniqlashda o'ziga xos kamchiliklarga ega. Shu sabab sifatni baholashda faqat uning natijasiga tayanish samarasizdir. Dunyoning aksariyat yetakchi davlatlari mana 30 yildan oshiq vaqt mobaynida buni o'z tajribasida sinab ko'rganligini ommaviy axborot vositalarida muntazam kuzatib borish mumkin. Ayrim davlatlarda faoliyat yuritayotgan umumiy va boshlang'ich ta'lim sifati baholovchi dasturlar:

- Ko'pgina Yevropa mamlakatlarida: Matura (yetuklik, o'rta ma'lumot to'g'risidagi yoki umumiy (to'liq) o'rta ta'lim to'g'risidagi guvohnoma);
- AQShda: SAT (Reasoning testi, Qo'shma Shtatlardagi universitetlarga kirish uchun standartlashtirilgan test) va ACT (Qo'shma Shtatlardagi kollej va universitetlarga kirishda, shuningdek, biridan ikkinchisiga ko'chirish uchun standartlashtirilgan test);
- Rossiya: EGE (yagona davlat imtihoni);
- Singapur: PSLE, GCE N, GCE O, GCE A (PSLE ingliz tili, ona tili, matematika va tabiatshunoslik fanlaridan boshlang'ich ta'lim uchun yakuniy imtihon, umumiy o'rta ta'limda yakuniy imtihon uch darajada olinadi: GCE N darajasi, GCE O darajasi, GCE A daraja).
- Buyuk Britaniya: A-daraja;
- Germaniya va Avstriya: Abitur;
- Fransiya: Baccalauréat en France (Bac) (Fransiyada bakalavr);
- Xitoy: Gaokao (kollejga kirish imtihoni);
- Ukraina: Tashqi mustaqil baholash;
- Qozog'iston: Yagona milliy test;
- Belarusiya: Markazlashtirilgan test;
- Qirg'iziston: ORT - umummilliy test;

O'zbekistonda ham yuqoridagi kabi ta'lim sifatini baholash, monitoring qilish bo'yicha salmoqli natijalarga erishganligi barchamizga ma'lum. Boshlang'ich ta'lim sifati odatda, maktab, tuman xalq ta'limi bo'limi va viloyat xalq ta'limi boshqarmasi monitoring bo'limi tomonidan muntazam nazorat qilib boriladi. Baholash ichki va tashqi shakllarda o'tkaziladi. Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari davlat test markazi tomonidan tashkil etiladi. Bizda hali respublika bo'yicha ta'lim sifatini baholashning yagona tizimi yo'lga qo'yilmagan. Yaqin kunlarda Milliy dastur loyihasi asosida milliy reyting yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan.

**Ikkinchi yondashuv** ta'limni rivojlantirish bo'yicha yangicha ko'rsatma va maqsadlar bilan bog'liq. Uning doirasiga baholashning yangi texnologiyalarini izlash, ya'ni, ijodiy, hissiy jihatdan o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishi, ehtiyojlar ko'lamidagi o'zgarishlar, xulq-atvori, olamga bo'lgan munosabatini baholashdan iborat. Bu ta'lim sifatini baholashning kam qo'llaniladigan usuli. Tabiiyki, uni o'tkazish va natijalarni umumlashtirish juda katta mablag'ni talab etadi. Boshlang'ich ta'lim sifatini baholashning yangicha yondashuvi hali ta'lim tizimida endi kirib kelmoqda. Bu baholashning an'anaviy baholashdan farqi shundaki, u ta'lim natijalari bilan emas, balki mazmuni bo'yicha tayanch va fanga oid kompetensiyalarni qo'llay olish ko'nikmasi bilan bog'liq.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyati tomonidan ta'lim sifatini baholovchi va monitoring qiluvchi qator dasturlar shakllangan. Bu dasturlarning ayrimlari:

1. TIMSS – (Trends International Mathematics and Science Study) – 4-va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholovchi xalqaro dastur (O'zbekiston 2023-yilda bu dasturga ishtirok etadi);
2. PIRLS – (The Progress in International Reading Literacy Study) – 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholovchi xalqaro dastur (2021-yil 5-14-aprelda O'zbekiston ilk marotaba ishtirok etdi, bunda 180 ta maktabning 6000 yaqin 4-sinf o'quvchisi qatnashdi);
3. PISA – (Programme for International Student Assessment) – 15 yoshli o'quvchilarning matnni tushunish, matematik va tabiiy fanlardan hayotiy ko'nikmalarni baholovchi xalqaro dastur;
4. EGRA – boshlang'ich 1-4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (AQSH dasturi);
5. EGMA – boshlang'ich 1-4-sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini baholash (AQSH dasturi);

Zamonaviy olimlarning xulosasiga ko'ra, maqsad – bitiruvchini emas, balki o'quvchining fan bo'yicha egallangan bilimlarini kichkina hayotida qo'llay oladigan, ravon nutqga ega shaxsni tarbiyalash. Ta'limni nazariyaga emas, amaliyotga yo'naltirish lozim. Nazariyaning quruq og'och bo'lib qolganligi, bilim va ko'nikmalarning amaliyotga yo'naltirilmaganligi hayotiy ko'nikmaning shakllanishida to'sqinlik qilmoqda. Albatta bugungi kichik maktab yoshidagi o'quvchilar katta nazariy bilim bazasiga ega, lekin biz ularda o'quv vaziyatlaridan tashqaridagi hayotga chiqish qobiliyatlarini rivojlantirishimiz kerak.

Monitoringlar shuni ko'rsatadiki, dunyo nazariy mavzudagi bilim va ko'nikmalarga emas, balki hayotiy ko'nikma va malakalariga asoslanadi, turli xil vaziyatlar, sharoitlarda muvaffaqiyatni ta'minlaydigan hayotiy kompetentsiyalarni rivojlantirishga ustunlik qaratiladi (nafaqat ta'lim, shaxsiy, o'z-o'zini tarbiyalash, hayotga moslashish). Baholashda ham aynan shu jihatlarga urg'u qaratiladi, ya'ni o'quvchining kompetentligi, ta'limning turli shakllaridan foydalana olishi, bir fan yo'nalishida egallangan bilimni boshqa fandagi amaliy muammoni yechishda (o'rtoqlari bilan hamkorlik qila olishi, kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kira olishi, jamoaviy ishlarda faol ishtirok etishi, o'z faoliyatini uyushtirishi) qo'llashini nazarda tutadi. Bu kabi ko'nikmalar asosan boshlang'ich sinflarda shakllantiriladi. Bu esa shu bosqichning qay darajada rejalashtirilishiga bog'liq, shu orqali keyingi ta'lim sifati va samaradorligi ta'minlanadi. O'quvchida hayotiy ko'nikmalar shakllanishi uchun butun ta'lim jarayonida uning o'zi ham faol bo'lishini unutmazlik lozim. Chunki, bir muloqot qilishni o'rganish uchun turli ko'rinishdagi nutq turlarini o'zlashtirish, tillarni o'rganish, o'z fikrini erkin bayon qilish, tushuntirish, tanqidiy fikrlash, turli vaziyatlarda tasavvur va tushunchasini yetkazish va hokazolar albatta o'quvchidan faollikni talab etadi.

YUNESKOning ta'limni rivojlantirish dasturi, ko'p davlatlarning milliy ta'lim tizimi, shu jumladan O'zbekiston ta'lim tizimining "sifat", "samaradorlik", "natijadorlik" darajasi zamon talablariga mos bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tgan. Bu esa aksar davlatlar mahalliy ta'lim tizimi talab darajasida emasligidan dalolat beradi. Shu asosda o'quvchiga sifatli ta'lim berish, har bir bolaning milliy ta'limda o'z yo'lini topishi uchun pedagogik shart-sharoitlar yaratish vazifasi belgilab qo'yildi.

YUNESKOning "Ta'lim hamma uchun" xalqaro dasturiga ko'ra boshlang'ich ta'lim samaradorligi va sifatini baholashda quyidagi ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga ega: bolalarni boshlang'ich ta'limga jalb etish; o'zlashtirishi ortda qolgan yoki sinfdan qoldirish xarakteridagi asoslarni aniqlash; bolaning ta'lim tizimidan chiqib ketish sabablari.

### **Boshlang'ich ta'limda samaradorlik va sifatning tushib ketishining asosiy sabablari**

XXI asrga kelib O'zbekiston Respublikasi boshlang'ich ta'lim tizimida juda ko'p o'zgarishlar amalga oshirildi. Yangiliklarning kiritilishi ta'lim sifatini xalqaro talablar darajasiga yetkazishdan iborat. Achinarli holat shuki, aksariyat boshlang'ich sinf o'qituvchilari bu o'zgarishlarga tayyor emasligi va ularga bu yangiliklarni o'zlashtirib olishlari uchun juda kam vaqt ajratilishidadir. Jumladan, o'quv dasturlarining tez-tez o'zgartirilishi, 1999-yil, 2005-yil, 2010-yil, 2017-yil, 2021-yillarda ishlab chiqilgan dasturlarning mazmunidagi farqlar. So'nggi ikki yilda chiqarilgan dasturlar o'qituvchi qo'liga faqat elektron shaklda yetib keldi. Shu sabab o'qituvchilarning aksariyati bu o'quv dasturlarining mazmuni bilan umuman tanish emas. Faqat viloyat va tuman sho'ba yig'ilishlarida, seminarlarida ko'rsatilgan tavsiyalar bilan cheklanib qolingan.

Odatda dastur mazmuniga mos darsliklar ishlab chiqilishiga o'rganib qolganmiz, aslida ham o'zi shunday bo'lishi kerak: DTS=>o'quv dasturi=>darslik. Bu tizim buzilsa, ta'lim sifati izdan chiqib ketishi hech gap emas. Ammo keyingi yillarda ishlab chiqilgan dastur va darsliklarda juda ham ko'p qarama-qarshiliklar, nomutanosibliklar kuzatilmoqda. Boshlang'ich ta'lim jarayoni ilg'or mamlakatlarning ta'lim tizimidan andoza olishga harakat qilsa-da, afsuski bu tizim ayni damda eklektizm holatida. *Eklektizm, eklektika (yunoncha: — tanlovchi) — turli xil, hatto bir-biriga qarama-qarshi qarash, g'oya, nazariyalarning "eng yaxshisi"ni tanlab olishga intilish.* Darsliklarining muntazam o'zgarib turishi, ularning belgilangan talablarga javob bermasligi, yangi darsliklarning o'quv jarayoniga vaqtida yetkazilmasligi o'z-o'zidan ta'lim sifatiga salbiy ta'sir qiladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga quyidagi omillar sabab tashqi bosim tobora kuchayib bormoqda:

1. Oilalardagi o'zgarishlar, farzand tarbiyasiga befarqlik, ota-onaning bola bilan kam muloqotda bo'lishi, o'quvchiga psixologik yordam berishda oilaning o'rnini yo'qligi;
2. Ommaviy axborot vositalarining yoshlar tarbiyasiga kuchli ta'siri shu darajaga yetdiki, hatto ular yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda maktab bilan raqobatlashmoqda
3. Davlat rivojlanishidagi keskin o'zgarishlar, aholining ijtimoiy vaziyatlarga moslasha olmasligi, noroziligi, (iqtisodiy inqirozlar jarayonida shaxs sifatida o'z o'rnini topa olmasligi) kattalar va bolalarning ijtimoiy himoyaga muhtojligi;

4. Iqtisodiy va ekologik inqirozlar tufayli ta'limga kam mablag' ajratilishi;
5. Demografik o'zgarishlar (aholi sonining oshib borishi, migratsiya, emigratsiya) ya'ni ko'p millatli va ko'p madaniyatli muhit va jamiyat tuzilishining o'zgarishi va hokazolar.

Bu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lomlik darajasini ham inobatga olish zarur. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi sog'lom bo'lsagina ta'lim sifati yuqori bo'ladi. To'g'ri, 1-sinfga qabul jarayonida ularning sog'ligi to'g'risidagi ma'lumotnoma beriladi, ammo bu ma'lumotnoma shunchaki, rasmiyatchilik uchun xizmat qiladi. O'quvchining jismoniy va aqliy rivojlanishidagi nuqsonlar, o'quv jarayonida yaqqol kuzatiladi. Natijada o'quvchilar fanlarni o'zlashtirishda turli qiyinchiliklarga duch keladi. Yurtimizda o'quvchining sog'lomlik darajasini tizimli aniqlaydigan va baholaydigan biror tashkilot mavjud emas, mavjudlari ham ma'lum doirani qamrab oladi xolos. Bizningcha, bu sohani qayta ko'rib chiqib, tubdan isloh qilish zarur. Axir sog'lom bola – sifatli ta'lim kafolati.

Ta'lim – bolalar va yoshlarning bugungi avlodini kelajak uchun tayyorlaydigan asosiy sohalardan biri. Sog'liqni saqlash xizmati sifatini yaxshilash inson kapitalini rivojlantirishning yana bir muhim vazifasi hisoblanadi. Bolalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish – bolaning o'z salohiyatini to'liq amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlarni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. [5.25]

Ta'lim muassasalarida o'quvchilar kuniga 8-10 soatgacha dars mashg'ulotini bajarishga majbur. Ayniqsa, ixtisoslashtirilgan maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari kuniga 10 soatgacha dars mashg'uloti va qo'shimcha topshiriqlarni bajarish bilan shug'ullanadi. Bu holat ularning nafaqat aqliy, balki sog'ligiga ham salbiy ta'sir etadi.

Shu vaziyatda, o'quvchilarning maktabga tayyorgarlik jarayonini ham inobatga olish zarur. Bu bolaning maktabga kelguniga qadar ilk ta'lim-tarbiyasi bilan kim shug'ullanishiga bog'liq. Ammo olti yoshli bola ta'lim tizimiga qay darajada tayyor? Uning sog'ligichi? Respublika miqyosida tahlil qilinganda, Qoraqalpog'iston, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridagi ahvol ancha ayanchli. Afsuski, bu hududlardagi bolalar soni boshqa viloyatlarga nisbatan juda ko'p.

Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchi sog'lig'idagi og'ishlar mashg'ulot yukining hajmi va intensivligiga bog'liq. So'nggi yillarda shaharlarning yangi tipdagi maktab o'quvchilarida (80% gacha) nevrotizmning kuchayishi kuzatilmoqda. Boshlang'ich sinflarda haqiqiy o'quv yuki kuniga 6 soatdan 7 soatgacha, uy vazifasini tayyorlash bilan birga 9 soatdan ortiq vaqtni tashkil etadi.

E'tibor bering, OAVda e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, bolalarning 30 foizi maktabga borishni istamaydi, 40 foizi o'qishdan qoniqmaydi, atigi 20 foiz o'quvchi maktabga borishdan xursand. Ota-onalarning 70 foizi maktab o'qituvchilarining kasbiy va shaxsiy xususiyati haqida yetarlicha ma'lumotga ega emas.

Shunday qilib, bugungi kunda biz o'quvchining haqiqiy ehtiyoji va taqdim etilayotgan ta'lim xizmatlari o'rtasidagi tafovutni kuzatmoqdamiz. Yuqorida sanab o'tilgan muammolarni bartaraf etish uchun boshlang'ich ta'lim tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirib borish zarur.

### **Buning uchun esa ...**

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi (2020) Qonuni va YUNESKOning "Ta'lim hamma uchun" dasturi (2000) ta'lim sifatini oshirishning muhim xususiyatlarni belgilab berdi:

1. O'quvchining yosh xususiyatlari (salomatligi, o'qishga bo'lgan motivatsiyasi);
2. O'quvchining bilim olishda erishgan natijalari, jumladan, bilim, ko'nikma, shaxsiy mavqeyi va jamiyat hayotidagi ishtiroki hamda milliy ta'lim maqsadlari bilan bog'liq natijalarning uyg'unligi;
3. Pedagogik jarayonning o'ziga xosligi, bunda bola manfaati va ehtiyoji birinchi o'rinda turadi, ta'lim samaradorligini ta'minlaydigan o'quv sharoitlari yaratish;
4. Ta'lim mazmuni xarakteri (jamiyat tomonidan belgilangan vakolatlar doirasiga mos keladigan adekvat o'quv rejalari va dasturlar yaratish);
5. Har bir bola uchun zarur resurs va shart-sharoitlarni ta'minlaydigan ta'lim jarayoni va muhitining xususiyatlari (ekologik tozaligi, xavfsizligi, qulayligi, soddaligi, izchilligi).

Boshlang'ich ta'lim tizimiga ta'sir etuvchi eng muhim subyektiv omil pedagogik jamoa hisoblanadi. Ta'limning har bir o'quvchiga yo'naltirilganligi, sifati va samaradorligi bevosita har bir o'qituvchining sa'y-harakati va kasbiy mahorati bilan belgilanadi.

Boshlang'ich ta'limning yangi sifatga yo'naltirilganligi o'qituvchining kasbiy faoliyati mazmuniga quyidagi yangi talablarni qo'yadi:

- bolaning hayotiy tajribasini rivojlantirish va atrofini o'rab turgan olamdan o'rganish tajribasini o'zlashtirish, shuningdek, uning faolligi, ijodkorligi va mas'uliyatini namoyon etishi uchun sharoit yaratish;

- uzluksiz ta'limga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish;
- ta'lim berishda bola individualligiga tayanish;
- o'qituvchining tashabbuskorligi, ijodkorligi va kasbiy madaniyati.

Zamonaviy ta'limda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchining bilim olishiga yordam berishdir. U turli darajadagi va turdagi resurslarning kombinatsiyasi bo'lgan ochiq ta'lim muhitidan foydalangan holda amalga oshiriladi. O'qituvchi o'quvchi yoki butun sinf jamoasi uchun ta'lim muhitini tashkil etadi va bilish imkoniyatlarini tanlash uchun sharoit yaratadi. Fasilitatsiya funksiyasi boshqa yo'llar bilan ham amalga oshiriladi. Bunda yangi usulda ishlab chiqilgan ta'lim mazmunini tanlash (o'quvchi mustaqil ravishda bajara oladigan o'quv materialidan foydalanish), bilimlarni fanlararo integratsiyalashuvi va o'quvchining ilmiy-amaliy manbalardan olgan yashirin tajribasiga tayanish kiradi.

Boshqacha qilib aytganda, ilg'or zamonaviy ta'lim texnologiyalari (loyiha, tadqiqot, reflektiv ta'lim, axborot va kommunikatsiya)dan foydalanishdir. Bu jihatlarni yo'lga qo'yishda pedagogga axborot olami, ijtimoiy muhit, shaxsiy va kasbiy sifatlar yordam beradi. Har bir dars mashg'uloti o'quvchida amaliy ko'nikmani shakllantirishga yo'naltiriladi. Natijada o'quvchining hayotiy muammolarni yecha olish qobiliyati rivojlantiriladi.

Ilg'or ta'lim texnologiyalari muvofiqlashtiruvchi, tashkilotchi, yordamchi, maslahatchi bo'lgan – o'qituvchining kasbiy faoliyati doirasini kengaytiradi, u psixolog, ijtimoiy pedagog, qo'shimcha ta'lim beruvchi, metodist, mutaxassislar, shuningdek olimlar bilan hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yadi. Ular nafaqat o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi, balki o'qituvchi va ta'lim jarayonining barcha subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning uzluksizligini ta'minlaydi.

O'quvchining ta'limdagi erishgan yutuqlarini qayd etish va baholash usuli ham yuqoridagi funktsiyaning amalga oshishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan baholash tizimi o'quvchining o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatini aniqlaydigan va qayd etadigan mezon hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim yutuqlarini qayd etish usullari o'z-o'zini baholashga asoslanadi.

O'quvchining ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlash, uni rag'batlantirish asosan quyidagilarga bog'liq:

- o'qituvchining subyektiv pozitsiyasini mustahkamlash;
- uning yuqori darajadagi mobilligi va moslashuvchanligi;
- boshqaruv qobiliyatini rivojlantirish;
- ta'lim sifati va natijasi uchun mas'uliyatni oshirish;
- kasbiy va shaxsiy rivojlanish;
- kasbiy motivatsiya, uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirib borish.

Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish ta'limni isloh qilishning asosiy bo'g'inidir, chunki u kelajakda shaxsning butun hayot yo'lida ijodiy o'zini o'zi rivojlantirish vektorini belgilaydi. Yuqoridagilarni amalga oshirishda Milliy o'quv dasturi loyihasi va "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi"ni qayta ishlab chiqishga olib keldi. Ushbu hujjatlar insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Boshlang'ich ta'lim tizimi muvaffaqiyatining asosiy ko'rsatkichi bolaning ruhiy holati, ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqi va xohishida kuzatiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ўзбекистондаги болалар вазиятининг таҳлили. 2019-2020. UNICEF таҳлиллар, ҳисоботлар, тавсиялар. UNICEF 2020 Бирлашган Миллатлар ташкилоти Болалар Фонди томонидан нашр этилган. Тошкент.
2. Delors J. Ta'lim – sirli xazina//YUNESKOning XXI asrda ta'lim bo'yicha xalqaro komissiyasi materiallari. - Belgrad, 1996-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori.
4. Boshlang'ich ta'lim fanlari o'quv dasturi. Xalq ta'limi vazirligining 2017-yil, 3-iyundagi 190-sonli buyrug'i.
5. Семенович А.В. Нейропсихологическая коррекция в детском возрасте. – 2-е изд. – М.: Генезис. 2008.
6. UNESCO World Education Report, Education for All. – UNESCO, 2000.
7. Котова С.А., Граничина О.А., Савинова Л.Ю. Начальное образование в контексте программы ЮНЕСКО "Образование для всех", 2007.

## MONITORING TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNING VOSITASI SIFATIDA

**Abdullayev Farrux Rustam o'g'li,**

*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim sifati monitoringi, uning turlari, tashkil etish usullari, monitoring jarayonini avtomatlashtirishning afzalliklari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Monitoring natijalarini tahlil qilish va boshqaruv faoliyatida undan foydalanishga oid tavsiyalar o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** ta'lim sifati, ta'lim sifatini baholash, test, so'rov usuli, boshqaruv modeli, avtomatlashtirish.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о мониторинге качества образования, его видах и преимуществах автоматизации процесса мониторинга. Сделан анализ результатов мониторинга и даны рекомендации по его использованию в управленческой деятельности.

**Ключевые слова.** Качество образования, оценка качества образования, тест, метод опроса, модель управления, автоматизация.

**Abstract.** This article provides information about monitoring the quality of education, its types and the benefits of automating the monitoring process. An analysis of monitoring results is made and recommendations are given for its use in management activities.

**Keywords.** Education quality, education quality assessment, test, survey method, management model, automation.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimi modernizatsiya qilinmoqda, maktablarga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda: ta'lim sifatini oshirish, yangi axborot texnologiyalarini joriy etish va yangi ta'lim standartlari, xususan, "Milliy o'quv dasturi"ni amaliyotga joriy etish ishlari olib borilmoqda. Zamonaviy pedagogika fani va amaliyoti oldida maktab haqida ma'lumot to'plashning an'anaviy usullaridan ta'lim tizimining holatini uzoq muddatli tizimli monitoringini o'z ichiga oluvchi pedagogik monitoringga o'tish vazifasi turibdi.

Ta'lim sifatini baholash masalasiga katta e'tibor berilmoqda, u pedagogik kengashlarda, turli anjumanlarda muhokama qilinib, baholash bo'yicha pedagogik adabiyotlar chop etilmoqda e'tibor qaratilmoqda.

Butun dunyoda ta'lim sifati insonning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti, davlatning nufuzini oshirishning hal qiluvchi omili sifatida e'tirof etilmoqda.

Ta'lim sifati pedagogik tavsiflashda ikkita yondashuv eng keng tarqalgan: falsafiy va boshqaruv. Birinchisiga ko'ra, ta'lim sifati – “o'qitish, ta'lim olish va shaxsiy rivojlanish muammolarini hal qilish imkonini beradigan uning xususiyatlarining kombinatsiyasi”.

Ikkinchi yondashuvga ko'ra, ta'lim sifati – “maqsad va natija nisbati”, “maqsadga erishish mezon”, “ta'limiy natijalar javob berishi kerak bo'lgan me'yoriy daraja”, ta'lim natijalarining standartlar, iste'molchilarning kutuvlari va talablarini qondirish darajasi.

Maktabda ta'lim sifati qanday baholash mumkin? Muammo nafaqat murakkab, balki zamonaviy sharoitda u yanada qiyinlashadi. Buning sababi shundaki, ko'p yillardan beri maktabda baholash tizimi o'qituvchining o'zi qo'lga berilgan: u o'zi ishlab chiqadi va tekshiradi.

Bugungi kunda bizga nafaqat ta'lim faoliyatini boshqarishni, balki ta'lim faoliyati sifati ham aniq aks ettiradigan boshqaruv modeli kerak. Davlat va jamiyatning standartlarda ifodalangan talablari mavjud. Shu munosabat bilan oldimizda ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim natijalari to'g'risida obyektiv axborot olish tizimini yaratish (shu jumladan mezonlar, tartiblar va baholash texnologiyalari majmuyini belgilash, pedagogik monitoringni tashkil etish va undan ajralmas vosita sifatida foydalanish) vazifasi qo'yilgan.

Bu yo'lda ko'p ishlar qilinmoqda, davlat ta'lim standartlari ijtimoiy zaruriy standart/talablar sifatida takomillashtirilmoqda, turli darajadagi ta'lim sifati mezonlari va ko'rsatkichlari ishlab chiqilmoqda, tegishli tashkilotlar va tadqiqotchilar tomonidan ta'lim muassasalarida pedagogik monitoringni tashkil etish bo'yicha tajribalar o'rganilmoqda.

Monitoring maqsadi: ta'lim muassasasi faoliyati sohasida sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlarni o'z vaqtida va tezkor aniqlash.


Ushbu ta'rifning uchta asosiy jihati mavjud:

1. Bu ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va tarqatish tizimi.
2. Ta'lim jarayonini boshqarishni axborot bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan tizim.
3. Monitoring ma'lumotlari istalgan vaqtda kuzatuv obyektining holati

1. to'g'risida oqilona xulosalar chiqarish va uning rivojlanishini bashorat qilish imkonini beruvchi mexanizm.

Monitoring subyektlari o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari hisoblanadi. Ularning ishtirok etish darajasi har xil, lekin ularning barchasidan (ham o'qituvchilar, ham o'quvchilar, ham ota-onalar, ham jamoatchilik) ma'lumot olinadi, tahlil qilinadi. Ta'lim jarayoni va uning natijalari, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining shaxsiy xususiyatlari, ularning ehtiyojlari va ta'lim muassasasiga munosabati monitoring obyektlari hisoblanadi.

Monitoring davomida to'plangan ma'lumotlar o'qituvchi yoki rahbarga tegishli ta'lim yoki boshqaruv modelini tanlash uchun zarur va yetarli ma'lumotlarni taqdim etadi. Ta'lim jarayonida maqsaddan kelib chiqqan holatda quyidagi monitoring turlaridan foydalaniladi(1-rasm):



1-rasm. Monitoring turlari

Ta'lim sifati monitoringini quyidagi usullardan foydalanib o'tkazish mumkin:


a) so'rov usuli - standart maxsus tanlangan savollarga yozma yoki og'zaki javoblarni tahlil qilish, bu usul o'quv jarayoni subyektlarining rivojlanishi haqida ma'lumot olish imkonini beradi;

b) o'quv faoliyati natijalarini tahlil qilish - bir vaqtning o'zida o'quvchilarning yozma va ijodiy ishlari, grafik materiallari oldindan belgilangan sxema bo'yicha o'rganiladi;

c) test - pedagogik jarayonlarning rivojlanish darajasi va ta'lim subyektlarining aqliy rivojlanish darajasi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashning obyektiv usullaridan biri. Sinovni me'yorga yo'naltirish test yordamida olingan ballarni solishtirish, taqqoslash imkonini beradi. Bu monitoring usullarining barchasi maktablarda keng qo'llash mumkin.

Agar ta'lim sifatini baholashda ta'lim samaradorligini tekshirishning samarali texnologiyalari va usullarini ishlab chiqilsa, monitoring natijalar asosida ta'lim sifatini boshqarish masalasi osonlashadi, sifat darajadan yuqori bosqichga ko'tariladi. Albatta, ta'lim sifatini baholashda quyidagilar o'rganilishi kerak: sharoit, o'quv jarayoni va uning natijalari.

Monitoring jarayonida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, qayta ishlash va taqdim etish ham muhim masala hisoblanadi. Monitoring jarayonini imkon qadar avtomatlashtirilgan tizimda o'tkazish bu masalani obyektivroq bo'lishiga va vaqtdan yutilishiga olib kelinadi. Bunday holatda o'qituvchilar, sinf rahbarlari va metodbirlashma rahbarlaridan olingan ma'lumotlar osongina tartiblanadi va saralanadi (2-rasm).



2-rasm. Monitoring jarayonini avtomatlashtirish

Yuqoridagi grafikdan ko'rinib turibdiki, monitoring jarayonini avtomatlashtirishning bir qancha afzallik tomonlari mavjud.

Ta'lim sifati monitoringi bir vaqtning o'zida o'qituvchilarning kasbiy mahoratining diagnostikasi hisoblanadi. Monitoring jarayonida o'qituvchining ta'lim faoliyati natijalari to'g'risida keng diagnostik ma'lumotlar olinadi. O'qituvchilar to'g'risida olingan ma'lumotlar o'qituvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish haqida qo'shimcha ma'lumot sifatida ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, muassasa tomonidan yakuniy ma'lumotlar, olingan natijalar, tahlillarni tushuntirish bo'yicha pedagogik kengash muhokamalari, uslubiy uchrashuvlar, sinf rahbarlari bilan va o'quvchilar bilan individual ishlash tadbirlarini amalga oshirish lozim. Ta'lim sifatini baholash tizimida monitoringni maktab boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri deb hisoblash, monitoring jarayonini o'tkazishning xolisligiga alohida e'tibor qaratish, pedagogik kengash va metod birlashmalar tahlilining yagona sxemasini ishlab chiqish, monitoring tadqiqotlari natijalarini qiyosiy tahlil etish, natijalardan fan o'qituvchilari bilan tabaqalashtirilgan ishlarni tashkil etishda foydalanish, fan o'qituvchilari monitoring natijalaridan o'qitishni tashkil etishda foydalanishlariga erishishga asosiy e'tiborni qaratishni tavsiya etamiz.

Xulosa shuki, ta'lim sifatini yakuniy baholashda monitoringning o'rni katta, lekin shuni yodda tutishimiz kerakki, jarayonga qanchalik xolis baho bersak, u yoki bu test ishiga qanchalik mas'uliyat bilan yondashsak, erishilgan natija shunchalik obyektiv bo'ladi. Bu natijalar esa ta'lim muassasasini samarali boshqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday holda, faqat o'quvchi va ta'lim yutadi, zero maqsadimiz ham shundan iborat.

### Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. Башарина Л.А. Мониторинг учебного процесса в средней школе//Завуч. 2001. №5. С.42-50.
2. Быкова В.Г. Мониторинг в образовательном учреждении//Завуч. 2004. №6. С.87-106.
3. Дереклеева Н. Оценка результатов воспитательной работы//Воспитательная работа в школе. 2005. – №6. – С.103-112.
4. Елисеев В.В. Мониторинг результатов работы школы и условий, обеспечивающих их достижение//Завуч. 2003. №4. С.44-65.
5. Беспалько В.М. Мониторинг качества обучения - средство управления образованием. - М., 1996
6. Вовна В.И., Короченцев В.В. и др. Мониторинг качества обучения как важнейший инструмент управления образованием // Инновации в образовании, 2005, № 5



## TA'LIM SIFATI VA UNI BOSHQARISH

**Abdullayev Farrux Rustam o'g'li,**

*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim sifatini boshqarish, boshqaruv obyekti va subyekti, PDCA boshqaruv sikli va uni qo'llashga doir ma'lumotlar keltirilgan. Ta'lim sifatini boshqarish jarayoni va ta'lim sifatini boshqarish modellari ishlab chiqilgan, tushuntirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Global maqsadlar, sifatli ta'lim, ta'lim sifatini boshqarish, PDCA sikli, boshqaruv subyekti va obyekti.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация об управлении качеством образования, объекте и субъекте управления, цикле управления PDCA и его применении. Процесс управления качеством образования и модели управления качеством образования были разработаны и объяснены.

**Ключевые слова.** Глобальные цели, качественное образование, управление качеством образования, цикл PDCA, субъект и объект управления.

**Abstract.** This article provides information on educational quality management, management object and subject, PDCA management cycle and its application. The educational quality management process and educational quality management models have been developed and explained.

**Keywords.** Global goals, quality education, quality management of education, PDCA cycle, subject and object of management.


Biz hammamiz bilamizki, bugungi dunyoda biz katta muammolarga duch kelmoqdamiz: qashshoqlik, ochlik, tengsizlik va iqlim o'zgarishi, bular biz zudlik bilan hal qilishimiz kerak bo'lgan muammolarning faqat bir qismidir. Katta muammolar ularni yengish uchun dadil harakat talab qiladi va bunda Global maqsadlar paydo bo'ladi. Global maqsadlar dunyo yetakchilari tomonidan kelishilgan 2030-yilgacha yanada yaxshi va adolatliroq dunyoni barpo etish bo'yicha rejalaridir va ularga erishishda barchamizning o'rnimiz bor [1]. Ana shu Global maqsadlarning to'rtinchisi – sifatli ta'lim. Qachon biz sifatli ta'limga erishamiz? Javob oddiy ta'limni tashkil etuvchi komponentlarni har biri bo'yicha sifat darajasini ta'minlay olsak

shunda biz butun tizimni sifatini kafolatlagan bo'lamiz. Ta'lim sifati o'zi nima? U qanday boshqariladi? Umuman olganda ta'lim sifatini boshqarish deganda nimani tushunishimiz kerak? Quyida shu kabi savollarga bir nechta mulohazalarimizni keltirib o'tamiz. Buning uchun har bir so'zga alohida e'tibor qaratamiz.

Ta'lim - bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi [2, 178].

Sifat – obyektning muhim belgilarini ifodalaydigan falsafiy tushuncha. Sifat obyekt tarkibiy qismlarining o'zaro turg'un munosabatlarini aks ettiradi, bu munosabatlar bir obyektning ikkinchi obyektidan ajratib turadigan o'ziga xos tomonlarini anglatadi. Shu bilan birga sifat bir turdagi obyektlarga xos umumiylikni ham ifodalaydi [2, 429].

Boshqarish – obyektning holatini tartibga solish va yo'naltirish jarayoni, ularning faoliyatini yo'naltirish va ko'zlangan natijalarga erishish maqsadlarida amalga oshiriladigan jarayon. "Ta'lim", "sifat" va "boshqaruv" so'zlarini qisqacha ta'riflarini ko'rdik. Pedagogika va ta'limda menejment yo'nalishlarini tadqiqotlar olib borgan bir qator olimlar "Ta'lim sifatini boshqarish" atamasiga o'zlarining ta'riflarini berib o'tgan. Sh.Qurbonov, E.Seytxalilovlarning "Ta'lim sifatini boshqarish" nomli qo'llanmasida "ta'lim sifatini boshqarish – "boshqaruv subyekti" tomonidan ta'lim sohasidagi barcha obyektlar va jarayonlarga nisbatan ta'lim sifatining shakllanishi va rivojlanishini ta'minlash jarayonlariga ta'sir ko'rsatish hamda ta'riflangan maqsadlar, me'yorlar va standartlarga muvofiq ravishda ularga qayta aloqa (nazorat qilish, baholash va tahlil qilish) tadbirlarini tashkil qilib berish" - deya ta'rif berilgan. Ta'lim sifatini boshqarish ta'limni boshqarish umumiy tuzilmasining bir qismidir. Rivojlangan Yevropa mamlakatlarida (shu jumladan Rossiya va MDH mamlakatlarida) ta'lim sifatini boshqarish tizimlarini joriy yetish bo'yicha amaliy tajriba sifat menejmentining asosiy bosqichlarini aniqlashga imkon beradi va bunda PDCA metodologiyasidan (siklidan) foydalanadi (1-rasm):



PDCA metodologiyasi boshqaruvchining jarayonni boshqarish va maqsadlariga erishish bo'yicha harakatlarining algoritmi bo'lib, quyidagilardan iborat [3]:


**1) rejalashtirish (plan)** – maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan maqsadlar va jarayonlarni belgilash, maqsadlariga erishish va iste'molchi talabini qondirish uchun ishlarni rejalashtirish, zarur resurslarni taqsimlash;

**2) bajarish (do)** – rejalashtirilgan ishlarning bajarilishi;

**3) tekshirishlar (check)** – jarayonni amalga oshirish jarayonida olingan asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari asosida ma'lumot to'plash va natijani kuzatish, og'ishlarni aniqlash va tahlil qilish, og'ish sabablarini aniqlash. Tekshirish bosqichida bajarilish bosqichida to'plangan ma'lumotlar va natijalar baholanadi. O'xshashlik va farqlarni ko'rish uchun ma'lumotlar kutilgan natijalar bilan taqqoslanadi. PDCA sikli bir necha marta o'tkazilsa, har qanday tendensiyalarni ko'rishni osonlashtirishi mumkin. Bu qaysi o'zgarishlar boshqalarga qaraganda yaxshiroq ishlashini ko'rishga yordam beradi.


**4) ta'sir qilish, sozlash (act)** – rejalashtirilgan natijadan chetga chiqishlar, resurslarni taqsimlashdagi o'zgarishlar sabablarini bartaraf etish choralarini ko'rish.

Shunday qilib, ta'lim sifatini boshqarish o'zaro bir-biriga bog'liq elementlardan tashkil topgan uzluksiz yopiq jarayondir (2-rasm) [4].



Bundan ko'rish mumkin-ki, ta'lim sifatini boshqarishda agar u ta'lim muassasasi darajasida bo'lsa, boshqaruvchi tomonidan ishlar loyihalashtiriladi va rejalashtiriladi, so'ngra sifatni boshqarish jarayoni amalga oshiriladi, monitoring jarayoni orqali rejalashtirilgan natijalar tekshiriladi, kamchiliklar aniqlanadi va korreksiya ishlari amalga oshiriladi. Shu siklik jarayon muntazam ravishda yangi bosqichda takrorlanadi.

Yuqoridagi kelib chiqib ta'lim sifatini boshqarish modelini quyidagicha ko'rinishda ifodalash mumkin (3-rasm):



Ushbu model ta'lim sifatini boshqarishning eng asosiy va o'zgarmas qismlarini qamrab olganligini ko'rishimiz mumkin. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim sifatini boshqarish boshqaruv subyektining boshqaruv obyekti/jarayonlariga ta'sirini belgilaydigan, natijalar samarasini baholash orqali qayta aloqani ta'minlovchi faoliyat hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek barqaror rivojlanish (Global) maqsadlarining to'rtinchi sifatli ta'lim ekan, ta'lim sifatini boshqarishda o'quv sharoiti, o'quv jarayonlari, o'quv natijalar va muhitni yaxshilashga, umuman olganda ta'lim sifatini boshqarish masalasiga alohida e'tibor qaratish zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "The Global Goals", <https://www.globalgoals.org/goals/>
2. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent
3. PDCA cycle/Deming circle <https://en.wikipedia.org/wiki/PDCA>
4. "Управление качеством образования современной школы". Ставрополь-2012

## YOSHLARNING SPORT HAQIDAGI FIKRINI ANIQLASH BO'YICHA IJTIMOIIY TADQIQOT

**Hamida Valiyeva,**

*Toshkent shahridagi "MEI" milliy tadqiqot universiteti"*

*federal davlat budjeti oliy ta'lim muassasasi filiali assistenti*

**Annotatsiya.** Maqolada yoshlarning sportga munosabatini aniqlash maqsadida o'tkazilgan so'rov natijalari, sport turlari, mashg'ulotlarning qanchalik ko'p o'tkazilishi va mashg'ulotlar joylari, sog'lom turmush tarziga munosabatini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot ishi natijalari keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** sotsiologik tadqiqot, so'rov, yoshlar, sport, turmush tarzi.

**Abstract.** The article presents the results of a survey conducted in order to determine the attitude of young people to sports, the results of a research conducted to determine the types of sports, the frequency of training and the places of training, and the attitude to a healthy lifestyle.

**Key words:** sociological research, survey, youth, sport, lifestyle.

**Аннотация.** В статье представлены результаты опроса, проведенного с целью определения отношения молодежи к спорту, результаты исследования, проведенного для определения видов спорта, частоты занятий и мест занятий, отношения к здоровому образу жизни. образ жизни.

**Ключевые слова:** социологическое исследование, опрос, молодежь, спорт, образ жизни.

**Kirish.** Sport - bu odam faoliyatining keng ma'nodagi tushunchasidir. U jamiyatning uzoq tarixidan ma'lum bo'lib, jamoalar, guruhlar o'rtasidagi bellashuvlarda shakllanib, odam organizmi faoliyatining, qobiliyatining eng yuqori pog'onasini namoyon qilish bilan ifodalanadi.[1]

Sport - bu millatning o'zligini anglashda, uning aniq maqsadlar sari jipslashuvi va birlashuvida, o'zidagi bor salohiyatini hamda qudratini jahon uzra namoyon bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, mamlakat sportini rivojlantirish dolzarb va nihoyatda muhim masaladir. Zero, jismonan baquvvat va sog'lom millat qudratli bo'ladi, uning davlati har tomonlama mustahkam bo'lib, buyuk taraqqiyot sari rivojlanib boradi.

Mustaqil davlatimizning ertangi kuni, uning gullab-yashnashi va rivojlanishi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan avlodning sog'lom bo'lishiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida Vatanimizning kelajagi - farzandlarimizning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo etadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).**

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tadqiqotiga ko'ra, jismoniy salomatlik insonning umumiy rivojlanishi va hayotining asosidir. Jismoniy faollik salomatlikda muhim rol o'ynaydi va boshqalar qatorida yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olishga yordam beradi. Shuningdek, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, jismoniy faollikning yetarli emasligi dunyodagi o'limning ko'rsatkichining asosiy sabablaridan biri yurak-qon tomir, saraton va diabet kabi kasalliklarning rivojlanishi hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi har to'rtinchi odam yetarli darajada jismoniy faol emas va butun dunyo bo'ylab o'smirlarning 80% dan ortig'i jismoniy faoliyatning yetishmasligini boshdan kechirmoqda.


### **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).**

Ushbu ijtimoiy tadqiqotning maqsadi talaba yoshlarning sportga bo'lgan munosabatini ochib berishdir. Qo'yilgan vazifalar: TDTU, Muhandislik fakultetining 1-kurs 50 nafar talaba yoshlar orasida so'rovnoma shaklida so'rov o'tkazish; natijalarni diagramma shaklida ko'rsatish, xulosa chiqarish. Respondentlarning 62% erkaklar; 38% ayollar. Bundan xulosa qilish mumkinki, erkaklar ko'proq sport va sport seksiyalariga qiziqishadi. So'rov shuni ko'rsatdiki, sportga qiziquvchilarning asosiy qismini 13-23 yoshli yoshlar tashkil etadi.

### **Tahlil va natijalar (Analysis and results).**


Tadqiqot ishi natijasida respondentlarning o'rtacha 19-26 yosh ekanligi aniqlandi.

*Sizning yoshingiz?*




Tadqiqot ishida qatnashgan respondentlarning aksariyati erkaklar 62% va 38% ayollar ekanligi aniqlandi. Xulosa qilib aytish mumkinki, erkaklar sport va jismoniy faollik bilan ayollarga qaraganda ko'proq shug'ullanadilar.

*Sizning jinsingiz?*




Aksariyat (respondentlarning 84 %) sport bilan shug'ullanadi; 16% esa umuman shug'ullanmaydi. Respondentlarning 42% ota-onalari ularga sport bilan shug'ullanishni taklif qilishganini tasdiqladi; 36% do'stlariga qiziqib shug'ullanishadi; 20% hamkasblariga qiziqib sport bilan shug'ullanadi; Respondentlarning 2 % umuman sport bilan shug'ullanmaydi.

*Qaysi sport turi bilan shug'ullanasiz?*



Respondentlar orasida eng ommabop sport turi bu 48% futbol; keyingi o'rinda 12% basketbol; 18% suzish; 11% voleybol; 9% yugurish; 2% raqs san'atiga ovoz berdilar.


*Haftasiga necha marta sport bilan shug'ullanasiz?*




Yoshlarning 36 % haftasiga 1-2 marta sport bilan shug'ullanadi; 26% haftasiga 5-6 marta mashq qilishni afzal ko'radi; Respondentlarning 22% haftasiga 3-4 marta mashq qiladi; 10% har kuni mashq qilishni afzal ko'radi, 6% esa umuman mashq qilmaydi.

Yoshlarni sport bilan shug'ullanishlari maqsadlarini o'rganishda quyidagilar aniqlandi: respondentlarning 38% mukammal jismoniy baqquvat ko'rinishga ega bo'lish uchun sport bilan shug'ullanadi; 22% bo'sh vaqtlarini o'tkazishga harakat qiladi; 16% - yaxshi kayfiyat uchun; 10% sportda immunitetning oshishini ko'radi, shuningdek, 10% tanishlar doirasini shu tarzda kengaytiradi; 4% sportdan yaxshi martaba olishni xohlaydi.

*Sport sizga nima beradi?*



Ertalabki badantarbiya bilan shug'ullanasizmi degan savolga respondentlarning 64% -ha, 22% -ba'zida va 14% -yo'q deb javob berdilar.



### **Xulosalar va tavsiyalar (Conclusion/Recommendations).**

Sport va jismoniy faollikni turmush tarzining bir qismi deb hisoblamaydigan yoshlar borligiga qaramay, sport bilan faol shug'ullanadiganlarning soni ko'p ekanligi aniqlandi. O'tkazilgan ijtimoiy tadqiqot natijalariga ko'ra, eng ommabop sport turi basketbol ekanligi, sport bilan faol shug'ullanayotganlarning aksariyati erkaklar ekanligi, faol hayot tarzi bilan shug'ullanuvchilarning yoshi, asosan, 19-26 yosh ekanligi ma'lum bo'ldi. Respondentlarning ko'pchiligi uchun sport sevimli mashg'ulot ekanligi, ammo sport bilan shug'ullanishlari uchun vaqt, mablag' va sharoit yetishmasligini ko'rsatganlar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Агаев Н.Ф.О., Челнокова Е.А., Житникова Н.Е. Физическая культура как фактор формирования культуры здоровья у студентов // Проблемы современного педагогического образования. 2018. № 58-2. С. 8-11.
2. Белоусова К.В., Булганина С.В. Развитие фитнес-туризма и его продвижение в интернете // В сборнике: Индустрия туризма и сервиса: состояние, проблемы, эффективность, инновации. сборник статей по материалам V Международной научнопрактической конференции. Нижегородский государственный педагогический университет имени Козьмы Минина. 2018. С. 7-11.
3. Лукина Е.В., Уткина Е.О., Булганина С.В. Маркетинговое исследование критериев выбора секции по волейболу потребителями Нижнего Новгорода // Наука Красноярья. 2020. Т. 9. № 4-4. С. 174-178. 9.
4. Уткина Е.О., Лабазова А.В., Белоусова К.В., Булганина С.В. Исследование спроса на услуги фитнес-центра // Наука Красноярья. 2020. Т. 9. № 3-2. С. 133-137.
5. Фролова Н.В., Разоренов В.А. Специфика физической подготовки студентовбаскетболистов и методы оценки их физического развития // Современный ученый. 2017. Т. 1. № 1. С. 106-109. 11.
6. Челнокова Е.А., Лукина Е.В., Терехина А.Е. Формирование здоровьесберегающих компетенций студентов высшей школы в области физической культуры // Проблемы современного педагогического образования. 2018. № 61-2. С. 232-235.
7. <http://arm.sies.uz/wp-content/uploads/2020/11/18-y-Jismoniy-tarbiya-oquv-qollanma-A.N.Normurodov-T-2011y.pdf>

**PIRLS XALQARO TADQIQOTI DOIRASIDA O'QUVCHILARNING O'QISH  
SAVODXONLIGINI BAHOLASH HAMDA SINOV MATERIALLARINING ISHLAB  
CHIQILISHI**

***Karimberdiyev Qodir Komilovich,***

*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti*

**Annotatsiya.** Ta'lim sifatini xalqaro talablar asosida baholash bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida ta'lim sohasidagi bir qator qiyinchiliklar va muammolarga yechim topishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonning mazkur xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi hamda milliy ta'lim tizimini xalqaro talablar asosida baholash hamda erishilgan natijalar esa tizimda turli islohotlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Ushbu maqolada PIRLS - boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro baholash dasturi hamda tadqiqot doirasidagi baholash materiallarining ishlab chiqilishi va savol va topshiriqlarning o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, mamlakatimizda faoliyat yuritib kelayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy darajada matnlarni tanlab olish va ularga doir savollar ishlab chiqishlari, pedagogika yo'nalishi talabalari hamda mazkur yo'nalishda ilmiy ishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** PIRLS tadqiqoti, baholash materiallari, o'qish savodxonligi.

**Annotation.** Nowadays the evaluation of the quality of education based on international requirements is of great importance in finding solutions to many difficulties and problems in the field of education in many countries of the world. Participation of Uzbekistan in these international studies and assessment of the national education system based on international requirements provides an opportunity to implement various reforms in the system through the results of the assesment. This article provides information about PIRLS - the Programme in International Reading Literacy Study which assess the reading literacy of primary school students, as well as the development of assessment materials and specific aspects of questions and tasks within the framework of the study. It also provides information for primary school teachers in our country in the selection of texts at the national level and the question reduction within the texts and contains valuable information for students of the field of pedagogy and researchers conducting scientific work in this field.

**Keywords:** PIRLS, assessment materials, reading literacy.

**Аннотация.** Оценка качества образования на основе международных требований сегодня приобретает все большее значение в поиске решений многих трудностей и проблем в сфере образования во многих странах мира. Участие Узбекистана в этих международных исследованиях, а также оценка национальной системы образования на основе международных требований, через результаты оценки, дает возможность осуществить различные реформы в системе. В данной статье представлена информация о международной программе оценки читательской грамотности учащихся начальных классов PIRLS, а также о разработке оценочных материалов в рамках исследования и специфике вопросов и заданий, о том, как учителя начальных классов, работающие в нашей стране, на национальном уровне отбирают тексты и разрабатывают вопросы по ним, а также студенты педагогического направления, ведущие научную работу в этом направлении.

**Ключевые слова:** Исследования PIRLS, оценочные материалы, грамотность чтения.

Bugungi kunga kelib ta'lim sohasida turli yoshdagi o'quvchilarning egallagan bilimlarini baholash bo'yicha bir qator xalqaro tadqiqotlar olib borilmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro darajada baholash va mamlakatlarga siyosiy qarorlar qabul qilishda dalillarga asoslangan ma'lumotlar taqdim etishni maqsad qilgan PIRLS (Programme in International Reading Literacy Study) tadqiqoti shular jumlasidan. Mazkur xalqaro tadqiqotda milliy ta'lim tizimini xalqaro ta'lim tizimlari bilan solishtirish hamda samarali tajribalarni o'rganish maqsadida dunyoning nafaqat rivojlangan mamlakatlari, balki rivojlanayotgan mamlakatlari ham muntazam ravishda ishtirok etib kelmoqdalar. Jumladan, O'zbekistonda ham nufuzli xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish bo'yicha ilk qadamlar tashlandi. Bu yo'lda mazkur tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish, sinov materiallarini milliy darajada tayyorlash, tadqiqotlarni yuqori saviyada o'tkazish hamda xalqaro darajada e'lon qilingan natijalarni tahlil qilish va xulosalar asosida zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga joriy etish muhim sanaladi.

Dunyo mamlakatlari qatori O'zbekistonda o'tkazilgan PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti o'tkazilgan tadqiqotlarning beshinchi davriyligi bo'lib, bungacha mazkur tadqiqot 2001, 2006, 2011 va 2016-yillarda o'tkazilgan. PIRLS 2021 tadqiqoti avvalgi davriyliklardan farqli ravishda mamlakatlarning ishtirok etish shakliga ko'ra raqamli va qog'oz shakllarda o'tkazildi. Tadqiqotda ilk bor ishtirok etayotgan mamlakatlarga tadqiqotni qog'oz shaklida o'tkazish tavsiya etilganligi bois, O'zbekistonda ushbu tadqiqot qog'oz shaklida o'tkazildi. Tadqiqot doirasida ishlab

chiqilgan baholash materiallari va so'rovnomalar (direktor, o'qituvchi, o'quvchi va ilk o'rganish so'rovnomalari) xalqaro talablar asosida **o'zbek, rus va qoraqalpoq** tillarida tayyorlandi.

Baholash materiallarining aniq maqsadlar asosida sifatli ishlab chiqish va tadqiqot o'tkazish uchun belgilangan tamoyillar asosida saralab olish kelgusida samarali tahlillarga erishish hamda aniq, maqsadli qarorlar qabul qilishda muhim sanaladi. Bu borada PIRLS tadqiqotlarining turli davriyligida qamrov doiralari va qo'llanmalar bilan bir qatorda tadqiqotda foydalaniladigan matnlar hamda savollarni tuzish bo'yicha yo'riqnomalar doimiy ravishda ishlab chiqiladi.

PIRLS dasturi doirasida tayyorlangan mazkur yo'riqnomaga muvofiq tadqiqot doirasida foydalaniladigan axborot va badiiy matnlar hamda mazkur matnlarga doir **muqobil javob variantli** va javob yozishni talab qiladigan **ochiq strukturalangan** savollaridan foydalaniladi. Savollarning deyarli yarmi muqobil javob variantli va qolgan yarmi esa javob yozishni talab qiladigan ochiq savollardan iborat bo'ladi.

Muqobil javob variantli savollar nisbatan qisqa vaqt ichida o'quvchilarning bilish jarayonlarini ishonchli, to'g'ri va rejali tarzda baholashga imkon bersa, javob yozishni talab qiladigan ochiq strukturalangan savollar o'quvchilarning oldindan taxmin qilish, muayyan voqea yoki jarayonni tasvirlash, hikoya qahramonlari xatti-harakatlarini tushuntirib berish hamda javoblarni asoslash kabi ko'nikmalarini namoyon qilishlariga imkon beradi.

Budan tashqari, javoblarni to'g'ri va ishonchli baholashga imkon beradigan boshqa turdagi savollardan ham foydalaniladi. Bu kabi savollar o'quvchilardan quyidagilarni talab etishi mumkin:

- matndagi voqealar ketma-ketligini to'g'ri joylashtirish;
- hikoya qahramonlari, ular tomonidan bajarilgan ish-harakatlar yoki ular tomonidan aytilgan gaplar bilan moslashtirish;
- jadvalda berilgan ma'lumotlarni to'ldirish.

PIRLS xalqaro tadqiqotida matnlarga doir savollar soni va har bir matnga uchun ballar belgilangan bo'lib, o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini to'g'ri baholash maqsadida har bir matn tarkibidagi savollarga ajratilgan umumiy ball **kamida 15 ball** bo'lishi lozim. Tajriba sinovi va qayta ko'rib chiqish jarayonida ayrim savollar olib tashlanishini inobatga olib, har bir matn yuzasidan umumiy **18-20 ballga** teng savollar tuziladi. Har bir matn uchun o'rtacha **12 tadan 14 tagacha** savollar bo'lishi tavsiya etiladi. Baholash mezonlariga muvofiq muqobil javob variantli savollarga **bir ball** berilsa, talab etiladigan o'qib tushunish ko'nikmasiga doir savollarning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda javob yozish talab

qiladigan ochiq strukturalangan savollarga **bir, ikki yoki uch ball** beriladi.

PIRLS tadqiqoti o'quvchilarning topshiriq matnlariga oid savollarni bajarishlarida o'qib tushunish ko'nikmalaridan qay darajada foydalana olishlarini to'g'ri va adolatli baholash uchun har bir savol yoki savolning asosiy g'oyasi PIRLS dasturi qamrov doirasida berilgan shartlarga mos kelishi hamda matnda berilgan ma'lumot yoki unda ilgari surilgan asosiy g'oyani aks ettirishi lozim.

PIRLS dasturi doirasida matnlar ikki turga bo'linadi, bular **badiiy va axborot matnlari**, hamda maqsadlari jihatidan to'rt turdagi tushunish jarayonini baholaydi. Savollarni tuzishda har bir jarayon uchun belgilangan baholash mezonini yoki foizli ko'rsatkichlarga alohida e'tibor qaratish muhim sanaladi. O'quvchining tushunish jarayoni va o'qishdan ko'zlagan maqsadlariga qaratilgan PIRLS baholash dasturining foizli ko'rsatkichlarda berilishi quyidagilarni inobatga olib tuzilgan har bir matnga oid savollar uchun asos bo'lib xizmat qiladi:

**Qidirish va topish:** 3 balldan 4 ballgacha (bunda 3 tadan 4 tagacha savollar berilishi mumkin, chunki savollar asosan muqobil javob variantli yoki bir ballik javob yozishni talab qiladigan ochiq strukturalangan savollardan iborat bo'ladi);

**To'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish:** 5 balldan 6 ballgacha (4 yoki 5 tadan savol bo'lishi mumkin, chunki savollar asosan muqobil javob variantli yoki bir yoki ikki ballik javob yozishni talab qiladigan ochiq strukturalangan savollardan iborat bo'ladi);

**Talqin qilish va umumlashtirish:** 5 balldan 6 ballgacha (2 yoki 3 tadan savol bo'lishi mumkin, chunki savollar asosan 2 yoki 3 ballik javob yozishni talab etadigan uzunroq ochiq strukturalangan savollardan iborat bo'ladi);

**Baholash va tanqidiy baho berish:** 3 balldan 4 ballgacha (bunda odatda bir necha har xil turdagi savollar beriladi, shu sababli savollar 4 ta muqobil javob variantidan tortib bitta javob yozishni talab qiladigan uch ballik ochiq strukturalangan savollargacha bo'lishi mumkin).

O'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasini tegishli tartibda baholashga qaratilgan savollarni tuzish matnga bog'liq jihatlarga e'tibor qaratishni talab etadi. Matnga oid savollarni tuzishda matndan chiqib ketmaslikka harakat qilish lozim.

Matnga oid savollarni tuzishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- Matnning asosiy g'oyasiga murojaat qilish;
- Matnning asosiy g'oyasi undagi muhim voqealarni birdek qamrab olishiga e'tibor berish;
- Savollarga butun matnni o'qib chiqqandan keyingina javob berish mumkinligini inobatga olish.

Yuqorida keltirilganidek, PIRLS tadqiqotida har bir matn yuzasidan beriladigan 12 tadan 14 tagacha bo'lgan savollarni tuzishda quyidagilar inobatga olish muhim sanaladi:

1. Boshlang'ich savollar osonroq savollar bo'lishi kerak — O'quvchilar murakkabroq savollarga o'tishlaridan avval ularga bir yoki ikkita osonroq savollar beriladi. Mazkur savollar nisbatan murakkab bo'lmagan savollar hisoblanib, o'quvchilarni matn bilan ishlashiga imkon beradi. Savollar matnning asosiy g'oyasiga yoki matnning boshlanish qismiga berilgan asosiy ma'lumotga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

2. Savollar matnda berilgan ma'lumotlar ketma-ketligiga mos ravishda berilishi kerak, ya'ni savollarning javobi matnda berilgan ma'lumotlar ketma-ketligida bo'lishi kerak. Bu ayniqsa ma'lumotlarni topish va to'g'ri xulosa chiqarish ko'nikmasini baholovchi savollarni tuzishda qo'l keladi. Ammo, buni boshqa savollarga ham qo'llash mumkin. O'quvchilar matndan savollarga to'g'ri javobni topa olishlari uchun ko'p vaqtlarini sarflab yubormasligi lozim.

3. Murakkabroq jarayonlarni baholovchi barcha savollar ham topshiriqning so'nggi qismida berilmasligi kerak, ya'ni o'quvchilarning talqin qilish va umumlashtirish yoki baholash va tanqidiy baho berish ko'nikmalarini baholovchi savollar butun topshiriq bo'ylab teng taqsimlangan bo'lishi kerak. Bu o'z navbatida barcha topshiriqlarni bajara olishga vaqti yetmagan o'quvchilarga shu turdagi ko'nikmalarini namoyon etishlariga imkon beradi.

4. Har bir matn uchun bittadan uch ballik savol tuzish, bunda mazkur savol o'quvchilarning talqin qilish va umumlashtirish va jarayonni baholash ko'nikmasini tekshirish imkonini beradi. Har bir matn asosida bittadan uch ballik savol tuzilsa, bu o'quvchilarning tushunish darajalarini namoyon etishlariga yordam beradi. Savollarni tuzish bo'yicha yo'riqnomaga muvofiq bittadan ortiq uch ballik savol tuzmaslik so'raladi, chunki o'quvchilar mazkur savollarni bajarishga ko'p vaqt sarflab yuborishlari mumkin.<sup>1</sup> Uch ballik savol topshiriqning boshida beriladigan savollar bo'lmasligi lozim, chunki o'quvchilar sinovga kirishib olishlariga imkon berilishi kerak. Shuningdek, bunday savollarni topshiriqning so'nggi qismiga qo'yish ham o'rinli emas, sababi o'quvchilar bu turdagi savollarni chetlab o'tib, sinovni yakunlashiga majbur bo'lishi mumkin.

5. Imkoni boricha savollarning xolisligiga e'tibor berish lozim, ya'ni savolda berilgan ma'lumot boshqa savollarning javobini topishga yo'naltirilmaganligiga diqqat qaratish muhim sanaladi. Shuningdek, muayyan savolga to'g'ri javob berish avvalgi savollarga aslo bog'liq bo'lmasligi kerak. Bundan tashqari, javob yozishni

<sup>1</sup>PIRLS 2016 Item Writing Guidelines, p9. (PIRLS 2016 tadqiqoti, savollarni ishlab chiqish bo'yicha yo'riqnoma, 9-bet) .

talab etadigan ochiq strukturalangan savollarga turlicha javob berilishi lozimligi hamda o'quvchilar savollarning mavzusi yoki asosiy g'oyasini ko'chirib yozishlarini talab qilmasligi maqsadga muvofiq.

Matnlarni tanlab olish va savollarni tuzishda o'quvchilar uchun zarur bo'lgan vazifani bajarish uchun kerak bo'ladigan vaqt inobatga olinishi muhimdir. PIRLS xalqaro tadqiqotida o'quvchilar har bir matnni **40 daqiqa** davomida o'qishlari hamda savollarga javob berishlari kerak. Odatda, to'rtinchi sinf o'quvchisi bitta muqobil javob variantli savolni bir daqiqada bajarishi, javob yozishni talab qiladigan ochiq strukturalangan savollarni ko'proq vaqt, qisqa javoblar uchun 1-2 daqiqa, kengaytirilgan javoblar uchun 3-5 daqiqa ajratilishi nazarda tutiladi.

Topshiriqlarda ishlatiladigan til, uslub va o'qish darajasi maqsadli sinf o'quvchilarining yoshi va tajribasiga mos kelishi kerak. Topshiriqlar o'qish darajasida yosh xususiyatini inobatga olgan holda shunday yozilishi kerakki, o'quvchi savolda so'ralgan ma'lumotni hech qanday qiyinchiliksiz tushunishi kerak. Yuqorida ta'kidlanganidek, matnlarga nisbatan oson va o'rtacha darajadagi murakkablikka ega savollarning berilishi maqsadga muvofiqdir. Shunday bo'lsada, deyarli barcha o'quvchilar yoki hech bir o'quvchi bajara olmaydigan savollarni berilishi baholashning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki bunday savollar yuqori va past o'zlashtirishga ega o'quvchilar o'rtasida tabaqalanishni yuzaga keltiradi. Savollarni tuzishda o'quvchilarga ortiqcha qiyinchilik tug'dirishi mumkin bo'lgan tartibda joylashtirilmasligiga alohida e'tibor qaratish muhimdir. Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etuvchi mamlakat o'quvchilari orasida turli madaniyatga xos jihatlar, qarashlar, ularning kelib chiqishi va ular uchun yaratilgan muhitni farqli jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Milliylik, madaniyat, etnik kelib chiqishi va geografik joylashuvga tegishli masalalarni alohida inobatga olish zarur. Ishtirok etuvchi mamlakatlarning ma'lum guruhigagina tegishli bilim va ko'nikmalarni talab etadigan matnlarning berilishi maqsadga muvofiq emas.

PIRLS tadqiqotining baholash materiallarini tayyorlashda jinsga oid jihatlar ham inobatga olinadi. Bu boradagi yo'l qo'yilgan juz'iy xatolik ayrim o'quvchilarni topshiriqlarni bajarishdan chalg'itishi mumkin. Muayyan qarashlar yoki holatlar bilan bog'liq vaziyatlar alohida ikkala jinsga bog'liq g'alizliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatlarni oldini olish maqsadida biror jinsga nisbatan hurmatsizlik ruhiyatini keltirib chiqaradigan holatlardan foydalanmaslik lozim.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash o'rinliki, xalqaro tadqiqotlarga, jumladan PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish, o'quvchilar bilimini shaffof baholash hamda o'quv dasturlarini takomillashtirish, ta'lim sohasidagi aniq belgilangan qarorlarni qabul qilishda xalqaro talablar asosida ishlab chiqilgan savol va topshiriqlar va ularning yuqori sifat ko'rsatkichi muhim omil hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 997-son
2. PIRLS 2021 Assessment Framework
3. PISA 2021 tadqiqoti qamrov doirasi, mualliflik huquqi © 2021 (Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi nashri, 2021)
4. PILRS 2016 Item Writing Guidelines (PIRLS 2016 tadqiqoti, savollarni ishlab chiqish bo'yicha yo'riqnoma) .

**Internet manbalari:**

1. <https://www.iea.nl/studies/iea/pirls>
2. <http://www.centeroko.ru/>



## O'QUVCHINING DARSGA DIQQATI NIMALARGA BOG'LIQ?

**Gulnoz Xodjayeva,**

*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti xodimi*

**Annotatsiya.** O'quvchilarning e'tibori sinfda o'rganish uchun muhim, ammo biz mavzuda juda kam narsa bilamiz. Oliy o'quv yurtlarida talabalarning diqqati 10-15 daqiqa davom etadi degan fikr ma'ruza va auditoriya mashg'ulotlarini rivojlantirishda keng qo'llanilgan. Biroq, bu yondashuv empirik dalillarga emas, balki umumiy bilimlarga asoslangan. Aslida, diqqatni o'z-o'zidan hisobot berish yoki o'quvchilarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali ishonchli tarzda o'lchash qiyin.

Xo'sh, o'qituvchilar o'quvchilar e'tiborini oshirish uchun nimalarga e'tibor qaratishi zarur? Bu eng yangi tadqiqot yo'nalishimizda ko'rib chiqilayotgan savol.

**Аннотация.** Внимание учащихся важно для обучения в классе, но мы знаем об этом на удивление мало. В высшем образовании идея о том, что внимание студента длится 10-15 минут, широко использовалась для информирования о развитии лекций в колледже и занятий в классе. Однако этот совет основан на «общеизвестных фактах», а не на эмпирических данных. Это связано с тем, что внимание трудно надежно измерить с помощью самоотчета или наблюдения за поведением учащихся.

Итак, есть ли что-то, что педагоги могут сделать, чтобы привлечь внимание учащихся? Это вопрос, который мы рассматриваем в нашем новейшем направлении исследований.

**Abstract.** Student attention is important for learning in the classroom, but we know surprisingly little about it. In higher education, the idea that student attention lasts for 10-15 minutes has been widely used to inform the development of college lectures and classroom activities. However, this advice is based on "common knowledge" rather than empirical evidence. This is because attention is hard to measure reliably through self-report or by observing student behavior.

So, are there things that educators can do to promote student attention? This is the question we are addressing in our newest line of research.

**Kalit so'zlar:** e'tibor, faol o'rganish, diqqat, video kontent avlodi.

Ba'zi psixologlar o'quvchi diqqati 10-15 daqiqa davom etishini ta'kidlaydilar, ammo ularning diqqat darajasi motivatsiya, kayfiyat, qabul qilingan materialning dolzarbligi va boshqa omillarga qarab o'zgarishi tabiiy. O'quvchilarni uzoq vaqt davomida qiziqish va hushyor tutish uchun ko'rsatmalarda aniq taktika mavjudligini zamonaviy ilm-fanda tekshirilgan.

**O'rtacha e'tibor.** O'quvchilarning "qisqa" e'tibori 10-15 daqiqagacha bo'lishiga oid keng tarqalgan tushunchaga qaramay, uning aksini ko'rsatadigan juda ko'p dalillar mavjud. 2007-yil Karen Uilson va Jeyms Korn ma'ruza davomiyligi jarayonida talabalarning yozuvlarida pasayib ketishni aniqlashdi. O'quvchilar diqqat-e'tibori o'rganilganda ma'ruza paytidagi vaqt oraliqlariga tanaffuslarni kiritishgan. Tanaffuslar bilan ham ma'ruzaning 10-18 daqiqasida, keyin esa dars yakuniga qadar har 3-4 daqiqada diqqat yetishmovchiligi kuzatilgan. Uilson va Korn o'quvchilarning diqqatini aniq o'lchab bo'lmashligini va ma'ruza paytida ular e'tiborining pasayishi kuzatilishi mumkin bo'lsa-da, o'rtacha diqqat-e'tiborning davomiyligi aniq emasligini isbotlashdi.

**Diqqat va faol o'rganish.** 2010-yilda kimyo yo'nalishining uchta kurslarida talabalardan tugmalarni bosish yordamida ularda diqqat-e'tibor yetishmayotgani to'g'risida xabar berishlarini so'radilar. Har bir kursni alohida professor o'qitishini va har xil uslubda (ma'ruza qilish, namoyish qilish yoki savol berish) tashkil qildilar. Tadqiqotchilar talabalar tomonidan bildirilgan diqqat yetishmovchiligidan o'rtacha uzunligini, shuningdek, e'tibor yetishmovchiligi va har bir professor tomonidan qo'llanilgan turli xil pedagogik usullar o'rtasidagi bog'liqlikni o'lchashdi.

Talabalar 1 daqiqa yoki undan kam davom etgan diqqat-e'tiborni ko'rsatish uchun bitta tugmani, 2 dan 3 daqiqagacha bo'lganda boshqa tugmani va 5 daqiqadan yoki undan ko'proq vaqtni ko'rsatadigan uchinchi tugmani bosdilar. Javoblar kompyuterga yuborildi va bu ma'lumotlar har bir professor tomonidan qo'llaniladigan turli xil o'qitish uslublari vaqt jadvalida aks etdi.

Bu tadqiqotchilarga professorning bir uslubdan ikkinchisiga o'tishi bilan diqqat-e'tiborning sustlashishi tez-tez sodir bo'ladimi (yoki bir xil bo'lib qoldimi) yoki umuman bo'lmaganini aniqlashga imkon berdi. Tadqiqotchilar uchta qiziqarli holatni aniqladilar.

Bu tadqiqotchilarga professorning bir uslubdan ikkinchisiga o'tishi bilan diqqat-e'tiborning sustlashishi tez-tez sodir bo'ladimi (yoki bir xil bo'lib qoldimi) yoki umuman bo'lmaganini aniqlashga imkon berdi. Tadqiqotchilar uchta qiziqarli holatni aniqladilar.

*Birinchidan*, e'tiborning 1 minut davomiyligi yoki undan kam bo'lganligi— juda qisqa tanaffuslardan ko'ra ko'p vaqtli tanaffuslarda diqqat uzoqroq ushlab turilgan.

*Ikkinchidan*, tadqiqotchilar 10-15 daqiqalik diqqat nazariyasining haqiqat emasligini kuzatishgan. Buning o'rniga, uchta kursda ham ular ma'ruza davrida atigi 30 soniya ichida paydo bo'lgan diqqat-e'tiborning pasayishini kuzatdilar; navbatdagi ma'ruzada bu 4,5-5,5 daqiqada sodir bo'ldi; keyingi ma'ruzada 7 – daqiqadan 9 – minut oralig'ida va keyingi 9 dan 10 minutgacha vaqt oralig'ida kuzatilgan. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, bu o'sish va susayish uslubi ma'ruza davomida bo'lib o'tdi va ma'ruza davom etar ekan, diqqat yetishmovchiligi tez-tez yuz bergan. Ma'ruza oxiriga kelib, har ikki daqiqada diqqatda susayish yuz bergan.

*Uchinchidan*, tadqiqotchilar diqqat bilan faol o'rganish yoki ta'lim oluvchilarga yo'naltirilgan pedagogika o'rtasidagi munosabatni topdilar. Eng ko'p ishlatiladigan ikkita faol ta'lim usuli va savollar texnikasini ishlatib diqqat-e'tibor oshganining guvohi bo'lishadi.

Ta'lim usuli qo'llanilgan paytida yoki savol berilgandan keyin diqqat-e'tibor ko'rsatkichi oshgan.

Olimlar dars davomida o'quvchilar e'tiborini jalb qilish va dars davomidagi saqlanuvchi diqqat-e'tiborga faol o'qitish usullari orqali erishish mumkin, degan xulosaga keldilar.

Biz o'qituvchilar doim metodikalarni to'g'ri tanlash jarayonida turamiz. Bolaning yosh xususiyatidan, zamon texnologik taraqqiyotini hisobga olgan holda va ilmiy izlanishlarga tayanib aytishimiz mumkinki, bugungi avlod fikrlash tarzi o'zgacha bo'lgan butunlay o'zgacha avloddir.

Yosh o'qituvchilar Facebook va Instagram avlodi bo'lib, biz uchun matn yozish muhim, biz uchun suratga olish muhim. Ammo, o'quvchilarimiz uchunchi?

O'zimizdan yosh avlod, albatta bizdan boshqacha tafakkurli va ularning miyasini ishlash doirasi bilan hisoblashmay ilojimiz yo'q.

Masalan, 14 –16 yashar bo'lgan yoshlar hech bir shubhasiz – video kontent avlodi. Ular videotasvir orqali fikrlaydi, ular video kontent yaratadi, video bilan juda yaxshi ishlaydi, videoni idrok qilish – ularning jon-u dili, ya'ni 16 –17 yashar yoshlar uchun qiziqarli bo'lgan blog kontentlarni kuzatsangiz, ular butunlay boshqa olam ekanini, uni cheklash emas, ularni tushuna olish kerakligini ko'rasiz. Bizga saviyasiz tuyulgan lavhalar bu o'sha yoshlarga qiziq va bu yerda e'tiborli jihat — ular vizual axborotni aynan video formatida iste'mol qilishga ko'nikib o'sgani.

Yana bir misol, 6 yoshli bolani kuzatsangiz u 1-2 yoshidan faqat videoaxborotni iste'mol qilishga o'rganib qolganini ko'rasiz. Hozirgi avlod Netflix bilan Youtubeni tomosha qiladi. Ularga buni hech kim o'rgatmagan. Shunday ekan, zamonga mos o'qituvchi tez-tez video darsliklar yaratishi zarur.

Deamak, internet asrida bolalarni chalg'ituvchi rang-baranglikni hisobga olib, biz ularni darsga diqqat-e'tiborini quyidagicha qaytarishga yordam berishimiz mumkin:

**Ongli meditatsiya orqali.** Zamonaviy psixoterapiyada meditatsiya boshqa narsalarga chalg'imagay, ayni damda bo'lishga yordam beruvchi diqqatni jamlash xususiyatini rivojlantirish uchun qo'llaniladi. Uning mohiyati ko'zlarni yumgan holda tana va ongda nimalar ro'y berayotganini jimgina kuzatishdan iborat. Darsda shovqin paytida qo'llash mumkin.

**Bir vazifalilik.** Ko'p vazifalilik biz o'ylagandek samarali emas, ayniqsa, gap aqliy faoliyat haqida ketganda. Bola har safar bir necha ishni baravar bajarganida miya ortiqcha stressga yo'liqadi va tabiiyki, yangi vazifaga diqqatni qaratish xususiyati pasayadi. Bir vazifalilik yanada samarali ishlashga yordam beradi va diqqatni bir predmetda jamlashga o'rgatadi. U o'z ta'siriga ko'ra, meditatsiyaga o'xshaydi: qancha ko'p mashq qilsangiz, shuncha yaxshi uddalaysiz, kerakli narsaga diqqatni yo'naltirish shunchalik osonlashadi.

**Muntazam ravishda chetlashish.** Har bir inson internetga kirish uchun telefonni qo'lga olganida yoki o'quvchi 5 daqiqalik tanaffusda kiraman deb o'ylaganida holatning bir soatga cho'zilib ketishi miyani har safar navbatdagi takrorlash bilan mustahkamlanuvchi odat to'qimalarini shakllantiradi. Aynan shuning uchun raqamli qurilmalardan foydalanishni cheklash muhim. Bolalarni muntazam ravishda bunday chalg'ituvchi omillardan chetlashishga harakat qilish maqsadga muvofiq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://www.uopeople.edu/blog/13-types-of-students-you-see-in-every-classroom/> ma'lumotlari;
2. <https://edublogs.org/#join-network> sayti;
3. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0378595514000422> maqolalari;
4. Z. Mamarasulova: "Bolalar diqqatini rivojlantirishning samarali yo'llari" Boshlang'ich ta'lim jurnali;
5. P.I. Ivanov, M.E. Zufarova "Umumiy psixologiya" – Toshkent 2008 yil

## UMUMIY O'RTA TA'LIMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING AHAMIYATI

***Normatov Sulton Abdug'ani o'g'li,***

*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktablarda kompyuterlashtirish va informatika fanining mazmunini takomillashtirish, shuningdek, o'quvchilarga sun'iy intellekt elementlarini o'qitishning ahamiyati haqida fikr, mulohazalar bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье описывается важность совершенствования содержания компьютеризации и информатики в школах, а также важность обучения школьников элементам искусственного интеллекта.

**Abstract:** This article describes the importance of improving the content of computerization and computer science in schools, as well as the importance of teaching students the elements of artificial intelligence.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, kompyuter sinfi, informatika, internet, optik tola, MIKA, Carnegie Learning, Korean Telecom.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, компьютерный класс, информатика, интернет, оптическое волокно, MIKA, Carnegie Learning, Korean Telecom.

**Keywords:** artificial intelligence, computer class, informatics, internet, optical fiber, MIKA, Carnegie Learning, Korean Telecom.

Ta'lim sifati jamiyat hayotidagi moddiy va ma'naviy yuksalish bilan to'g'ri proporsianallik hosil qilishi har qanday jamiyatda uning qanchalik muhim va dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Xususan yurtimizda ta'lim va uning sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy yuksaltirish, jamiyat hayotini yanada farovon qilishga qaratilgan. Bu esa fundamental bilimlarni yoshlarga o'rgatuvchi maktablar va unda o'qitiladigan fanlarning zamonaviy tendensiyalarga mos holatda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Boshqa fanlar qatorida informatika va uni o'qitishda qo'llaniladigan axborot texnologiyalari, xususan kompyuterlarning bo'lg'usi kadrlarning axborot kompetentligini rivojlantirishda va zamonaviy kasblarni o'rgatishda muhimdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bevosita yoki bilvosita hayotimizga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda[1]. Bunday ijobiy ta'sirning kuchini yanada oshirish ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni

jadal joriy qilish va yoshlarda ulardan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarning shakllanganligi bilan o'zaro aloqador. Shuningdek, informatika ta'limini rivojlantirish nafaqat texnik xususiyatlar balki uning mazmunini doimiy takomillashtirib borish bilan chambarchas bog'liq. XXI asrdagi texnologik taraqqiyotni sun'iy intellekt bog'liq innovatsiyalar belgilab berayotgan ayni vaqtda uni o'qitish ham birdek dolzarb va ahamiyatlidir.

Xalq ta'limi tizimida maktablarni zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan taminlash bo'yicha 2019-yil 7-iyunda Xalq ta'limi vazirligi hamda Koreyaning KT (Korean Telecom) kompaniyasi o'rtasida 33 mln dollarlik shartnoma imzolandi. Unga ko'ra yaqin bir necha yil ichida O'zbekistondagi 2766 maktablarga 2859 kompyuter sinflari uchun jihozlar yetkazish ko'zda tutilgan edi. Bevosita bu jarayonlar prezident Sh.M.Mirziyoyevning 5 ta muhim tashabbusini amalga oshirish maqsadlarida ham alohida ko'rsatilgan. 2021-yil 30-sentabrda Xalq ta'limi vazirligi va KT kompaniyasi o'rtasida yo'lga qo'yilgan hamkorlik doirasida o'tgan yillar davomida xalq ta'limi tizimidagi maktablarni kompyuter sinflari bilan jihozlash bo'yicha Koreya davlatidan 45 mingdan ziyod kompyuter (2859 ta kompyuter sinf to'plamlari) keltirilganligi ma'lum qilindi [2]. Shu bilan birga, shartnoma davomi sifatida, 2021-2022 o'quv yilida Koreyadan 15000 dan ortiq kompyuterlarni O'zbekiston maktablariga yetkazish bo'yicha kelishuvga erishilgan. Bu maktab ta'limida zamonaviy kompyuterlardan foydalangan holda dars o'tish imkoniyatini yanada yaxshilashga yordam bermoqda. Shuningdek Xalq ta'limi vazirligining 2021-yil bo'yicha hisobotida yuqori tezlikdagi optik tolali internet tarmog'i 9 815 ta (96 %) umumta'lim muassasalariga yetkazildi hamda 7 000 ta (69 %) umumta'lim muassasalari ichki lokal tarmoq uskunalari hamda Wi-Fi qurilmalari (2021 yil rejasiga nisbatan 2,1 baravariga ko'p) bilan ta'minlanganligi e'tirof etilgan [3]. Qayd etish lozimki yurtimizdagi 10130 ta maktablarda zamonaviy kompyuter texnikasini doimiy yangilash ishlarini uzluksiz olib borish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu o'rinda prezident tomonidan ayrim hududlardagi maktablarni kompyuter bilan ta'minlash ishlari sust ketayotgani tanqid qilinganligiga [4] e'tibor qaratish lozim. Hukumat darajasida qaratilayotgan e'tibor natijasida internet va zamonaviy kompyuterlar o'quvchilarga yangi texnologik bilimlarni egallashga yordam beradi. Shuningdek, informatika fani doirasidagi bilimlarni o'quvchilarga to'laqonli yetkazishda zarur moddiy-texnik baza shakllanadi. Bu esa yurtimizda inson kapitalining yanada rivojlantirishga yordam beradi. Maktab ta'limida o'quvchilarga yangi, zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish va unda turli dasturlar, grafikalar, jadvallar va boshqa predmetlarni yaratish, tahrirlash, saqlash va uzatish kabi bilimlar berilishi fan o'qituvchilarining yil sayin yangilanib, rivojlanib borayotgan texnologiyalar va ularda ishlash bo'yicha bilimlarini oshirib borishlarini talab etadi. Ya'ni ta'limga kirib

kelayotgan har qanday texnologiyalar, ularda ishlash ko'nikmasi va ularni o'qitish metodikasini avvalofano'qituvchisiga o'rgatish darkor. Buesata'lim tizimidagi uzviy bog'liqlikning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi bilan aloqadordir. Ammo informatika kabi doimiy yangilanib boruvchi fanlardan ta'lim beruvchi o'qituvchilarni an'anaviy malaka oshirish kurslari orqali kasbiy-metodik va bilim salohiyatini rivojlantirish ko'p vaqt va mablag' talab etadi. Ayni muammo MOOC platformalari orqali masofaviy ta'limni yo'lga qo'yish orqali yechilishi mumkin. Misol uchun "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi informatika fan o'qituvchilariga o'z bilimlarini masofadan turib doimiy rivojlantirib borishlariga imkon bermoqda. Platforma orqali informatika fani o'qituvchilari fan darsliklariga kiritilgan o'zgarishlar bo'yicha yangi bilimlarni tez va samarali o'zlashtirib borishmoqda. Bu esa ta'lim jarayonini zamon talabiga mos holda muvofiqlashtirib borish imkoniyatini taqdim etdi.

Bugungi texnologik revolyutsiya asrida informatika fanlarini mazmunan yangilab borish, jamiyatlar hayotiga jadal kirib kelayotgan yangi texnologiyalar imkoniyati va ulardan foydalanish ko'nikmalarini taqdim etuvchi ma'lumotlarga alohida e'tibor berish zarur. Fanning mazmuni bevosita fan darsligi orqali belgilanishini e'tiborga olsak darsliklarni zamon talabi asosida yangilash (metodik va mazmun jihatidan) muhimligi oydinlashadi. Sun'iy intellekt (SI) va uning tarmoqlari informatika darsliklariga kiritilishi lozim bo'lgan zamonaviy bilimlarini o'z ichiga olgan. Maktab ta'limida SI bilan bog'liq bilimlarni ikki xil yo'l bilan o'quvchilarga o'rgatish mumkin.

Bular:

1. Klassik yo'l. Informatika darsliklari tarkibiga SI texnologiyalariga oid bob kiritish orqali o'quvchilarga boshlang'ich bilimlarni berish;
2. Revolyutsion yo'l. Informatika darsligidan alohida SI texnologiyalari darsligi ko'rinishida yuqori sinf o'quvchilariga tanlov yoki majburiy fan sifatida taqdim etish orqali ularni SI texnologiyalariga oid kasblarga o'rgatib borish;

Birinchi yo'lni ya'ni informatika darsliklari tarkibida SI va uning elementlarini o'qitish jarayoni I.V.Lepchenko tomonidan o'rganilgan. Olim fikricha SI elementlari bilan bog'liq mavzularni informatika darsliklarining har bir bobi tarkibiga kiritish lozim [5]. Biroq bu o'quvchilarda oddiy kompyuter va undagi dasturlar imkoniyati bilan SI texnologiyalari imkoniyatlarini birgalikda anglash, tushunish va foydalanish natijalarining salbiy bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bizningcha bu jarayonni tashkil etishda darsliklar mazmuni va o'quvchilarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib alohida bob sifatida o'qitish foydaliroq bo'lishi mumkin. Chunki bu jarayonda o'quvchi SI bilan bog'liq jarayonlarni atroflicha va chuqur anglash imkoniyatiga ega

bo'ladi. Shuningdek, Rossiya maktab ta'limida sun'iy intellektga aloqador mavzular 11-sinf darsligida uchratish mumkin.

Ikkinchi yo'lni Xitoy va Janubiy Koreya kabi davlatlar o'z maktab ta'limida qo'llashgan. Xitoyda 2018-yil yangi SI darslikgi yaratildi va maktablarning yuqori sinf o'quvchilari uchun tanlov fani sifatida bir qancha provinsiyalarda qo'llanila boshlandi [6]. Janubiy Koreada 2021-yil yanvar oyi boshidan o'rta maktablarda "SI asoslari" va "SI matematikasi" nomli ikkita tanlov fanlar joriy qilindi. Shuningdek, 2025-yilga qadar SI bo'yicha dasturlash, SI asosiy tamoyillari, SI etikasi kabi o'quv dasturlarini boshlang'ich ta'lim va o'rta maktab ta'limlarga keng joriy qilish belgilangan [7]. Bu mamlakatlar sun'iy intellekt taraqqiyotiga jiddiy qarashmoqda va yaqin yillarda ro'y berishi mumkin bo'lgan kelajak texnologiyalarining yangi avlodi bilan yoshlarning erkin ishlashlari va kasbiy faoliyatlariga faol integratsiya qilish uchun asos yaratishmoqda. Shuningdek Yevropa Ittifoqi, Kanada, AQSH, Buyuk Britaniya, Qozog'iston va boshqa ko'plab davlatlarda turli ko'rinishda sun'y intellektga oid bilimlar maktabda o'quvchilarga o'rgatilmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalarini o'qitishda ilg'or xorij mamlakatlaridan biri AQSH hisoblanadi. Qo'shma shtatlar ta'limning bu sohasi o'qitish va rivojlantirish ilmiy tashkilotlar (universitet, institut, ilmiy laboratoriya va boshqalar) va xususiy birlashmalarda bir muncha faollik kuzatiladi. Aynan shu jarayonlar maktab ta'limida ham o'z aksini topgan. Xususan Milliy fan fondi (NSF) va Karnegi Mellon universiteti tomonidan moliyalashtirilgan AI4K12 nomli SIni rivojlantirish va uni maktab ta'limda (K12) o'qitish loyihasi [8] maktablarda SI elementlarini o'qitish bo'yicha fan dasturlari va resurslarni taqdim etib kelmoqda. AQSH da asosan maktablarda SI texnologiyalarini o'qitish bo'yicha notijorat tashkilotlar faolroq harakat qilmoqda. Bunday tashkilotlar shtatlardagi maktablarga o'qitish bo'yicha resurslarni masofadan taqdim etgan holda jarayonlarni qo'llab-quvvatlashmoqda. Quyidagi jadvalda sun'iy intellektning maktab ta'limida o'qitilishi bo'yicha ma'lumot berilgan.

1-jadval

| Davlat | Asosiy mavzular                                                                                                                                                                         | Kimlarga o'qitiladi          | Qachondan boshlab |
|--------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------|-------------------|
| Koreya | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Bilimlarni ifodalash va mulohaza yuritish</li> <li>- Sun'iy neyron tarmog'i</li> <li>- Mashinani o'qitish</li> <li>- SI tushunchasi</li> </ul> | Boshlang'ich va o'rta maktab | 2021              |

|                  |                                                                                                                                                                                                                                                        |                                                        |                  |
|------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------|------------------|
| Xitoy            | <ul style="list-style-type: none"> <li>- SI tarixi</li> <li>- Bilimlarni ifodalash va mulohaza yuritish</li> <li>- SI matematik asoslari</li> <li>- Sun'iy neyron tarmog'i</li> <li>- Mashinani o'qitish</li> <li>- SI asosiy tushunchalari</li> </ul> | Boshlang'ich va o'rta maktab                           | 2019             |
| AQSH             | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Mulohaza yuritish</li> <li>- Tabiiy ta'sir</li> <li>- Ijtimoiy ta'sir</li> <li>- SI tushunchasi</li> <li>- SI axloqi</li> <li>- Mashinalarni o'qitish</li> <li>- Sun'iy neyron tarmoqlari</li> </ul>          | Bolalar bog'chasi, boshlang'ich va o'rta maktab (K-12) | 2017 boshlangan. |
| Yevropa Ittifoqi | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Mashinani o'rganish</li> <li>- Kelajak va ijtimoiy ta'sirni bashorat qilish</li> <li>- SI muammosini hal qilish</li> <li>- Sun'iy neyron tarmog'i</li> <li>- SI tushunchasi</li> </ul>                        | Barcha yoshdagi bolalarga                              | 2020             |

Shu o'rinda Aras Bozkurtning "inson va noinsoniy mavjudotlar o'rtasidagi chegaralar yo'qolayotgan va biz texnologik o'ziga xoslik muqarrar bo'lgan kelajakka intilmoqdamiz"[9] jumlasini keltirish o'rinli. Ya'ni, yaqin kelajakda SI texnologiyalari asosida ishlovchi tizimlar, dasturlar yoki qurilmalar insonlar bilan insonlar tushunadigan tilda muloqot qilishi yoki kasbiy faoliyatda yonma-yon mehnat qilishi mumkin. SI texnologiyalarini o'qitish yaqin yillar ichida u bilan bog'liq bo'lgan yangi kasblarning paydo bo'lish tendensiyasida juda muhimdir. Misol uchun AQSh Mehnat statistikasi byurosi informatika sohasi mutaxassislarining mehnat bozori 2014 va 2024 yillar orasida qolgan kasblardan ikki baravar tez o'sishda davom etishini prognoz qilgan. Yani ayni davrdan boshlab kelajak kasblari uchun yoshlarni tarbiyalash va bilim berish ularning ulg'aygandan so'ng o'z mustaqil yo'lini topishida yordam berishi mumkin. SI texnologiyalari bugungi kunda ikki xil usulda ta'lim jarayonida qo'llanilmoqda. **Birinchisi** texnologiyani o'qitishga qo'llash. Yani ta'lim jarayoni SI texnologiyalari asosida olib boriladi. Bundan kutilayotgan natija esa har bir o'quvchining individual va psixologik imkoniyatlariga mos holda shaxsiy rivojlanish traektoriyasi ishlab chiqilishi va shu asosda samarali ta'lim berilishi nazarda tutilgan. Bu imkoniyat esa texnologik shart-sharoit talab etadi. Yani har bir maktab SI texnologiyasi bilan integratsiyada ishlovchi aqliy qurilmalarga muhtoj

bo'ladi. Bugungi kunda bunday qurilmalar smart yoki IT (Internet of Things – buyumlar interneti) qurilmalari deb atalmoqda. Biroq hozirda ta'lim muasasalarini bunday jihozlar bilan taminlash katta sarmoyani talab etadi. Shuningdek, bu sohada intellektual repetitorlik tizimlarini ham alohida e'tirof etish lozim. Bu soha ham SI texnologiyalari asosida rivojlanmoqda. **Ikkinchisi** texnologiyaning o'zini o'qitish. Bu jarayon informatika fan darsligi tarkibida yoki alohida dasrlik sifatida, intensiv ko'rinishda o'qitish imkoniyati taqdim etadi. Bu orqali yoshlarni SI va u bilan bog'liq texnologiyalarga o'rgatish, kelajakda bu kabi qurilmalardan foydalanish va yangi zamonaviy kasblar haqida yetarli tushunchalarga ega bo'lishi mumkin.

SI texnologiyalariga asosida ishlovchi ko'plab intellektual tizimlar yaratilgan. Ularga quyidagilarni misol qilish mumkin: Carnegie Learning kompaniyasining **"MIKA"** matematika kursi platformasi bo'lib, u talabalarning ishini tahlil qiladi, ularning optimal ishlash darajasini aniqlaydi, so'ngra o'quvchilarga o'quv mazmuni va ularning individual ishlash darajalariga mos keladigan baholash vazifalarini taklif qiladi.[4] Bu kabi dasturlar intellektual repetitorlik tizimlari sifatida rivojlanmoqda. Bunday texnologiyalar orqali turli fanlarni o'qitish SI yordamida ta'limda inson aralashuvini minimallashtirishga imkon beradi. Biroq SI yordamida o'qitishni qo'llab-quvvatlashning katta imkoniyatlariga qaramay, ta'limda texnologiyadan keng foydalanish o'qituvchilarning texnologiyani sinflarda qo'llash qobiliyatini kafolatlamaydi va o'qitish sifatini ta'minlamasligi mumkin[10]. Bu esa kutilayotgan yangi o'zgarishlar nafaqatta ta'lim mazmuniva smart qurilmalar balki o'qituvchilarning SI bilan yaxshi va ishonchi munosabati bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. SI ga bo'lgan munosabatni o'zgartirishning yana bir muhim jihati o'qituvchilarning kundalik hayotida sun'iy intellektni yaxshi bilishi bo'lishi mumkin. Masalan, SI endi hayotimizning funksionalligi va samaradorligini doimiy ravishda yaxshilash uchun smartfonlar (masalan, Google Assistant va Siri) va boshqa qurilmalarga (Alexa va Google home) o'rnatilgan. Ko'plab insonlar SI algoritmlari bilan boshqariladigan o'zini o'zi boshqaruvchi mashinalar haqida tasavvurga ega. Yoki SI har kuni elektron pochta dagi spam xatlarimizni yuqori aniqlik bilan avtomatik ravishda filtrlaydi. Ushbu kontekstlarning har biri bugungi faoliyatimiz SI bilan chambarchas bog'lanib borayotganligini ko'rsatadi. Shunday ekan, ta'lim jarayonida informatika fanining yanada sifatli va samarali bo'lishi unda SI texnologiyalari kabi zamonaviy kontentlarni o'qitish muhimdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raja, R.; Nagasubramani, P.C. Impact of modern technology in education. J. Appl. Adv. Res. 2018, 3 (Suppl. 1), 33–35. [CrossRef]
2. <https://www.uzedu.uz/oz/halk-talimi-vazirligida-korea-respublikasining-uzbekistondagi-elcisi-bilan-talimdagi-amkorlik-masalalari-muokama-kilindi>
3. <https://www.uzedu.uz/uploads/2022/02/malumot-htv-islari-2021-jil.pdf>
4. <https://president.uz/oz/lists/view/5109>
5. Левченко И. В. Основные подходы к обучению элементам искусственного интеллекта в школьном курсе информатики // Информатика и образование. 2019. № 6. С. 7–15.
6. Yu, Y. and Chen, Y. (2018) Design and Development of High School Artificial Intelligence Textbook Based on Computational Thinking. Open Access Library Journal, 5, 1-15. doi: 10.4236/oalib.1104898
7. Talent for the future: AI education for K-12 in Canada and South Korea. Asia Pacific Foundation of Canada. Korea AI Ethics Association Chung-Ang University. South Korea November 2021. p-14. Site to: [https://happyedu.moe.go.kr/happy/bbs/selectHappyArticleImg.do?bbsId=BBSMSTR\\_000000000191&nttId=10119](https://happyedu.moe.go.kr/happy/bbs/selectHappyArticleImg.do?bbsId=BBSMSTR_000000000191&nttId=10119)
8. “Working Group and Advisory Board Members,” AI4K12.org, accessed May 25, 2021, <https://ai4k12.org/working-group-and-advisory-board-members>
9. Bozkurt, A.; Karadeniz, A.; Baneres, D.; Guerrero-Roldán, A.E.; Rodríguez, M.E. Artificial Intelligence and Reflections from Educational Landscape: A Review of AI Studies in Half a Century. Sustainability 2021, 13, 800.
10. Mercader, C., and Gairín, J. (2020). University teachers’ perception of barriers to the use of digital technologies: the importance of the academic discipline. Int. J. Educ. Technol. High. Educ. 17:4. doi: 10.1186/s41239-020-0182-x

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB DIREKTORLARINING BOSHQARUV FAOLIYATINI BAHOLASH MEXANIZMLARI

**Sultonova Lobar Abdunosir qizi,**

*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti*

**Annotatsiya.** maqolada umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmlari hamda mezonlari to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** maktab direktori, boshqaruv faoliyat, baholash, direktor faoliyatini baholash mezonlari.

**Аннотация.** в статье рассматриваются механизмы и критерии оценки управленческой деятельности директоров общеобразовательных школ.

**Ключевые слова:** директор школы, управленческая деятельность, оценка, критерии оценки деятельности директора.

**Annotation.** the article discusses the mechanisms and criteria for evaluating the management activity of general secondary school principals.

**Key words:** school principal, management performance, evaluation, criteria for evaluating the principal's performance.

Jahonda mamlakatlar ta'lim tizimini zamonaviy hayot talablari va kelajak ehtiyojlariga moslashtirar ekan, ta'lim tashkilotlarini boshqarish va bevosita ularning rahbarlari faoliyati so'nggi paytlarda ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Hozirda zamonaviy maktab direktori oldiga maktab faoliyatini va uning ijtimoiy sheriklar bilan o'zaro hamkorligini sifatli tashkil etishni ta'minlagan holda keng ko'lamli masalalarni hal qilish vazifalari qo'yilmoqda. Maktab direktori faoliyatining yangi shart-sharoitlari uning malaka darajasiga qo'yiladigan talablarni va uni doimiy ravishda takomillashtirish zaruratini aniqlashni taqozo etmoqda. Rus olimi V.Yu. Krichevskiy maktab direktori faoliyatini boshqaruv faoliyatining alohida turi deb hisoblash mumkinligini aniqlab, uni asoslab bergan edi.[4] Uning ta'kidlashicha, hozirgi zamonaviy sharoitda maktab direktorlarining ishlash usullari 15-20 yil oldin bo'lganidan farq qiladi.

Ta'lim tizimining doimiy ravishda murakkablashib borishi, bu rahbar shaxsiga, uning malakasiga va umuman, maktabni boshqarish sifatiga yangi talablarni qo'yadi. Bugun esa yurtimizning taraqqiyot bosqichida umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholashning aniq mezonlari mavjud emasligi, maktab direktorlarining kasbiy faoliyatini baholash jarayonlari haligacha faqat evristik usulda nomzodlar va hozirgi direktorlarning imkoniyatlari va qobiliyatlarini batafsil tahlil qilinmasdan amalga oshirilayotgani maktablarda ta'lim sifatining pasayishiga sabab bo'ladi, direktorlarning kasbiy rivojlanishini sekinlashtiradi. Bizningcha, har bir maktabda rahbar faoliyati samaradorligi baholanib va yaxshilanib bormasa maktabdagi ta'lim sifati hamda muhiti pasayib boraveradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmonida ham umumta'lim muassasalari rahbarlari zimmasiga ularga xos bo'lmagan vazifalar va funksiyalarni yuklash, muassasa direktori va uning o'rinbosarlari o'rtasida vakolatlarning aniq taqsimlanmaganligi, ular faoliyati samaradorligini baholashning aniq mezonlari va parametrlari mavjud emasligi ta'kidlangan.[1] Shuningdek, Prezidentimizning 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi 134-sonli Farmonida ilg'or maktab direktori mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar faoliyatini baholab borish dasturning asosiy yo'nalishlaridan biri deb belgilangan.[2] Shu sababli ham umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish-ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishdagi muhim vazifa deb hisoblaymiz.

Hozirgi vaqtda butun dunyoda maktab direktorlarining kasbiy faoliyatini baholashning turli usullari keng qo'llanilmoqda. Shuningdek, jahon olimlari o'zlarining yondashuvlari asosida maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholashda turli xil mezon va ko'rsatkichlarni tavsiya etganini kuzatishimiz mumkin.

Virjiniya shtati Uilyama va Mariya kolleji professori James H.Stronge o'z tadqiqotlarida umumta'lim maktab direktorlarini baholashda quyidagi standartlarni keltirib o'tgan:

- Yetakchilik
- Maktabdagi shart-sharoitlar
- Inson resurslarini boshqarish
- Tashkilashtirishni boshqarish
- Aloqa va ijtimoiy munosabatlar
- Kasbiy mahorat.

Pokistonning Lahor boshqaruv va texnologiya universiteti olimi Khaliq Ur Rehman Cheema davlat va xususiy sektor maktablarida direktorlar faoliyatini baholash bo'yicha tadqiqot olib boradi.[5]

Davlat va xususiy sektor maktablari direktorining faoliyatini o'quvchilarning o'qishida sezilarli yaxshilanishlarga erishish uchun zarur bo'lgan yetakchilik uslublari nuqtai nazaridan baholash tadqiqotning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Tadqiqotda:

- Qaysi direktorlar o'quvchilarning yutuqlari uchun o'qitish, o'rganish va kasbiy rivojlanishga yordam beradi?
- Qaysi sektorda direktorlar o'qituvchilar bilan shaxsiy va kasblararo munosabatlarni o'rnatadilar?
- Qaysi sektor rahbarlari o'z qarorlarini o'qituvchilar, ota-onalar va boshqalar bilan bo'lishadi? kabi savollarga javob izlanadi.

Nigeriyaning Nnamdi Azikiwe universitetidan Mercy Obianuju Nvogbo Anambra shtatining o'rta maktablarida o'quv dasturlari va yo'riqnomalarni rivojlantirishda maktab direktorlari faoliyatining samaradorligini aniqlash uchun tadqiqot olib boradi.[6] Olima o'rta maktablarda ta'lim maqsadlariga erishish uchun o'quv dasturlarini takomillashtirishda va o'quv jarayonini boshqarishda o'z vazifalarini bajarishlari kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u direktorlarning nazoratchilik va menejerlik sifatidagi roli maktabni samarali boshqarishda markaziy o'rinni egallaydi degan fikrni ilgari suradi.

Taylandning Vanderbilt universiteti professori Dr. Philip Hallinger butun umrini ta'limda yetakchilik (instructional leadership)ni o'rganishga safarbar etgan olim hisoblanadi. Dr.Ph.Hallinger direktorlarning boshqaruv faoliyati maktabni takomillashtirishning zaruriy sharti deb hisoblaydi. U Tayland maktablari direktorlarining boshqaruv faoliyati bo'yicha ma'lumotlar to'plash metodologiyasini rivojlantirish maqsadida tadqiqot o'tkazdi.[7] Buning uchun PIMRS (Principal Instructional Management Rating Scale)ning Tayland shaklini takomillashtirishni tanladi.

PIMRS so'rovnomasida direktorlardan va direktor qo'l ostida ishlagan o'qituvchilardan bir xil so'rovnoma olinadi.

**PIMRS ta'lim boshqaruvining uch jihatini baholaydi:**

- 1) Maktab missiyasini aniqlash
- 2) O'quv (ta'lim) dasturlarini boshqarish
- 3) Maktabda ijobiy ta'lim muhitini targ'ib qilish

Bular qo'shimcha 10 ta ta'limni boshqarish vazifalarini o'z ichiga oladi.

**Maktab missiyasini aniqlash:**

- 1) Maktab maqsadlarini shakllantirish
- 2) Maktab maqsadlarini barchaga yetkazish

**O'quv (ta'lim) dasturlarini boshqarish:**

- 3) Yo'riqnoma(maktab yo'l xaritasi)ni nazorat qilish va baholash
- 4) O'quv dasturini muvofiqlashtirish
- 5) O'quvchilar rivojlanishini monitoring qilish

**Maktabda ijobiy ta'lim muhitini targ'ib qilish:**

- 6) O'quv vaqtini himoya qilish
- 7) Kasbiy rivojlanishni targ'ib qilish
- 8) Yuqori ko'rinishni (maktab imidjini)saqlash
- 9) O'qituvchilarni rag'batlantirish
- 10) O'qib-o'rganishni rag'batlantirish

Har bir vazifa deyarli hech qachon (1) dan deyarli hamishagacha (5) baholanadi.

PIMRS shkalasidan foydalangan holda direktorlarni baholash bo'yicha tadqiqotlar turli kontekstlarda (Qo'shma Shtatlarda, Avstraliya, Niderlandiya, Kanada, Xitoy, Malaziya va Singapur) olib borilgan.

Mamlakatimizda maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholashning joriy amaliyoti Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 345-son "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari reytingini aniqlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi [qaroriga](#) muvofiq amalga oshirilmoqda.[3] Uning 6-reyting natijalari asosida mas'ul xodimlar faoliyatini baholash bobining 24-bandida "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari, ularning o'rinbosarlari va pedagog xodimlari faoliyatini baholash umumiy o'rta ta'lim muassasalari reytingini aniqlash mezonlari asosida ishlab chiqilgan reyting natijalariga muvofiq amalga oshiriladi" deb belgilab qo'yilgan. Nizomga asosan maktablar reytingini aniqlashda quyidagi 7 ta ko'rsatkich inobatga olinadi:

**1.** Umumiy o'rta ta'lim muassasasi bitiruvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha tayyorgarligi va ta'lim sifati darajasi:

1.1. Bitiruvchilarning umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim tayyorgarligi darajasi *(11-sinf bitiruvchilari tomonidan oliy ta'lim muassasalariga kirishda to'plangan ballar asosida)*

1.2. Bitiruvchilarning ta'lim sifati darajasi *(11-sinf bitiruvchilari orasidan oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirganlar salmog'i asosida)*

**2.** Umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'quvchilarining bilim darajasi ko'rsatkichi

**3.** Umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'quvchilarining chet tillarni bilish darajasi ko'rsatkichi

**4.** Umumiy o'rta ta'lim muassasasi pedagoglarining sifat (salohiyat) ko'rsatkichi

**5.** Umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'qituvchilarining chet tillarni bilish darajasi ko'rsatkichi

**6.** Ijtimoiy so'rovnoma natijalari

6.1. Pedagog va rahbar xodimlar faoliyati samaradorligi *(o'quvchilar o'rtasida o'tkaziladigan ijtimoiy so'rovnoma)*

6.2. Pedagog xodimlar uchun yaratilgan sharoitlar va o'qitish muhiti *(pedagoglar jamoasi o'rtasida o'tkaziladigan ijtimoiy so'rov asosida)*

**7.** Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ma'naviy-ma'rifiy va o'quv-tarbiyaviy muhit *(O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan besh tashabbus doirasida qilingan ishlar asosida).*

Ushbu baholash mezonlarida, xorij mamlakatlaridan farqli o'laroq, direktorlarning boshqaruv faoliyati va muassasa faoliyati natijalari va ularni o'lchash usullari o'rtasida dalillarga asoslangan integrativ aloqalarning mavjud emasligini ko'rishimiz mumkin.

Fikrimizcha, o'quv muassasalarida ta'lim sifatini oshirish bevosita maktab direktorlari boshqaruv faoliyatini qay darajada tashkil etayotgani bilan uzviy bog'liq. Shu o'rinda xulosa qilib ta'kidlash joizki, umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish-maktab boshqaruvida hamda ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son farmoni.
3. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 345-son "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari reytingini aniqlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori.
4. Кричевский В. Ю. Профессия – директор школы : монография / В. Ю. Кричевский. – СПб. : СПбАППО, 2004. – 272 с.
5. Iram Ali, Khaliq Ur Rehman Cheema "Evaluation of Principal Performance in Public and Private Sector Schools" Journal of Leadership & Organizational Studies. Volume-2. September 2013.
6. Mercy Obianuju Nwogbo " Effectivness of principals' role performance in curriculum and instructional development in public secondary schools in Anambra State". Unizik Journal of Educational Research and Policy Studies Vol..3; <https://unijerps.org> January-June, 2021.
7. Philip Hallinger, Patchanee Taraseina, Jack Miller "Assessing the Instructional Leadership of Secondary School Principals in Thailand". Article Published in 1994 School Effectiveness and School Improvement, 5(4), 321-348.

## **TABIIY FANLAR (SCIENCE) O'QITUVCHILARI KASBIY MALAKALARINI OSHIRISH**

***Amirullayeva Barno Abdulhaqovna,***

*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim tizimida tabiiy fanlar (SCIENCE) ni o'qitish, tabiiy fanlar (SCIENCE) o'qituvchilarining malakasini oshirishdagi muammolar, malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish.

**Kalit so'zlar.** Integratsiya, kasbiy malaka, tabiiy fanlar(SCIENCE), o'qituvchilar malakasini oshirish, tabiiy fanlar bo'yicha bilimlar, pedagogik bilimlar, bir umrlik ta'lim.

**Аннотация.** В данной статье преподавание естественных наук (SCIENCE) в системе образования, проблемы повышения квалификации учителей естествознания (SCIENCE), развития профессионального потенциала учителей в процессе повышения квалификации.

**Ключевые слова.** Интеграция, профессиональная квалификация, естественные науки (SCIENCE), подготовка учителей, естественнонаучные знания, педагогические знания, обучение на протяжении всей жизни.

**Abstract.** In this article, teaching of natural sciences (SCIENCE) in the educational system, problems in improving the qualifications of natural sciences (SCIENCE) teachers, developing the professional potential of teachers in the process of professional development.

**Keywords.** Integration, professional qualification, natural sciences (SCIENCE), teacher training, knowledge of natural sciences, pedagogical knowledge, lifelong learning.

Har bir o'zgarishga moslasha oladigan o'qituvchi bo'lish uchun o'qituvchi universitet yillaridan to pedagogik faoliyati oxirigacha doimiy tajribasini rivojlantirib borishi talab etiladi. Tabiiy fanlar bo'yicha bilimlar tez o'zgarib, ijtimoiy masalalarga keng ta'sir ko'rsatayotganligi sababli o'qituvchilarning bilim va kasbiy malakalarini oshirish uchun muntazam imkoniyatlarga ega bo'lishlari zarur. Qo'shma Shtatlar

va ba'zi rivojlangan mamlakatlarda ta'lim fanlari bo'yicha milliy standartlar, jumladan, fan o'qituvchilari uchun malaka oshirish standartlari ishlab chiqilgan [1]. Ularning fikricha, fan o'qituvchilarining malakasini oshirish standartlari o'qituvchilarning mutaxassislik bo'yicha keng va chuqur bilimlar bilan bir qatorda nafaqat integral umumlashtirilgan bilimlarni, balki tabiiy fanlarni o'qitishni tashkil etish qobiliyatini ham rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. O'qituvchilarning malakasini oshirish standartlari asosida, bir tomondan, tartibga soluvchi organlar har yili o'qituvchilarning malakasini oshirish va o'qituvchilarning standartlarga qay darajada erishayotganini baholash uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqadi, boshqa tomondan, o'qituvchilar o'zlarining malaka oshirish salohiyatini mustaqil ravishda oshiradilar. Bundan tashqari, OECDning Evropada o'qitish salohiyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash masalasiga oid hisobotida (2013) o'qitish salohiyatini rivojlantirish masalasiga quyidagilar kiradi: (1) pedagogik salohiyatning hozirgi holatini aniqlash; (2) o'qituvchilarning samarali o'rganish va salohiyatini rivojlantirishda faol ishtirokini rag'batlantirish [2].

Darhaqiqat, tabiiy fanlar (SCIENCE) o'qituvchilarining malakasini oshirish ishlari hali ham ko'plab kamchiliklarga duch kelmoqda. Malaka oshirish hududiy markazlarida alohida fan o'qituvchilari uchun kurslar tashkil etilgan ammo aynan tabiiy fanlar(SCIENCE) uchun alohida kurslar tashkil etilmagan. O'qituvchilar malakasini oshirish standart talablari ishlab chiqilmagan. Pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida tabiiy fanlar(SCIENCE) uchun o'quv kurslari o'qitilmayapdi. Bakalavr darajasidagi bitiruvchi maktabga tabiiy fanlar (SCIENCE) bo'yicha umumiy tushunchaga ega bo'lmasdan bormoqda.

### **Umuman tabiiy fanlar o'qituvchilarining malakasini oshirish o'zi nima?**

Kasbiy rivojlanish, keng ma'noda, o'qituvchining kasbiy salohiyatini oshirishdir. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, "Kasbiy o'sish – o'qituvchining o'qituvchi faoliyatidagi tajribalarni tizimli ravishda o'zlashtirishi natijasida erishgan kasbining o'sishidir" [3].

Tabiiy fanlar o'qituvchilarining malakasini oshirish o'qituvchilarning bilim, malaka va kasbiy ko'nikmalarini bosqichma-bosqich oshirishga qaratilgan maqsadli, tizimli va uzluksiz jarayonlar va tadbirlarni o'z ichiga oladi; bu orqali o'qituvchilarning tabiiy fanlarni o'rganish sifati yaxshilanadi. Tabiiy fanlar o'qituvchilarining malakasini oshirish o'quv jarayonidan boshlanib, so'ngra asosiy mazmuni tabiatni o'rganish tamoyillari va jarayonlari bo'lgan bilimlar bazasini kengaytirishi kerak. Ana shu bilimlar bazasi asosida umumiy, asosiy va fundamental bilimlarni shakllantirish yo'nalishida tabiiy fanlarni o'qitishga o'qituvchilar tayyorlanadi; tabiiy fanlar

o'qituvchilarining malakasini oshirish tabiiy fanlarning pedagogik kasbiy bilimlarini rivojlantirish, shuningdek, turli davrlarda ta'lim islohotlariga moslashish uchun o'zlarining umrbod ta'lim qobiliyatini rivojlantirish bilan birga bo'lishi kerak [4].

### **Tabiiy fanlar o'qituvchilari uchun kasbiy malaka nima uchun ishlab chiqiladi?**

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining gullab-yashnashi yangi aloqa vositalarini yaratdi, o'rganish imkoniyatlari va qobiliyatini kengaytirdi. Har bir inson o'z qobiliyati va sharoitiga qarab turli shakllarda o'rganishi mumkin. Maktabdagi o'qitish endi hamma uchun yagona va asosiy ma'lumot manbai bo'lib qolmadi. Shu nuqtai nazardan, maktab ta'limi nafaqat bilimlarni uzatishda, balki o'z-o'zini o'rganish, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini qabul qilishning barqaror rivojlanishida ham hal qiluvchi rol o'ynaydi.

YUNESKO XXI asr o'qituvchilarining roli ko'proq funksiyalarni o'z zimmasiga olish, ta'lim mazmunini tanlashda mas'uliyatlarini oshirish, o'quvchilarning bilim olishi uchun harakat qilishi, manbalardan maksimal darajada foydalangan holda individual shaklida o'qitish yo'nalishida o'zgarib bormoqda, deb hisoblaydi. Ular o'zlarining kasbiy malakalarini doimiy ravishda oshirishlari uchun, mustaqil ta'lim olish uchun axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanishni bilishlari kerak. Hamkasblar bilan yanada yaqinroq hamkorlik qilish, jamoada ishlash, muloqot qilish, ijtimoiy munosabatlarda, ota-onalar, o'quvchilar va jamoat tashkilotlari bilan ishlashda o'zini tutish ko'nikmalariga ega bo'lish talab etiladi. O'qituvchilar maktabda va maktabdan tashqari tadbirlarda faol ishtirok etishlari kerak [5].

Bugungi kun talabi bo'yicha tabiiy fanlar o'qituvchilari o'z kasbiy malakalarini oshirib borish uzluksiz jarayondir. Insonning ilmiy bilimlari sifat va miqdor jihatdan doimo o'zgarib bordi. Hisob-kitoblarga ko'ra, o'tgan asrning 70-yillarida inson bilimi 8-10 yil oralig'ida ikki baravar ko'paygan, ammo bugungi kunda bu sikl atigi 4 yilni tashkil etadi [51]. Bu qarama-qarshilikni keltirib chiqaradiki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabiiy fanlar bo'yicha o'quvchilarga o'rgatilgan bilimlar yetarli emas va kelajakda o'quvchilar tomonidan qo'llanilishi uchun kam yoki deyarli qo'llanilmaydi. Bu qarama-qarshilik faqat o'z kasbiy faoliyatida o'qituvchilar nafaqat bilimlarni tarqatuvchi bo'libgina qolmay, balki tabiiy fanlarni integratsiya asosida o'qitish orqali o'rganish, tadqiq qilish faoliyatini tashkil etuvchi, yo'naltiradigan, hakamlilik qiladigan, o'quvchilarning mustaqil ravishda yangi bilim olishlariga yordam beradigan bo'lsa, hal qilinadi. Shuning uchun o'qituvchilar muqarrar ravishda o'z-o'zini rivojlantirishi, o'z-o'zini tarbiyalashi, bilimlarni boyitib borish va yangilash uchun o'zini o'zi tayyorlashi kerak. Boshqacha qilib aytganda, o'qituvchilar pedagogik salohiyatini saqlab qolishi uchun umrbod ta'lim olishlari kerak.

Pedagoglarning malakasini oshirish kasbiy faoliyatning uzluksiz, umrboqiy jarayonining ikki davri sifatida qaraladi; shu jumladan pedagogika oliy o'quv yurtlarida boshlang'ich ta'lim va o'qituvchilarni ularning amaliyoti davomida rag'batlantirish va rivojlantirish [6]. Ushbu ikki davrda boshlang'ich tayyorgarlik asos bo'lib, keyinchalik o'qituvchilarni bosqichma-bosqich tarbiyalash va rivojlantirish uchun mustahkam poydevor qo'yadi. Buning uchun boshlang'ich ta'lim o'qituvchida o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantirishi kerak. Amaliyot davomida o'qituvchilar o'z kasblarini mustaqil o'rganish orqali rivojlantirishlari kerak, shu jumladan o'z martabasi uchun zarur bo'lgan narsalarni aniqlash, tan olish, so'ngra o'z-o'zini tarbiyalash va kasbiy malakasini oshirish uchun mos o'quv usulini topish.

Hozirgi vaqtda milliy o'quv dasturi bo'yicha tabiiy fanlar (SCIENCE) sohasi quyidagi fanlar integratsiyasi asosida tuzilgan: fizika, kimyo, biologiya, geografiya, ximiya va astronomiya. Ushbu fanni 5-6 sinflarda o'qitish vazirlar mahkamasining 2021 yil 24-dekabrda 414-sonli buyrug'i bilan fizika, biologiya, geografiya fanlari o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi. Bu fan o'qituvchilari o'z mutaxassisligi bo'yicha yetarli bilimga ega ammo, tabiiy fanlar o'rtasidagi bog'liqlik va integratsiya asosida o'qitishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Bu muammolarni hal qilish bo'yicha A. Avloniy nomidagi milliy tadqiqot institutida bir qancha ishlar qilindi, jumladan: 3-sinf va 6-sinf tabiiy fanlar (SCIENCE) o'qituvchilari uchun maxsus elektron platforma yaratildi. Ushbu platformaga bir qancha videodarslar joylashtirildi. Bu platformada jami 32301 ta 6-sinf tabiiy fanlar (fizika, geografiya, biologiya) o'qituvchilari ro'yxatdan o'tdi va shundan 25507 ta o'qituvchi o'ttiz olti soatlik kurs davomida o'z malakalarini oshirdilar va tabiiy fanlar (SCIENCE)ni o'qitish huquqini beruvchi sertifikatga ega bo'ldilar.

Hozirda Tabiiy fanlar o'qituvchilarining malakasini oshirish an'anaviy ravishda davom etmoqda; o'qituvchilar ehtiyojlari o'rganilmasdan barcha o'qituvchilar uchun bir xil o'quv dasturi asosida darslarni tashkil etilishi va natijada o'qituvchilarning ehtiyojlarini qondira olmaslik; barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun o'qituvchilarning malakasini oshirish hali ham tartibsiz va tizimli emas. Tabiiy fanlar o'qituvchilari uchun tashkil etiladigan seminarlar, turli malakalar bo'yicha o'qituvchilar uchun muntazam treninglarni sifatli tashkil etilishiga ham e'tibor qaratish lozim.

Kelgusi ta'lim islohoti davrida tabiiy fanlar (SCIENCE) o'qituvchilarining malakasini oshirish ishidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun qanday yo'l tutishimiz kerak degan savol tug'iladi.

Tabiiy fanlar(SCIENCE) o'qituvchilarining malaka oshirish salohiyatini shakllantirishning ilmiy argumenti quyidagilardan iborat: tabiiy fanlar(SCIENCE) ni o'rgatuvchi o'qituvchi printsiplar, tabiiy jarayonlar haqida keng va umumiy bilimga ega bo'lishi, bundan tashqari, ular tabiiy fanlar bilim bazasida chuqur bilimga ega bo'lishlari kerak. Ilmiy-texnikaviy ixtisoslikni tushunish ilmiy mutaxassislik doirasidan tashqariga chiqishi zamonaviy fan va texnikaning talabidir. "... ixtisoslashgan mazmunni chuqur o'rganish va sabab-oqibat haqida keng bilimga ega bo'lish uchun umumiy ko'lamli keng tushuncha olimlarning "2 dan 1" sifatidir..." [1]. 4.0 sanoat inqilobi davrida umumiy o'rta ta'lim maktabi tabiiy fanlar(SCIENCE) o'qituvchilari nafaqat o'z sohalari bo'yicha balkim yangi ta'lim tendentsiyasi bo'lgan integratsiyalashgan ta'lim, STEM, STEAM ta'limi, axborot savodxonligi bo'yicha ham bilim va salohiyatga ega bo'lishi kerak.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib, biz umumiy o'rta ta'lim muassasalarining tabiiy fanlar(SCIENCE) o'qituvchilari uchun quyidagi uchta komponentni o'z ichiga olgan holda malaka oshirish salohiyatini shakllantiramiz:

*1-rasm. Tabiiy fanlar(SCIENCE) o'qituvchilari malakasini oshirish salohiyati*



## **1. Tabiiy fanlar(SCIENCE) bilimlarini rivojlantirish**

- Zamonaviy tabiiy fanlar(SCIENCE) mohiyatini aniq tushunish.
- Keng bilimlarni birlashtirish va bog'lash bilan umumiy bilimlarni o'zlashtirish.
- Tabiiy fanlar( Fizika, Kimyo, Biologiya, geografiya, ximiya, astronomiya) bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish
- Keng aloqa va integratsiyaga ega mavzularni loyihalash: (1) - har bir fanning mazmunini tashkil etuvchi mavzular; (2) Nazariy masalalarni o'rganish va barqaror rivojlanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, toza energiya strategiyasi, iqlim o'zgarishi,
- Shaxsiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishda tabiiy fanlar(SCIENCE) bo'yicha bilimlarni qo'llash.

## **2. Pedagogik bilimlarni rivojlantirish**

- Tabiiy fanlarning ba'zi o'ziga xos ta'lim nazariyalarini qo'llash.
- Tabiiy fanlar (SCIENCE)ni o'qitishni o'quvchilarni tajriba faoliyatiga jalb etadigan tarzda tashkil etish.
- Tabiiy fanlar (SCIENCE)ni o'qitishning turli usullarini, ayniqsa, o'qitishni tashkil etishning turli shakllari bilan uyg'unlashgan eksperimental, tadqiqot yo'nalishidagi metodlarni qo'llash.
- Tabiiy fanlar (SCIENCE) bo'yicha amaliy ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish.

## **3. Bir umrlik ta'lim salohiyatini rivojlantirish**

- Mavjud ommaviy axborot vositalari orqali malaka oshirish uchun resurslarni ishlab chiqish.
- Kasbiy malakani eng samarali tarzda oshirish bo'yicha o'zining pedagogik faoliyat natijalariga tanqidiy yondoshish, mulohaza yuritish va o'z-o'zini rivojlantirish.
- Maktabda va maktabdan tashqarida kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini ta'minlashi uchun tajriba almashish.

Ilm-fan va texnologiyaning jadal rivojlanayotgan davrida o'qituvchilar yetarli darajada o'qitish qobiliyatiga ega bo'lish uchun o'zlarining kasbiy malakalarini doimiy ravishda oshirishlari kerak. Shu bois tabiiy fanlar(SCIENCE) o'qituvchilarining umrbod bilim olishi va rivojlanishi uchun ularning malakasini oshirish standartlarini ishlab chiqish zarur. Bu, shuningdek, tabiiy fanlar(SCIENCE) o'qituvchilarning o'zini o'zi baholashi va boshqaruv darajalari uchun har yili o'qituvchilarning

sifatini tekshirish uchun asosdir. Shu bilan birga, standartlar asosida oliy ta'lim muassasalarida talabalar uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqish va umumiy ta'lim darajasida o'qituvchilarni tayyorlash dasturlarini yaratish mumkin. Shuningdek, u o'qituvchilar uchun siyosat rejimlarini taklif qilish uchun asosdir. Biroq, yuqorida aytib o'tilganidek, o'qituvchilarning malakasini oshirish muntazam va uzluksizdir, shuning uchun standartlarni kelajakdagi o'qituvchilar malakasini oshirish uchun quyistandardlarga va amaliyotda o'qituvchilarning malakasini oshirish standartlariga bo'lish mumkin emas. Standartlarning o'rnatilishi oliy ta'lim muassasalarida jarayon bo'yicha, malaka oshirayotgan o'qituvchilarni muntazam ravishda malakasini oshirish bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Umumta'lim va tabiiy fanlar o'qituvchilarining malakasini oshirish, xususan: (1) ta'lim muassasasi va boshqa kasbiy ob'ektiv talablardan kelib chiqadi; (2) o'qituvchilarning o'zlarining kasbiy rivojlanish talablaridan kelib chiqqan holda. Boshqa mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish ularning shaxsiy ehtiyojlariga aylanganda, malaka oshirish shakllari haqiqatan ham foydali bo'ladi va o'qituvchilarni ixtiyoriy jalb qiladi. Bundan tashqari, tabiiy fanlar o'qituvchilarining malakasini oshirish sifatini ko'tarish bilan bog'liq holda, o'qituvchilarni mustaqil va ijodiy faoliyat yuritishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish, ulardan foydalanish rejimiga ega bo'lishi kerak; o'qituvchilik kasbi va o'qituvchilarning o'zlari uchun imtiyozli rejim va jamiyatning sharafiga.

Tabiiy fanlar bilimlarining mazmuni tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan va o'zgarib borayotganligi sababli, fan o'qituvchilarining bilimlari doimiy ravishda yangilanib turishi kerak. Tabiiy fanlar(SCIENCE) bo'yicha integratsiyalashgan ta'lim 4.0 inqilob davrida ajralmas tendentsiyaga aylandi, shuning uchun tabiiy fanlar(SCIENCE) o'qituvchilaridan ma'lumotlarni nazariy va texnologik qo'llash nuqtai nazaridan doimiy ravishda yangilashni talab qiladi. Bundan tashqari, tabiiy fanlar o'qituvchilari o'quv dasturlarini ishlab chiqish va tuzatishda ishtirok etishlari kerak. Bu masalalarning barchasi tabiiy fanlar o'qituvchilaridan zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan ilmiy tamoyillarni nazariylashtirish tendensiyasiga moslashish uchun o'z kasbiy faoliyatini doimiy ravishda rivojlantirishni taqozo etadi. Tabiiy fanlar 4.0 sanoatining inqilob davri talablariga javob beradigan ta'limning asosiy sohasidir. STEM, STEAM ta'limi fanlararo model bo'lib, zamonaviy nazariy va texnologik masalalarni hal qiladi. Demak, tabiiy fanlar o'qituvchilari integral o'qitishning asosi sifatida keng bilimga ega bo'lishi kerak. Ushbu bilimlarni olish uchun o'qituvchilar oliy o'quv yurtida o'qigan yillaridan boshlab o'zlarining uzoq muddatli kasbiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqishlari kerak, u yerda ular bilimga ega bo'ladilar va o'qitishda ba'zi tajribalar oladilar. Shundan so'ng ular o'z faoliyatining birinchi yillarida boshqa o'qituvchilar bilan ishlashda, kasbiy rivojlanish imkoniyatlaridan

foydalangan holda, o'zlarining va tengdoshlarining sa'y-harakatlarini o'rganishda haqiqiy vaziyatlarni boshdan kechiradilar. Ushbu ketma-ket rivojlanish jarayoni pedagogika maktablarida o'qituvchilar tayyorlash va umumiy ta'lim darajasida o'qituvchilar avlodi o'rtasidagi o'tishda namoyon bo'ladi. Boshlang'ich ta'lim uchun asosiy mas'uliyat pedagogika maktablarida, ammo keyingi o'quvlar malaka oshirish jamiyati tomonidan amalga oshiriladi. umumiy ta'lim maktablari. Muntazam ravishda o'qitilayotgan o'qituvchilar jamoasi umumiy o'qituvchilarning, xususan, tabiiy fanlar o'qituvchilarining malakasini oshirishda katta rol o'ynaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. National Research Council - National Academy of Sciences (1996). National standards in science education.
2. OECD (2013), Supporting teacher competence development for better learning outcomes, retrieved at
  - a. [http://ec.europa.eu/dgs/education\\_culture/repository/education/policy/school/doc/teachercomp\\_en.pdf](http://ec.europa.eu/dgs/education_culture/repository/education/policy/school/doc/teachercomp_en.pdf).
3. Glatthorn, A, 1995. Teacher development. In: Anderson, L. (Ed.), International encyclopedia of teaching and teacher education (second edition). London: Pergamon Press.
4. Ha Thi Lan Huong, 2017. Building Professional Development Standards for Sciences Teachers - Lessons from the United States for Teacher Development in Vietnam. Summary record of international scientific seminar: Developing a teaching staff to meet the requirements of renovating common education. Publishing House of Hanoi National University of Education, pp. 20-2-2.
5. UNESCO (2003). Teacher professional development. An international review of literature. Paris.
6. Ha Thi Lan Huong, 2014. Teacher training method in pedagogical universities to meet the requirements of renovating common education after 2015. Journal of Science, Hanoi National University of Education, 59 (6A), p. 234-241.

## INGLIZ TILI DARSLARIDA BLUM TAKSONOMIYASIDAN FOYDALANISH

***Bobojonova Iroda Yusupjon qizi,***

*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muallif Blum toksonomiyasini ta'lim jarayoniga tadbiq etishning samarali usullarini bayon qiladi. Blum taksonomiyasi va uning o'qitishdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar beriladi, ingliz tili darslarida o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishda Blum taksonomiyasi asosida o'quv maqsadlarini belgilash to'g'risida tavsiyalar keltiriladi.

**Kalit so'zlar.** Ko'nikma, taksonomiya, bilim, tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, savodxonlik.

**Аннотация.** В этой статье описываются эффективные способы внедрения метода таксономии Блум в образовательный процесс. Предоставляется информация о таксономии Блума и ее значении в обучении. Даны рекомендации по постановке образовательных целей на основе таксономии Блума на уроках английского языка.

**Ключевые слова.** Навыки, таксономия, знания, анализ, критическое мышление, творчество, грамотность.

**Abstract.** This article describes effective ways to implement Bloom's taxonomy method into the educational process. Information is provided on Bloom's taxonomy and its implications for learning. Recommendations are given for setting educational goals based on Bloom's taxonomy in English lessons.

**Keywords.** Skills, taxonomy, knowledge, analysis, critical thinking, creativity, literacy.

Til o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish va rivojlantirish, ya'ni nutq faoliyatining har xil turlarini o'rgatishdan iborat. Ingliz tilini o'qitishda ikkita asosiy metodologiya mavjud bo'lib, birinchisi, o'quvchilarda nutq ko'nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirish va rivojlantirish hamda o'quvchilarni nutq faoliyatining u yoki bu shakldagi zaruriy malakalar bilan ta'minlash, ikkinchisi, o'ylab, muammoli vaziyatlarni hal qilish, shunda o'quvchilar o'z maqsadlari bayonotining mazmuniga e'tibor qaratadi, tafakkur diqqat markazida esa til asosiy vosita vazifasini bajaradi. Ingliz tilini o'qitishda Blum taksonomiyasidan foydalanish yuqoridagilarni hal qilishga hissa qo'shadi.

Blum tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishda oltita darajaga ajratdi. Bir necha bosqichli savollar tizimining asosiy maqsadlari: o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalariga oid bo'lgan tanqidiy fikrlashni hosil qilishga yordam berish, ijodkorlik, muloqot o'rnata olish, o'zaro hamkorlikda ishlash qobiliyatini rivojlantirish hamda muammolarni yechish va maqsadli obyektiv yechimlarni topishdan iborat.

Blum taksonomiyasi yordamida o'qituvchi nafaqat o'quv maqsadlarini aniqlashtirishga, balki ularni o'zaro bog'liq bo'lgan qat'iy ketma-ketlikda joylashtirishga muvaffaq bo'ladi. O'quv maqsadlarining bunday ifodalanishi, o'qituvchi uchun o'quvchilarga, ularning bilish faoliyati holatini tushuntirish, bu faoliyatni yakuniy natija tomon aniq yo'nalish olishga undashi uchun imkoniyat yaratadi.

O'quvchilarning aqliy, kognitiv faoliyati samaradorligini oshirish va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun ingliz tili darslarida Blum taksonomiyasi asosida ishlab chiqilgan vazifalardan foydalanish o'rganilgan materialni yodlash va takrorlashdan tortib to muammoni hal qilishgacha bo'lgan maqsadlarni ochib beradi, Blum taksonomiyasining tuzilishi bo'yicha mashqlarni joriy etish o'rganishda tabaqalashtirilgan yondashuvni aks ettirishga imkon beradi, chunki ularni bajarayotganda talaba o'zining bilim sifati darajasida to'xtashi yoki aksincha, o'z imkoniyatlarini kengaytirishga va yuksalishga harakat qilishi mumkin. Blum taksonomiyasi asosida tuzilgan vazifalarning har biri bosqichma-bosqich murakkablashtirib borilgan, shu bilan birga, har birining kognitiv darajalarida imkon qadar ko'p bosqichlardan o'tish imkoniyati mavjud. Bunday vazifalarni baholab, o'qituvchi o'zi uchun talabaning darajasini aniq belgilaydi, mavjud qiyinchiliklarni ko'radi hamda ularni hal qilish yo'llarini belgilaydi.

Blum taksonomiyasi ta'lim maqsadlarining iyerarxik ravishda o'zaro bog'langan tizimidir. Uning har bir darajasi ma'lum fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan (oddiydan murakkabgacha). Blum piramidasi (dastlabki shakli) bilimga asoslangan bo'lib, uchta yuqori darajadagi (tahlil, sintez, baholash) fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi.

| Fikrlash qobiliyatlari       | Tarkib                                                                 | O'qituvchi faoliyati                                                                                          | O'quvchilarning o'quv faoliyati                                                                                                                                                                                                                                                                         |
|------------------------------|------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Bilish (esda saqlash)</b> | Ma'lumotni tarjima qilish va tanib olish.                              | Aytadi, ko'rsatadi, ko'rsatma beradi, baho beradi.                                                            | Tinglaydi, eslaydi, o'zlashtiradi, yoddan bilib oladi, nomlaydi, iqtibos keltiradi, tanib oladi (allaqachon tanish bo'lgan narsa yoki hodisani).                                                                                                                                                        |
| <b>Tushunish</b>             | Taqdim etilgan ma'lumotlarni tushunish; o'z so'zlari bilan takrorlash. | To'g'ri (qoida bilan) tekshiradi, taqqoslaydi, ko'rsatadi.                                                    | Muhokama qiladi, tanib oladi, aytadi, tushuntiradi, muloqot qiladi, misollar ko'rsatadi.                                                                                                                                                                                                                |
| <b>Qo'llash</b>              | Yangi vaziyatlarda tushunchalar, g'oyalardan foydalanish.              | Kuzatadi, e'tibor beradi, targ'ib qiladi, yordam beradi, tanqid qiladi.                                       | Foydalanadi, hisoblaydi, ko'rsatadi, ko'rib chiqadi, sinab ko'radi, tasvirlaydi, misollar keltiradi, sharhlaydi, nisbatni aniqlaydi, ro'yxat tuzadi.                                                                                                                                                    |
| <b>Tahlil qilish</b>         | Axborot ma'lumotlarini o'zaro bog'langan qismlarga bo'lish.            | Hamrohlik qiladi, ko'rsatma beradi.                                                                           | Tahlil qiladi, tartibga soladi, tizimlashtiradi, taqqoslaydi, bog'lanishni o'rnatadi (so'zlar, butunning qismlari o'rtasida), qarama-qarshi qo'yadi, ajratadi, farqlaydi, qismlarga ajratadi, hosil qiladi (xulosa, oqibatlar va boshqalar), tartibga soladi, savol beradi.                             |
| <b>Baholash</b>              | Mezonlar asosida qiymatni aniqlash.                                    | Aniqlashtiradi, kelishuvga olib keladi, xulosa qiladi.                                                        | Baholaydi, bahslashadi, dalillar keltiradi, aniqlaydi (qiymat, qadr, foyda, zarar), afzalliklarini ko'rsatadi, tanlov qiladi, (talablarga, standartlarga, mezonlarga) mos keltiradi, xulosa chiqaradi, ishontiradi, qaror qabul qiladi, himoya qiladi, hakamlilik qiladi, ta'minlaydi, bashorat qiladi. |
| <b>Yaratish</b>              | Xulosalar asosida yangi mahsulot/ g'oya yaratish.                      | Kuzatadi, e'tibor beradi, qo'llab-quvvatlaydi, fikr-mulohaza birdiradi, baholaydi, kamchiliklarni ko'rsatadi. | Quradi, birlashtiradi, tuzadi, yaratadi, loyihalaydi, ishlab chiqadi, shakllantiradi, rejalashtiradi, bashorat qiladi, taklif qiladi, hal qiladi/ychadi, o'zgartiradi, yaxshilaydi, moslashtiradi, minimallashtiradi, maksimallashtiradi.                                                               |

Ushbu bilish darajalariga asoslangan vazifalardan alohida grammatik mavzu bo'yicha ham, darslikning butun bo'limi bo'yicha foydalanish mumkin. Bunday mashqlar ko'proq vaqt talab qilganligi bois ularni aniq rejalashtirilgan vaqt davomida o'tkazish tavsiya etiladi. O'quvchilar asta-sekin oddiydan murakkabga o'tishlari kerak.

O'quvchilarning Blum taksonomiyasi bo'yicha bilishga oid o'quv maqsadiga erishganlik darajasini nazorat qilishda ular tomonidan muayyan mavzu bo'yicha ma'lumot va axborotlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiq. Buning uchun o'quvchi mavzu bo'yicha atamalar, qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo'nalishlar, kategoriyalarni eslashi, takrorlay olishi, asar voqealarini bayon qila olishi, ularga ta'rif berishi, ma'lumotlarni qayta ishlashlari, o'z fikrini bayon qilishi, obyekt yoki voqeaning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishi kerak bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Blum taksonomiyasidan foydalanish ingliz tili fani o'qituvchilariga amaliy yordam beradi, o'quvchilarda yuqori darajali fikrlashni shakllantirishga va ularni til muhitiga singdirishga ko'maklashadi, deb umid qilamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Бакшина О.В., Газыева Т.В. “Таксономия Блума как одно из средств развития функциональной грамотности учащихся на уроках английского языка”.
2. Т.М. Горегляд. “Таксономии Блума на занятиях по английскому языку”.

## FUQAROLIK JAMIYATI VA TA'LIM SOHASIDA JURNALISTIKANING O'RNI

***Ishmuratova Sevara Shuxratjanovna***

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi

Umumiy bo'lim boshlig'i.

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti.

***Djumaniyazova Muyassar Mamatsheripovna***

A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti Matbuot kotibi

**Annotatsiya.** Maqolada axborot globallashuvi dunyo mamalakatlaridagi shart-sharoit va ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotimizdagi umumiylikni, o'xshashliklarni tahlil qilib berilgan. Ushbu maqola, shuningdek, zamonaviy jamiyatdagi ta'lim va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi munosabatlarga bag'ishlangan va rasmiy ta'lim ommaviy axborot vositalarining o'quv dasturiga qo'shilishida va XXI asr uchun zarur bo'lgan raqamli savodxonlik qobiliyatlarida qanday rol o'ynashi kerakligini o'rganadi.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, OAV erkinliklari, gazeta, jurnal, TV va radio, media ta'lim, media savodxonlik, jurnalistika savodxonligi, raqamli savodxonlik.

**Аннотация.** В статье анализируется глобализация информации, условия в странах мира, общие черты и сходства в нашей общественно-политической, духовной и просветительской жизни. В этой статье также рассматривается взаимосвязь между образованием и средствами массовой информации в современном обществе и исследуется роль, которую формальное образование должно играть как в интеграции средств массовой информации в учебную программу, так и в приобретении навыков цифровой грамотности, необходимых в XXI веке.

**Ключевые слова:** глобализация, свобода СМИ, газеты, журналы, телевидение и радио, медиаобразование, медиаграмотность, журналистская грамотность, цифровая грамотность.

**Annotation.** The article analyzes the globalization of information, the conditions in the countries of the world and the commonalities and similarities in our socio-political, spiritual and enlightenment life. This article examines the probable relationship between education and media in modern culture, as well as

the role that formal education should play in integrating media into the curriculum and developing the digital literacy skills required for the twenty-first century.

**Keywords:** globalization, media freedoms, newspapers, magazines, TV and radio, media education, media literacy, journalism literacy, digital literacy.

O'zbekiston davlati mustaqillikka erishganidan keyin bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan mustaqil fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish, inson manfaatlarini qondirish, ular huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish asnosida barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga va adolat prinsiplarining amal qilishiga erishish kabi ezguliklarga asoslanadigan muhitni yaratish uchun fuqarolik jamiyati qurishni asosiy strategik maqsad sifatida e'lon qildi.

Fuqarolik jamiyati – ochiq ijtimoiy tuzilma. Unda so'z erkinligi, shu jumladan, tanqid qilish erkinligi, oshkoralik, har xil axborotlar olish erkinligi, har bir hududga erkin kirish va chiqish huquqi, boshqa mamlakatlar bilan keng miqyosda, doimiy asosda axborot, ta'lim texnologiyalari almashinuvi, chet davlatlar va jamoat tashkilotlari bilan madaniy va ilmiy hamkorlik, xalqaro huquq prinsiplari va normalariga muvofiq xalqaro xorijiy birlashmalar faoliyatiga ko'maklashish ta'minlanadi. U umumiy insonparvarlik tamoyillariga sodiq bo'lib, dunyo miqyosidagi shunday tuzilmalar bilan o'zaro aloqa qilish uchun ochiqdir.

Ta'kidlash lozim, insoniyat "globallashuv" deb atalgan yangicha hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan va bu aloqalar jadal sur'atlarda kengayib, chuqurlashib borayotgan yangi taraqqiyot bosqichiga chiqdi. Buning natijasida "globallashuv" so'zi iqtisodiygina emas, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa qariyb barcha sohalaridagi umuminsoniy jarayonlarni qamrab oluvchi tushunchaga aylanib ulgurdi.

Axborot globallashuvi dunyo mamlakatlaridagi shart-sharoit va ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotimizdagi umumiylikni, o'xshashliklarni keltirib chiqardi. Buning oqibati o'laroq ommaviy axborot vositalarining erkinligi ekanligini inkor etish mumkin bo'lmay qoldi, biror taraqqiy etgan mamlakat matbuotini erkinlashtirish sohasida erishilgan ilg'or tajribalarni uzoq-yaqin davlatlarga tarqatish imkoniyatlari ko'paydi, jurnalistika maktablarini qamrab olishga qodir ko'plab muhim xalqaro hujjatlar yaratildi va hayotga tatbiq etildi, dunyo mamlakatlaridagi matbuot erkinligi ahvolini xalqaro miqyoslarda kuzatish, ular haqida fikr-mulohaza yuritish, bahosini berish va shu asosda muayyan mamlakatdagi ahvol haqida dunyo jamoatchiligi fikrini shakllantirish odati birmuncha ommalashdi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Beruniy Alimov. Axborot globallashuvi jarayonida jurnalistikaning yangi vazifalari. <http://beruniyalimov.uz/archives/659#:~:text=http%3A%2Fjournalist.uz%2Fcategory%2Fnazariya%2Dva%2Damaliyot%2Duz%2Filmij%2Dma%2Ddolalar/>. T.: 2020

Tabiiyki, bularning barchasi dunyoni yaxlit axborot maydoniga aylantirib ulgurmoqda. Jurnaslitka fuqarolik jamiyatida o'z o'rniga ega bo'lmoqda.

E'tirof etish kerak, endilikda davlatlarning qudrati, salohiyati nechog'li ko'p axborotga egaligi bilan o'lchanmoqda. Eng muhimi, axborotga egalik qilish tevaragida raqobat har qachongidan kuchayib bormoqda. Mazkur jarayonning o'zi jurnalistikaning qaror topishini, rivojlanishini, pirovard natijada butunjahon jurnalistikasi xususiyatlarining umumiylashuvini jadallashtirmoqda.

Inson va fuqaroning tabiiy huquqlarini so'zsiz e'tirof etish va himoya qilish hamda so'z va matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi fuqarolik jamiyatining eng muhim omillari hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati qator tamoyillarga tayangan holda faoliyat ko'rsatadi. Xususan, siyosiy sohada hamma insonlarning huquq va erkinliklarining tengligi, fuqarolarni erkin, madaniyatli, ma'naviy va ijtimoiy faol, jamiyat a'zolarini qonun oldida ma'suliyatli qilib shakllantiradigan fan, madaniyat, ta'lim va tarbiya uchun zaruriy moddiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratish, faqat qonun bilan cheklangan davlat senzurasidan tashqari erkin faoliyat yuritadigan OAV yaratish va faoliyat yuritish erkinliklari.

Darhaqiqat, demokratiya va inson xuquqlari, urush va tinchlik, giyohvandlik, terrorizm, ekologik muammolar, shuningdek, Yevropa davlatlarining dunyo hamjamiyatiga integratsiyasi masalalarini jahondagi deyarli barcha yirik OAV sahifalarida ko'rish, kuzatish mumkin. Shunday ekan, fuqarolik jamiyatida aynan OAVning sahifalari yaqqol o'z aksini ko'rsatib kelmoqda.

Axborot globallashuvi jarayonida hayotimizni ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur etishimiz juda qiyin. Ayniqsa, har bir sohada bo'layotgan o'zgarishlar, imkoniyatlar bugun ushbu jarayonda axborot tezlashuvini, o'zaro fikr almashishni talab etadi. Bunda esa albatta jurnalistikaning o'rni va roli beqiyos. Sababi, har bir inson bugun o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotni ommaviy axborot vositalari orqali topish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Televideni, gazeta, radio, ijtimoiy tarmoqlar deysizmi, barchasida ma'lumotlar tezkorlik bilan nashr etilib, aholiga vaqtida yetkazilmoqda.

Axborot va axborotlashtirish o'zi nima? Uning jamiyatdagi o'rni va roli belgilanganmi, axborot texnologiyalari deyilganda-chi, nimani tushunish mumkin? Bu kabi savollarga juda aniq va konkret javob berish mumkin. Ya'ni Axborotlashtirish - axborot resurslari, texnologiyalari va tizimlaridan foydalangan holda axborotga bo'lgan yehtiyojni qondirish uchun sharoit yaratishning tashkiliy, texnik, texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy jarayoni.<sup>2</sup>

<sup>2</sup>Концепция развития информатизации в Республике Узбекистан Законодательство о СМИ стран Центральной Азии.

Albatta, ta'kidlaydigan bo'lsak, bugungi kunda «axborot jamiyati» atamasi tobora ko'proq qo'llanilmoqda, ammo uni nazariy asoslash va keyingi rivojlanish istiqbollarini aniqlashga yetarlicha ye'tibor berilmayapti. Globallashuv sharoitida axborot bumidan tashqarida bo'lishning iloji yo'q. Shu bois jamiyat hayotining barcha sohalarini axborotlashtirish uchun asos bilan ta'minlash zarur ko'rinadi. Axborot jamiyati XXI asr jamiyati bo'lib, unda muammolar taraqqiyot soyasida qolmaydi, balki umuminsoniy sa'y-harakatlar bilan birgalikda hal etiladi.

Keling, atamaning o'ziga qaytaylik. Axborot jamiyati sotsiologik va futurologik tushuncha bo'lib, ilmiy-texnikaviy va boshqa axborotlarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili deb hisoblaydi. Axborot jamiyati tushunchasi postindustrial jamiyat nazariyasining o'ziga xos turi bo'lib, unga D.Bell, Z.Bjezinski, O.Toffler asos solgan.

Axborot jamiyati nazariyasi tarafdorlari ijtimoiy taraqqiyotni “bosqichlar o'zgarishi” deb hisoblagan holda uning shakllanishini qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish iqtisodiyotidan keyingi “to'rtinchi” – iqtisodiyotning axborot sektori hukmronligi bilan bog'laydilar.

Shu bilan birga, sanoat jamiyatining asosi sifatida kapital va mehnat axborot jamiyatida o'z o'rnini axborot va bilimga bo'shatib berayotganligi ta'kidlanadi. Axborot texnologiyalarining inqilobiy ta'siri axborot jamiyatida sinflar o'rnini ijtimoiy jihatdan farqlanmagan “axborot hamjamiyatlari” egallashiga olib keladi (Ye. Masuda). Toffler an'anaviy yirik korporatsiyalarni «kichik» iqtisodiy shakllar - uyda individual faoliyat, «yelektron kottej» bilan taqqoslaydi. Ular inson hayotining “info”, “texno” va boshqa sohalar bilan axborot jamiyatining umumiy tarkibiga kiradi. Televizion, kompyuter xizmati va energetika – “telekompyuter energiyasi” (J.Pelton) sintezi asosida “global yelektron sivilizatsiya” loyihasi ilgari suriladi.

Ijtimoiy munosabatlarning globallashuv jarayonlari har xil turdagi sub'ektlarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy faoliyatining butun tizimini sezilarli darajada murakkablashishiga va ularni boshqarish va axborot bilan ta'minlashning zarur mexanizmlarini shakllantirishga olib keladi. Shu bilan birga, tizimli tahlil va bir qator operatsiyalarni tadqiq qilish bugungi kunda yaxshi ishlaydigan axborot jarayonlarisiz mumkin emas. Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, insoniyat hayotining barcha jabhalariga keng joriy etilishi ularni jiddiy qayta qurishga, ijtimoiy faoliyatning yangi shakllarining paydo bo'lishiga olib keldi<sup>3</sup>.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi – konstitutsiyaviy huquq nazariyasida huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning zarur oqilona usuli; insonga uning iqqisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadigan,

<sup>3</sup>Хамида Муксимова. Некоторые аспекты формирования информационного общества в Узбекистане. журнал “Интелпрос” №4, 2011 г. Россия.

qonun ustuvorligi va inson huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan, ko'p partiyaviylik, siyosiy intlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadigan hamda o'zini o'zi boshqarish organlarining mavqei baland bo'lgan ijtimoiy tuzum<sup>4</sup>. Fuqarolik jamiyatini qurish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichma-bosqich o'tish orqali ro'y beradi. Mamlakatimiz istiqbolga erishganidan keyin O'zbekiston adolatli fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan bormoqda. Bu yo'l ajdodlarimiz hayotida tarixiy tajribaga ega bo'lish bilan birga xalqaro miqyosda ham keng qo'llanilishi bilan ahamiyatlidir<sup>5</sup>.

Jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish fuqarolarning huquqlarini ta'minlash va himoya qilish hamda qonun ustuvorligini mustahkamlashning muhim shartlaridan biridir. Inson huquqlari madaniyatini shakllantirish davlat faoliyatining muayyan shakllarida, jumladan, barcha turdagi va darajadagi ta'lim tizimi, malaka oshirish tizimlari inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatida ifodalanadi.

Prezidentimiz farmoni bilan tasdiqlangan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasida inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiyaga alohida urg'u berilgan. Bu borada maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalarida, akademik litsey va kollejlarda, shuningdek oliygohlarda "Inson huquqlari", "Ayollar huquqlari", "Bola huquqlari" o'quv kurslarini joriy etish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Hayot haqiqati shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi shiddatli davr insonlarda siyosiy ong va huquqiysavodxonlikni, ma'naviyyuksalishni, umuman, hartomonlama shakllanib borishni talab etmoqda. Keng miqyosdagi yangilanishlar jarayonida ularning daxldorligini oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ayni mana shunday vaziyatda jurnalistika sabab inson omili rivojlanadi, o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotni ola bilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Asosiysi, kerakli axborot bilan ta'minlanishiga erishiladi.

O'rinli bir savol tug'iladi – ta'limda ham jurnalistikaning o'rni bormi? Albatta, ayni haqiqat, ta'limning rivoji hamda uning insonlar ongiga singishida ta'limning o'rni beqiyos. Ayniqsa, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilingandan so'ng, xalqaro hamjamiyat inson huquqlari va asosiy erkinliklariga ustuvor ravishda e'tibor bera boshladi. Mazkur huquqlardan biri – ta'lim olish huquqi – barcha inson huquqlaridan foydalanishga yo'l ochadigan boshlang'ich nuqtadir. Ta'lim olish huquqi - inson huquqlari bo'yicha ta'limni o'z ichiga olib, ushbu huquqlarni o'rganish, shuningdek, jamiyatimizda inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish usullari, vositalarini ham o'z ichiga oladi. Inson huquqlari bo'yicha ta'lim va tarbiya – bu inson hayoti mobaynida davom etadigan va turli yoshdagilarga tegishli bo'lgan jarayondir.

<sup>4</sup> Г.Абдукаримова ва бошқа.Фуқаролик жамияти институтлари салоҳиятини мустаҳкамлаш, жамиятнинг ҳуқуқий маданияти ва ижтимоий фаоллигини оширишга оид Ўзбекистон тажрибаси. Т.: 2016

<sup>5</sup> Obid tangriyev. <http://uza.uz/posts/329519>.T.: 2021

2004-yilning 10-dekabrida BMTning Bosh Assambleyasi barcha bo'linmalarida inson huquqlari sohasidagi ta'limni amalga oshirishga ko'maklashish maqsadida Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturini e'lon qilindi. Bundan maqsad barcha davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va biznes sektorida inson huquqlari sohasidagi ta'lim dasturlarini amalga oshirishga ko'maklashishdir.

Jahon ta'lim dasturi doimiy amalga oshiriladigan uzluksiz 4 bosqichdan iborat tashabbus bo'lib, barcha yo'nalishlarda inson huquqlari sohasidagi ta'limni amalga oshirishga ko'maklashish maqsadida davlatlar inson huquqlari bo'yicha ta'limni boshlang'ich va o'rta maktab, oliy ta'lim tizimida, o'qituvchi va targ'ibotchilar, davlat xizmati, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va barcha darajadagi harbiylar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari vakillari o'rtasida singdirib borishlari lozimligi belgilandi.

2020-2024-yillarda Jahon ta'lim dasturining to'rtinchi bosqichi amalga oshirilmoqda, ushbu bosqich yoshlarni tenglik, inson huquqlariga amal qilish va kamsitmaslik ruhida tarbiyalash va inklyuziv, tinch va osoyishta jamiyatni yaratishga imkon beruvchi ta'lim berishga qaratilgandir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya to'g'risidagi deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirish hamda inson huquqlari madaniyatni shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi tomonidan 2019-yil 15-iyulda BMTning Inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya to'g'risidagi deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirish bo'yicha milliy harakatlar dasturi va uning ijrosi yuzasidan «Yo'l xaritasi» qabul qilindi.

Fuqarolik jamiyatini jalb etgan holda inson qadr-qimmatini hurmat qilishni tarbiyalash maqsadida ishlab chiqilgan inson huquqlari sohasidagi o'quv-ma'rifiy dasturlarni tizimli amalga oshirish bo'yicha ishlarni mustahkamlash hamda har qanday ijtimoiy guruhga va umuman jamiyatga mansub har bir shaxsga nisbatan inson huquqlari amalga oshirilishini ta'minlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Shu ma'noda, O'zbekiston Prezidentining 2021-yil 7-iyundagi farmoyishiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturining to'rtinchi bosqichini amalga oshirish bo'yicha milliy komissiya tashkil etilgani dolzarb va tarixiy ahamiyatga egadir.

Milliy komissiyani tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsad barcha uchun universal bo'lgan huquqni himoya qilish normalari va tamoyillari, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilishning xalqaro kafolatlari to'g'risidagi xabardorlikni, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi ishlar samaradorligini yanada oshirishdir.

Prezident farmoyishida Milliy komissiyaning barcha vazifa va vakolatlari

aniq belgilab berilgan. Jumladan, xalqaro shartnomalar normalari va standartlari, BMTning huquqni himoya qiluvchi tuzilmalari tavsiyalari hamda O'zbekiston jamiyatining tarixiy, milliy va madaniy qadriyatlarini inobatga olgan holda Inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturini ishlab chiqish masalasi kun tartibiga qo'yilgan.

Davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari aholi orasida umuminsoniy qadriyatlar, inson huquqlarini hurmat qilish va rioya qilish tamoyillarini ommalashtirishga, shuningdek fuqarolarning huquqiy axborotdan foydalanishini ta'minlash jarayoniga keng jalb etildi. Shu jarayondan ko'rish mumkinki, ta'lim tizimini kengroq jalb etishda aynan jurnalistikaning o'rni va roli nechog'lik yuqori ekanligini.

Albatta, fuqarolik jamiyati va ta'limda jurnalistikaning o'rnini yana bir jihat bilan tilga olsak bo'ladi, ya'ni uning mavjudligi sabab inson har tomonlama kuchli fikrlash qobiliyatiga ega bo'ladi, siyosiy, ma'naviy va ma'rifiy jihatdan shakllanadi. Birgina siyosiy qarashlarning shakllanishini olaylik. Bu shakllanish avvallari asosan gazetalar orqali ta'sir qilar edi, bugun esa barcha ommaviy axborot vositalari orqali o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Ta'kidlash lozim, ilgari maktablarda dars boshlanishidan avval besh daqiqalik "siyosiy axborot" — gazetalar sharhi o'tkazilar edi. Katta avlodning siyosiy yetukligiga shu ham sabab bo'lgandir, balki. Zero, har doim siyosiy tuzumning o'zgarishi va qayta qurish jarayonlari odamlarga islohotlar mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali kechgan. Va bunda bosh rolni aynan matbuot o'ynagan. Tarixga nazar solsak, bunga yetarlicha misollarni ko'rish mumkin.

Jurnalistika deganda bugun ko'pchilikning ko'z o'ngida aynan ijtimoiy tarmoqlar yoxud internet jurnalistikasi keladi. To'g'ri, bugun ular butun hayotni qamrab olganlini, ammo ba'zan esa noto'g'ri axborotlarning tarqatilayotganligining ham guvohi bo'lib kelyapmiz. Shunday ekan, har bir ommaviy axborot vositasinig fuqarolik jamiyatidagi o'rni va roli borligini unutmasligimiz shart.

Keyingi yillarda O'zbekistonda so'z va matbuot erkinligini ta'minlash uchun ochiq maydon yaratildi. Bunday imkoniyatdan foydalanish yo'lidagi turli g'ovlar: ma'muriy, norasmiy cheklovlar deyarli olib tashlandi. Jamiyatda har kim o'z fikrini bimalol bildirishi, murojaat va e'tirozlari, taklif hamda shikoyatlarini erkin ifoda etishi uchun zarur huquqiy baza yaratildi va u takomillashtirilmoqda. Tan olish kerak, bugungi kunda jamiyatda auditoriya qamrovi bo'yicha va umuman, kontent reytinglarida nodavlat ommaviy axborot vositalari, xususan, internet saytlari, shuningdek, blogerlar yuritayotgan onlayn kanallar yetakchi o'rinlarda turadi. Biz ularning bu yutuqlaridan faqat xursand bo'lamiz. Shu bilan bir qatorda, bu hali oldimizda qilinadigan ishlar ko'pligini ham anglatadi. Yaxshi tomoni shundaki,

mazkur holat plyuralizm mavjudligini anglatadi, bu esa axborot tarqatishda raqobatni kuchaytirib, so'z va fikr erkinligi uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu, o'z navbatida, fuqarolik jamiyati qurishning asosiy talablaridan biridir.

Fuqarolik jamiyatida jurnalistikaning o'rnini belgilab berishda jurnalistning ham o'rnini bor. Albatta, mamlakatimizda so'nggi yillarda jurnalist kadrlar tayyorlaydigan o'quvdargohlarisoni ko'paydi. Shunday ekan, bo'lg'usi jurnalistlarning davlat organlari muassisligida faoliyat yuritadigan tahririyatlar va telekanallarda amaliyot o'tashini tashkil qilish ham dolzarb masalalardan. Bu yerda ular haqiqiy jurnalistik materiallar qanday tayyorlanishini o'rganadi, sohaning negizini tashkil etuvchi bilim va malakalarini oshiradi. Aslida, demokratik fuqarolik jamiyatida jurnalistlarning obro'si anchayin baland bo'ladi. Chunki ular haqiqiy to'rtinchi hokimiyat, davlat va xalq o'rtasidagi o'ziga xos ma'naviy-ma'rifiy ko'priklardan biri hisoblanadi. Binobarin, jurnalist har bir yozayotgan so'zi uchun mas'uliyatni his etadi, xalq, jamiyat oldida javobgar va hisobdor bo'ladi. Blogerda esa mutlaqo boshqacha yondashuv. U ko'p hollarda o'zining shaxsiy fikrini ifodalaydi va bu fikr jamiyatga muayyan ta'sir o'tkazadi. Bu yerda gap jurnalistlarni blogerlar bilan, davlat ommaviy axborot vositalarini xususiylari bilan taqqoslashda emas. Asosiysi, bugungi kunda ular o'rtasidagi muvozanatni saqlash. Bunda jurnalistlardan davr talablariga moslashish, mehnat samaradorligini oshirish talab etiladi. Bu esa mamlakatimizning axborot xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilishi, shubhasiz.

Shunday qilib, inson huquqlari ta'limi, davlatning inson huquqlari sohasida xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlari bo'yicha qabul qiligan majburiyatlarini amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lgan to'g'ridan to'g'ri majburiyati hisoblanadi. Inson huquqlarini o'qitish – fuqarolar yuridik ta'limining tarkibiy qismi hisoblanib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida liberallashtirish va demokratlashtirish jarayoni ketayotgan, huquqiy davlat qurilayotgan hamda adolatli fuqarolik jamiyati shakllantirilayotgan hozirgi sharoitlarda ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi.

So'zimiz so'ngini mamlakatimiz prezidentining fikrlari bilan xulosalaymiz, "Axborot maydonidagi turli bahs va tortishuvlar, avvalo, haqqoniylik va xolislik tamoyillariga asoslanishi, qonun va odob qoidalari doirasida bo'lishi, shaxsiy g'araz va xusumatga, soxta obro' orttirish usuliga aylanib ketmasligi, inson shaxsi va sha'nini tahqirlashdan yiroq bo'lishi, bunday salbiy holatlarga bizning media maydonimizda mutlaqo o'rin bo'lmasligi kerak".

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Beruniy Alimov. Axborot glaballashuvi jarayonida jurnalistikaning yangi vazifalari. <http://beruniyalimov.uz/archives/659#:~:text=http%3A//journalist.uz/category/hazariya%2Dva%2Damaliyot%2Duz/ilmij%2Dma%2Dolalar/>. T.: 2020
2. G. Abdukarimova va boshqa. Fuqarolik jamiyati institutlari salohiyatini mustahkamlash, jamiyatning huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini oshirishga oid O'zbekiston tajribasi. T.: 2016
3. Obid Tangirov. <http://uza.uz/posts/329519>. T.: 2021
4. O'tkir Rahmat. Matbuot – hayot ko'zgusi. Xalq so'zi. T.: 2020
5. O'tkir Rahmat. Matbuot – hayot ko'zgusi. Xalq so'zi. T.: 2020



**XALQ TA'LIMI:**  
**MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR**

**PUBLIC EDUCATION:**  
**PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS**

**Bosh muharrir:**

RADJIYEV Ayubxon Baxtiyorxonovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

PARDAYEVA Mehriniso Doniyarovna

**Mas'ul kotib:**

**Dizayner:**

OLIMOV Shmashod

**Adabiy tahrirchilar:**

DO'SMATOVA Yulduzxon Qambarovna

NURMUHAMEDOVA Dildor Uralovna

**Tahrir hay'ati:**

|                                    |                                    |
|------------------------------------|------------------------------------|
| PAXRUTDINOV Shukritdin Ilyasovich  | SHARIFXODJAYEV Usman Ulfatovich    |
| RAXMANKULOVA Nargiz Xadjiakbarovna | MIRSOLIYEVA Muhabbat To'xtasinovna |
| XODJAYEV Begzod Xudoyberdiyevich   | XALIKOV A'zam Abdusalomovich       |
| KARIMOV Farxod Erkinovich          | BAXRAMOV Anvar Axrarovich          |
| XIDOYATOVA Dilafruz Abdugaffarovna | AXMEDOV Murodjon Ubaydullayevich   |
| IBRAGIMOV Abdumalik Gapparovich    | BOTIROV Hamid Hakimovich           |
| ABDULLAYEV Farxod Abdurashidovich  | RO'ZIQULOV Faxriddin Rasulovich    |
| QODIROV Umarali Do'stqobilovich    | SHARIFXODJAYEV Usman Ulfatovich    |

**Tahririyat manzili:**

Toshkent shahar, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 6-uy.

Pochta indeksi – 100095, Telefon. (+998) 71 227 12 52, Faks: (+998) 71 246 06 69,  
web-site: [www. avloniy.uz](http://www.avloniy.uz), e-mail: [avloniy@xtv.uz](mailto:avloniy@xtv.uz)

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan matnlar "Xalq ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar" ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Ushbu songa mas'ul – Pardayeva Mehriniso Doniyarovna

© "Xalq ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar" jurnali, 2022.





WWW.AVLONIY.UZ

